Dolzarbligi. Bugungi kunda Respublikamizda gimnastika ustuvor sport turi sifatida qaralmoqda. Talaba sportchilarimiz nufuzli xalqaro musobaqalarda, jumladan, Butunjahon universiadasi va Jahon chempionatlarida yurtimiz dovrug‘ini munosib himoya qilib kelishmoqda. «Biz badiiy gimnastika, sport gimnastikasi va tramplin sohasida eng yangi ilmiy-metodik tavsiya hamda yutuqlar asosida respublikaning terma jamoalari uchun sport zaxirasi va yuqori darajali sportchilarni tayyorlash bo‘yicha o‘quv-mashg‘ulot jarayonini samarali tashkil etish va amalga oshirishimiz lozim» [1]. Yurtimiz gimnastikachilarining bunday yuqori natijalarida ilmiy va amaliy ta’minot bevosita yuqori o‘ringa ega hamda doimiy takomillashtirishni talab qiladi. Respublika sport zaxiralari va sport terma jamoalarini, shu jumladan, sport gimnastikasi bo‘yicha terma jamoamizni xalqaro sport tadbirlariga tayyorlashning ilmiy ta’minotini yangi innovatsion tajribalar asosida takomillashtirish belgilangan asosiy vazifalardan biri bo‘lib, dunyoda yuqori natijalar zamonaviy sport tizimidagi raqobatbardoshligini oshirishni taqozo etmoqda. Bugungi kunda gimnastika sport turida jahon va Osiyoning yetakchi davlatlari bilan bellasha oladigan xalqaro darajadagi gimnastikachilarni tayyorlash ko‘p jihatdan kasbiy tayyorgarlik jarayonini boshqarishning samaradorligi bilan belgilanmoqda. Sport gimnastikachilarning kompleks nazorat qilishni takomillashtirish bo‘yicha izlanishlar olib borish hozirgi kunda muhim vazifalaridan biri hisoblanadi [2; 60-72-b., 3; 12-26-b., 8; 65-b.]. Davlatimiz rahbari tomonidan respublikamiz ta’lim tizimida yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashda ularning asosiy kasbiy faoliyati turlari tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy yutuqlarni amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish vazifalari ustuvor yo‘nalishlar sifatida belgilab berilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Gimnastika vositalari orqali oliy ta’lim muassasalari talabalarini kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari. gimnastika asosidagi muhim jismoniy mashqlar: egiluvchanlik, tezkorlik, kordinatsion va shunga o‘xshash ko‘nikmalari shakllantirish.

Adabiyotlar tahlili. Bugungi kunda gimnastika sport turi – jismoniy tarbiya va shaxs rivojlanishining samarali va ko‘p qirrali vositalaridan biriga aylanmoqda. Gimnastika sport turi bilan shug‘ullanish organizmning ko‘plab muhim tizimlariga samarali ta’sir ko‘rsatadi va ularni yuqori darajada takomillashtiradi. Shu sabablarga ko‘ra gimnastika ko‘plab mamlakatlarning jismoniy tarbiya tizimida salmoqli o‘ringa ega. Gimnastika sport turlariga ixsoslashtirilgan hamda umumta’lim maktablari, oliy o‘quv yurtlarining jismoniy tarbiya fani dasturlariga kiritilgan. Jismoniy madaniyat jamoalari sport seksiyalari va harbiy bo‘linmalarda sport

gimnastikasi bilan doimiy shug‘ullanishadi. Gimnastika sport turi yopiq va ochiq sport maydonlarida ko‘plab ommaviy-sport tadbirlarida faol dam olish va hordiq chiqarish vositasi sifatida qo‘llaniladi, bu esa kam harakatli turmush tarziga ega odamlar uchun huzur-halovat bag‘ishlaydi [4; 2; 5; 3;].

Gimnastika sport turi bilan shug‘ullanish talabalar organizmning ko‘plab funksiyalariga va talabalarning shaxsiy sifatlariga samarali ta’sir ko‘rsatadi, jumladan:

- gimnastika asosidagi muhim jismoniy mashqlar: egiluvchanlik, tezkorlik, kordinatsion va shunga o‘xshash ko‘nikmalari shakllanib boradi;
- talabalarning ko‘plab jismoniy sifatlari: sakrash, kuch, tezlik, chaqqonlik, chidamlilik sifatlari rivojlanadi;
- talabalarning intellektual qobiliyatlari rivojlanadi, sezgi organlari, aksariyat psixik holatlar takomillashadi. Bu boradagi ijobiy belgilar: mehnatsevarlik, maqsadga intiluvchanlik, qat’iylik, g‘alabaga ishonch, jamoaviylik hissiyoti kabilarni shakllantirish uchun yaxshigina sinov maydonidir;
- sportning har qanday boshqa turi kabi, gimnastika bilan shug‘ullanishning to‘liq foydaliligi to‘g‘risida xulosa chiqarish, albatta, birmuncha bo‘rttirish bo‘ladi. Har qanday tirik organizm faqatgina mashqlar jarayonida takomillashishini e’tiborga olgan holda, ularning miqdori, me’yorini ham e’tibordan chetda qoldirmaslik lozim. O‘tgan asrlardanoq, tabiblar har qanday narsa (bizning holatda – mashqlar) organizm uchun dori yoki zahar bo‘lishi mumkin – hamma ish me’yorga bog‘liq bo‘ladi, deb ta’kidlashgan. Jumladan, gimnastika sport turida ham o‘ta zo‘riqib mashg‘ulot olib borish sportchini kamdan-kam hollardagina sog‘lomlashtiradi. Ko‘plab jarohatlar, jismoniy va ruhiy zo‘riqishlar oxir-oqibatda professional sportchilarning sog‘lig‘iga salbiy ta’sir ko‘rsatadi;
- boshqa tomondan esa, sport mashg‘ulotlariga juda ko‘p vaqt ajratilsa (deyarli har kuni ikki-uch martadan mashqlar, yig‘inlar, turnirlar), professional gimnast organizmi genetik dasturida mavjud o‘zga funksiyalarni takomillashtirishning bir qator jihatlarini, inson faoliyatining hayotiy muhim sohalarini ta’minlovchi boshqa yo‘nalishlar e’tibordan chetda qoladi. Bu esa shaxsni ma’lum bir chegaragacha cheklashga olib keladi. Sportni kasb sifatida tanlagan inson uchun bu muqarrar qo‘shimcha natijadir, barcha kasblar ham inson shaxsiga muayyan ta’sirini o‘tkazadi;
- organizmning boshqa a’zolari esa zo‘riqadi va toliqadi. Psixologik tartibdagi doimiy zo‘riqishlar ham xavfli – ular sportchilarni (birinchi navbatda murabbiylarni) ancha ertaroq hissiy zo‘riqishiga, tushkunlik va boshqa kasalliklarga olib kelishi mumkin;
- jismoniy tarbiya va sport tizimida mazkur qiziqarli sport turi – gimnastika bilan mashg‘ulotlarni shunday tashkil etish zarurki, bu mashqlar o‘qishga, kasb egallashga, sog‘lom bo‘lishga, samarali ishlashga, oilaviy muammolarni chin dildan hal etishga xalal bermay, balki ko‘maklashsin. Shundagina gimnastika sporti bilan

shug‘ullanish oliy ta’lim muassasasi talabalari hayotiga huzur bag‘ishlaydi. Ushbu qiziqarli va foydali sport turi kuchli hissiy kechinmalarga olib keladi, shuningdek, mashqlar natijasida organizmning funksional tizimlari takomillashganini his etish mumkin va gimnastikachining ko‘plab ijobiy sifatlari shakllanadi [4; 8].

Yuqoridagi adabiyotlar tahlilidan ko‘rinib turibdiki, oliy ta’lim muassasalari talabalarining gimnastika sport turi orqali kasbiy va jismoniy sifatini sport ixtisosligi vositalari yordamida oshirish kam o‘rganilgan muammolardan biri bo‘lib qolmoqda: ularning o‘quv faoliyati natijadorligini belgilab beruvchi ustuvor ko‘nikma va malakalarni, shaxsiy sifatlarini shakllantirish, harakat va texnik tayyorgarlik darajasini oshirish masalalari yetarlicha to‘liq yoritilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Biz o‘tkazgan tadqiqotda adabiyotlar tahlili, pedagog kuzatuv, jismoniy tayyorgarlikni pedagogik testlash, pedagogik tajriba, psixofizalogik usullar, hujjatli materiallar tahlil qilish, savol-javob va so‘rovnoma, matematik statistika usullaridan foydalanilgan. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishning maqsad va vazifalarining amaliy hamda ilmiy asoslanganligi, muallifning dastlabki uslubiy pozitsiyalarining mantiqiyligi, pedagogik tadqiqotlarning turli usullari yordamida olingan ma’lumotlarning qiyosiy tahlili, haqiqiy amaliy faoliyatning maqsadli tahlil qilinganligi, gipotezaning aniq nazariy va amaliy natijalar bilan tasdiqlanganligi, natijalarning ishonchliligi empirik ma’lumotlarni olishning fanda qabul qilingan usullaridan, natijalarni qayta ishlashning umume’tirof etilgan statistik usullaridan foydalanganlik va tanlovning kengligi bilan ta’minlangan.

Tadqiqot natijalari va uning muhokamasi. Gimnastika nazariyasi va metodikasi sohasidagi yetakchi olim va mutaxassislarning tavsiyalari dastlabki tadqiqotlar materiallari o‘quv yillar jarayoni uchun maxsus jismoniy va texnik tayyorgarlik bo‘yicha keng qamrovli dasturni ishlab chiqishga va asosiy eksperimentda ilmiy asoslashga imkon berdi.

Boshlang‘ich ilmiy-pedagogik tadqiqotlarni tashkil etish, shuningdek, talabalarga sport gimnastikasi o‘quv dasturining bo‘limlarini gimnastika xodasida oqilona bajarish uchun akrobatik va xoreografik mashqlarni o‘rgatish vositalari va usullarini samarali tanlash va ular asosida kelajakda murabbiy-o‘qituvchilarning kasbiy va pedagogik bilimlari va ko‘nikmalarini shakllantirish maqsadida uch bosqichli ilmiy tajriba o‘tkazildi.

Kompleks dasturni shakllantirishda quyidagilarga:

- o‘rgatish vositalarining eng muhim omillarini aniqlash va ularni sport pedagogik mahoratini oshirish kursining talabalarining o‘quv-mashg‘ulotlari, semestrlar va o‘qitish jarayonlari bo‘yicha taqsimlash;

- nazorat standartlarini aniqlash, gimnastik xodada texnik tayyorgarlik uchun maxsus-metodik yo‘nalish va tayyorgarlik mashqlarini ishlab chiqishga alohida e’tibor qaratildi.

Ishlab chiqilgan dasturning amaliy ahamiyatini, nazorat guruhi kompleks

mashqlarini va asosiy yo'nalishlarini rivojlantirish mashqlarini aniqlash uchun va ularni talabalarning mashg'ulot jarayonida amalga oshirish, har oyning oxirida maxsus jismoniy tayyorgarlik va maxsus texnik tayyorgarlik bo'yicha nazorat sinovlari o'tkazildi.

Ikkala guruh gimnastlari tomonidan dasturiy elementlarni, akrobatik va xoreografik mashqlarni o'zlashtirish sifatini baholash uch kishidan iborat hakamlar guruhi tomonidan baholandi.

1-jadval

Gimnastika xodasida mashqlarni bajarishga mo'ljallangan maxsus mashqlar majmuasi (muvozanatni shakllantirishga yo'naltirilgan)

№	Mashqlar	Bajarilishi	Bajarish usuli
1.	Yo'nalish bo'yicha yuqoriga sakrash mashqlari, qo'llar har xil xolatlarda	10-20 marotaba	Mashq gilamda oyoqlarning kafti turli holatda bajariladi
2.	Qo'l va oyoqlarning har xil holatlarida teskari qo'yilgan o'rindiqda mashqlarni bajarish.		
3.	Yo'nalish bo'yicha oldinga va orqaga siljish bilan sakrashlar.	2x10 m polda	Dinamik muvozanatni saqlash.
4.	Xodada yon taraf bilan xarakatlanish (aylana, qadama qadam va qadam almashtirish bilan)	2x10 m polda	
5.	Muvozanat – saqlovchi mashqlar.	2-3 marotaba	Oyoqlar kaftining xar xil xolatlarda tayanib bajariladigan mashqlar. 10 d. kam bo'lmasin.
6.	Ko'zlarni yumgan xolda muvozanatni saqlash mashqlari.	2-3 marotaba	
7.	Ko'zlarni yumgan xolda oldinga siljish, qo'llar ikki tarafga, polda yo'nalish bo'yicha yurish.	2 x 10 m polda	Bel to'g'ri tutiladi. Boshni to'g'ri ushlash Kuraklar birlashtiriladi, bosh to'g'ri ushlanadi. Mashq oyoqlar kaftining o'zgartirilgan holatida bajariladi.
8.	Ko'zlarni yumgan xolda orqaga siljish, qo'llar ikki tarafga, polda, yo'nalish bo'yicha yurish.	2 x 10 m polda	Bel to'g'ri tutiladi. Kuraklar birlashtiriladi, bosh to'g'ri tutiladi. Mashq oyoqlar kaftini o'zgartirilishi bilan bajariladi.

Yakuniy tahlillarga kelsak, tajriba guruhi gimnastikachilarida natijalar ancha yaxshilanganligini ko'rishimiz mumkin. Tajriba va nazorat guruhi nazorat musobaqalari natijalarining tebranish diapazoni 8,7-9,3 ($P<0.05$)., Akrobatik mashqlarining texnik mahoratini oshirishdan tashqari xoreografiya, dastlabki pedagogik eksperiment oxirida, gimnastika xodasi mashqlarida subyektlarning muvozanatni saqlash mashqlarida ko'rsatkichlarining o'sishi kuzatildi va tajriba guruhi sportchilarining aniq ustunligi saqlanib qoldi. Shunday qilib, tajriba guruhi gimnastlarining muvozanatni saqlash qobiliyati 4,9 dan 7,6s gacha o'sdi, bu 55% o'sishni tashkil etdi ($p<0,01$). Amaliy mashg'ulotda muvozanatni saqlash vaqti ham

oshdi. Oldinga va orqaga sakrash mashqlarida ham natijalar statistik jihatdan ishonchli (37,1 va 32,5%, p<0,01), bu gimnastikachi-talabalarning harakatlarni aniq bajarish qobiliyatining oshganligini ko'rsatadi.

Nazorat guruhi talabalari ham ushbu test ko'rsatkichlari bo'yicha o'z natijalarini 34,9 ga oshirdilar; 23,7 va 28,1%. Ammo dastlabki eksperiment ko'rsatkichlari, xususan, koordinatsion qobiliyatlari va vestibulyar barqarorlik darajasi bilan statik farqlanishlar sezilarli emasligini ko'rishimiz mumkin (r>0,05).

Xulosa. Shunday qilib, olingan ma'lumotlarni qiyosiy tahlil qilish natijasida xulosa qilishimiz mumkinki, mashq bajarish mahorati pedagogik tajriba oxirida tajriba guruhi gimnastlari, nazorat guruhi gimnastlari ko'rsatkichlariga nisbatan gimnastika xodasida murakkab, dasturli va akrobatik mashqlarni bajarishda yaxshi natijalarni qo'lga kiritganligini ko'rishimiz mumkin.

Tadqiqotimizni yakuniy natijalariga binoan, tajriba guruhi talabalarining jismoniy va texnik tayyorgarligi ko'rsatkichlarining o'sishi ahamiyatli ravishda kechdi. Oliy ta'lim muassasalari talabalarini gimnastika vositalari orqali kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish saralash samaradorligini oshirish uchun pedagogik kuzatuv davomida gimnastika xodasi bilan bajariladigan elementlarni o'rgatishda texnik harakatlarga vaziyatga muvofiq tanlab reaksiya qilish vaqtini qisqartirishga qaratilgan mashqlardan foydalanib, maxsus jismoniy sifatlarni rivojlantirish modeli asosida talabalarning jismoniy imkoniyatlarini oshirib borish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 7-noyabrdagi PQ-2654-sonli "O'zbekiston Respublikasida sportning gimnastika turlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. www.lex.uz

2. Eshtayev A.K., Karabayeva D.S., Hasanova N. R. Badiiy gimnastikada buyumsiz bajariladigan mashqlarni o'rgatish uslubi. O'quv qo'llanma. "Fan va texnologiya nashiriyoti" -T.: 2013. – 60-72-b.

3. Eshtayev A.K. Sport gimnastikasi mashg'ulotining nazariy asoslari (uslubiy qo'llanma). O'DJTI nashriyot-matbaa bo'limi. -T.: 2009. – 12-26 b.

4. Umarov D.X. Sport takomillashuv bosqichidagi gimnastikachilarning mashg'ulot jarayonini kompleks nazorat qilish metodologiyasi. //Pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati, 2022. - 73 b.

5. Верхошанский Ю.В. На пути к научной теории и методологии спортивной тренировки //Теория и практика физической культуры. - М., 1998. - №2. - С. 21-26.

6. Tamara, DJumaniyazova. (2023). The sıgnıficance of mornıng gymnastıcs and ıts tasks. *Innovations in Technology and Science Education*, *2*(10), 968-973.

7. T.D.Adambaevna, (2023). Basıc theorıes and concepts ın physıcal educatıon subject. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, *11*(11), 222-225.

8. Т.А.Джуманиязова, (2024). Роль художественной гимнастики в спортивной системе. *Экономика и социум*, (1 (116)), 832-834.

9. Т.Джуманиязова, (2024). Теория и методика обучения художественной гимнастике юношей. *Общество и инновации*, 5(2/S), 95-99.

BALALAR HÁM ÓSPIRIMLER SPORTÍN JETILISTIRIWDIŃ TIYKARǴÍ MAShQALALARÍ

Kuralbaev Azizbek Kuralbaevich
p.i.b.f.d (PhD)
Ózbekstan mámleketlik dene tárbiyası hám sport universiteti Nókis filialı
kuralbaevazizbek3@gmail.com
Rejepova Mavlyuda Muratbay qızı
Student
Ózbekstan mámleketlik dene tárbiyası hám sport universiteti Nókis filialı

Annotaciya: *Bul maqalada dene tárbiyası hám sport arqalı balalar hám jas óspirimlerdiń den-sawlıǵı, fizikalıq jaǵdayın rawajlandırıw máseleleri úyrenilgen. Sonday-aq, mektep oqıwshılarınıń dene tárbiyası mashqalaları, olarda dene tárbiyasına bolǵan múnásibetlerdi qáliplestiriwdiń áhmiyeti kórsetip ótilgen.*

Tayanısh sózler: *Dene mádeniyatı, dene tárbiyası, sport, mákeme, bilimlendiriw, sapa, ilimiy-izertlew, mektep bilimlendiriwi, metodologiya.*

Аннотация: *В данной статье исследуются вопросы здоровья, физического состояния детей и подростков посредством физического воспитания и спорта. Также показаны проблемы физического воспитания школьников, важность формирования у них ценностного отношения к физическому воспитанию.*

Ключевые слова: *Физкультура, физичекой воспитание, спорт, учреждение, образование, качество, научно-исследовательская работа, школа образования, методология.*

Abstract: *This article examines the issues of health, physical condition of children and adolescents through physical education and cnopms. The problems of physical education of schoolchildren, the importance of forming their value attitude to physical education are also shown.*

Keywords: *Physical culture, physical education, sports, institution, education, quality, research work, school of education, methodology.*

Aktuallıǵı: Búgingi kúnge shekem kóplegen sport baǵdarlamaları islep shıǵılǵan, olar arasında hátte fizikalıq imkaniyatı sheklengenlerde ózi ushın sáykes shınıǵıwlar hám júklemelerdi tańlawı múmkin. Sport insan denesin bekkemleytuǵınlıǵı tábiyiy jaǵday, onda zárúr fizikalıq pázıyletlerdi rawajlandıradı.

Biraq bul hámmesinde de emes. Sportta insannıń shıdamlılıǵı hám minez-qulqı qáliplesedi. Yaǵnıy, zamanagóy sport tek ǵana tikleniw quralı emes, al insannıń fizikalıq hám aqılıy ózin-ózi jetilistiriw quralı sıpatında da isleydi.

Trenerler kóbinese sporshılardıń eń joqarı nátiyjelerge erisiw ushın eń maqul bolǵan jas dáwirlerin esapqa almaydı, nátiyjede olar keleshek tágdiri haqqında oylamastan, óspirimlik dáwirinde joqarı nátiyjelerge erisiwge umtılǵan halda óz oqıwshılarınıń tayarlıǵın esapqa almaydı.

Jaslar sportınıń tiykarǵı maqseti hár bir sport túri ushın qolaylı jasta xalıq aralıq kategoriyadaǵı nátiyjelerge erisiw ushın qolaylı sharayatlardı jaratıw bolıp esaplanadı. Sonıń menen birge, jergilikli sport ámeliyatında eń jańa texnologiyalardan paydalanıw kórsetkishleri, tilekke qarsı, jeterli dárejede joqarı emes, ásirese, sırt el texnologiyalarına salıstırǵanda, qarjı jetispewshiligi sebepli de, olardan tolıq paydalana alatuǵın tájiriybeli qánigeler júdá az. Biraq, jaslar sportında jaqsı nátiyjelerge erisilgenligine qaramastan, onıń rawajlanıwına tosqınlıq etetuǵın bir qatar tiykarǵı qarama-qarsılıqlarda bar [1,2].

Birinshi qarama-qarsılıq - bul milliy maqsetler, strategiyalıq wazıypalar, dene tárbiyası hám sport haqqındaǵı nızam húJjetleriniń tiykarǵı principleri hám bir qatar túsiniklerdi anıqlawǵa baylanıslı nızam húJjetleri arasında sáykesliktiń joqlıǵı. Olar birden-bir sistemanı quramaydı, olar hár qıylı ministrlikler baǵdarındaǵı shólkemlerdiń túrleri boyınsha bólinedi. Nızam húJjetleri ilimiy tiykarlanǵan normalar menen tolıqtırılıwın támiyinlew hám konceptuallıq apparattı milliy maqsetler, strategiyalıq wazıypalar hám dene tárbiya hám sport haqqındaǵı nızam húJjetleriniń tiykarǵı principlerine beyimlestiriw kerek.

Ekinshi qarama-qarsılıq - bul jas áwladtıń jeke mápleri hám sporttıń bar imkaniyatları arasındaǵı sáykes kelispewshilik, kópshilik jaǵdaylarda balalar hám óspirimlerdiń zamanagóy talapların qanaatlandırmaydı hám olardıń turmıs tárizine sáykes kelmeydi.

Bul qarama-qarsılıq dene tárbiyası hám sporttan salamatlastırıw hám rawajlandırıw nátiyjesin alıw ushın anıq jeterli bolmaǵan shınıǵıwlar ushın shárayatlar hám háptelik fizikalıq jumıs normalarınıń analizi menen súwretlengen. Onı milliy maqsetler, strategiyalıq wazıypalar hám nızamshılıqtıń tiykarǵı principlerine beyimlestiriw ushın materiallıq-texnikalıq qáwipsizlik kóz qarasınan tiyisli standartlardı, dene tárbiya hám sporttıń salamat hám rawajlanıw tásirin kepilleytuǵın jáne turaqlı túrde shuǵıllanıwshılardı xoshametlew mexanizmlerin engiziw zárúr [3,4].

Úshinshi qarama-qarsılıq - sistemalı sport penen shuǵıllanıw wazıypası hám onı jas áwladtıń fizikalıq rawajlanıw dárejesi, fizikalıq tayarlıǵı, individual salamatlıq ózgeshelikleri hám qızıǵıwshılıqların esapqa alǵan halda tiykarǵı jumısı menen birlestiriwge imkan beriwshi mexanizmler arasındaǵı sáykes kelispewshilik. Bar qarama-qarsılıqlardı saplastırıw ushın dene tárbiyası hám sport sisteması balalar

hám jaslarǵa dene tárbiyası hám sportqa qızıǵıwshılıqların júzege shıǵarıw ushın keń imkaniyatlar jaratıwı kerek.

Sonday-aq, dene tárbiyası hám sport háreketin rawajlandırıw perspektivaların anıqlaw, ásirese zamanagóy shárayatta qıyın mashqala bolıp tabıladı. Biz onı tek teoriyalıq koncepciya tiykarında tabıslı sheshiw múmkin ekenligine isenemiz.

Bunday koncepciya sociallıq-pedagogikalıq mashqalalardı sheshiw, dene tárbiyası, balalar hám oqıwshılar sportın rawajlandırıwda sociallıq principlerdiń rólin arttırıw, bul tarawda balalar hám jaslardıń ózin-ózi basqarıwın rawajlandırıw, balalar hám jaslardı mámleket tárepinen qollap-quwatlawdıń tiykarǵı baǵdarların belgilewde anıq qollanba bolıwı kerek [5,6].

Házirgi waqıtta dene tárbiya, sport hám turizm, balalar hám jaslardıń bos waqıtları barǵan sayın kommerciyalıq jumıs obyektlerine aylanıp barmaqta. Bul, ásirese, iri qalalarda, kem támiyinlengen shańaraqlar hám hátteki orta dáramatlı studentler ushın kemirek kiriw imkaniyatına iye bolmaqta.

Dene tárbiyası hám sport háreketiniń rawajlanıwına úlken tosqınlıq - bul anıq regionallıq shárayatlarda balalar hám jas óspirimler sport associaciyalarınıń bar bolıwı ushın hár tárepleme islep shıǵılǵan normativlik tiykarlar, olardı jaratıw, jumıs alıp barıw hám orınlardaǵı mámleketlik uyımlar menen óz-ara qatnasıqlardı tártipke salıwshı zárúr nızam hújjetleriniń joq ekenligi bolıp esaplanadı.

Bizge belgili, dene tárbiyası hám sport háreketi dene tárbiyası hám sport jumısınıń insan, jámiyet hám mámleket ushın áhmiyetli sociallıq áhmiyetin tán alıwǵa tiykarlanǵan. Onıń áhmiyeti usı háreket sheńberinde insanıylıq kóz qarasınan bahalanadı, yaǵnıy insannıń ózi, onıń baxıtı, den-sawlıǵı, erkinligi hám qádiri, kóp qırlı rawajlanıwı, onıń barlıq qábiletleri, tınıshlıq, doslıq, óz-ara túsinisiwdiń kórinisi eń joqarı qádiriyat dep esaplanadı [7,8].

Zamanagóy shárayatta, jámiyetlik turmıstıń barlıq tarawlarında qayırqom shólkemlerdiń bar ekenliginde, balalar dene tárbiyası hám sport háreketi barǵan sayın anıq demokratiyalıq, gumanistlik xarakterge iye bolmaqta. Barǵan sayın ol tómendegi principlerge ámel etedi:

- hárekette ıqtıyarlı qatnasıw;
- ulıwma insanıylıq, ruwxıy hám ádep-ikramlılıq qádiriyatlardıń ústinligi, rasalıq, diniy yamasa siyasiy tiykarda hár qanday kemsitiwlerdiń aldın alıw;
- balalar hám úlkenler arasında sport tarawındaǵı jedel birge islesiw, olardıń birgeliktegi iskerligi balalardıń máplerıniń ústinligin esapqa alǵan halda;
- pedagogikalıq basqarıw hám balalardıń ózin-ózi basqarıwı, ózin-ózi tárbiyalaw, shaxstıń ózin-ózi ańlawı ushın shárayat jaratıw (shólkemlestiriwshilik, metodikalıq, normativlik hám sociallıq-psixologiyalıq dárejelerde);
- bir háreket sheńberinde bir-birin organikalıq túrde toltırıwshı hár qıylı qatnaslardıń bar ekenligi.

Sońǵı jıllarda dene tárbiyası hám sport tarawındaǵı bunday kórinislerden biri bul pútkil jámiyettiń dene tárbiyası hám sportqa bolǵan tereń múnásibeti, olardı jas

shaxstı, onıń ádep-ikramlılıq, estetikalıq hám ruwxıy tábiyatın ózgertiwdiń quramalı faktorı sıpatında túsiniw bolıp esaplanadı.

Jáne bir mashqala - jaslardı sport obyektleri menen támiyinlew, olardıń bir mártelik imkaniyatları, jámiyetlik birlespeler, balalar hám jas óspirimler sport mekteplerine tartılǵanlardı qamtıp alıw, obyektlerdi qurıw hám rekonstrukciyalaw, sport, dene tárbiya hám óndiris ushın anıq kapital qoyılmalar islep shıǵıw hám ámelge asırıw. Sonday-aq, bilimlendiriw mákemelerin keńnen sport penen shuǵıllanıw, balalar hám jas óspirimler dene tárbiyası hám sport háreketin rawajlandırıwdı basqarıw sxemasın islep shıǵıw, aymaqlıq hám tarmaqlıq sport klubların shólkemlestiriwdi támiyinlew kerek. Tiykarınan úsh túrli: tolıq sport túrleri tiykarında isleytuǵın klublar, jeke aǵzalıq tólemleri, ekonomikalıq iskerlikten alınǵan qarjılardan paydalanǵan halda ekonomikalıq esaplaw hám ózin-ózi qarjılandırıw.

Jeke aǵzalıq tólemleri hám klubtıń ekonomikalıq jumısınan alınǵan qarjılardan paydalanǵan halda shólkemlestiriwshi shólkemler hám biraz ózin-ózi támiyinlew esabınan bar bolǵan klublar, óz jumısın shólkemlestiriwshi shólkemler hám jeke aǵzalıq tólemlerinen alınǵan qarjılar esabınan ámelge asıratuǵın klublar.

Evropanıń kópshilik mámleketlerinde balalar hám jas óspirimler dene tárbiyası hám sport háreketi, studentlerdiń dene tárbiyasın rawajlandırıwdıń maqset hám wazıypaları hár qıylı dárejelerde qáliplesedi: Belgiya, Italiya, Portugaliya, Franciyada mámleket dárejesinde, Germaniya, Ispaniya, Shveycariya regionallıq yamasa jergilikli.

Barlıq Evropa mámleketleri sport qádiriyatları haqqında ulıwmalıq pikirge iye: siyasiy maqsetlerge erisiw ushın sporshılardı manipulyaciyalawǵa bolmaw, “hámme ushın sport” dem alıw ideyasın tolıq qollap-quwatlaw, jaslar tárbiyasında sporttıń áhmiyetin kúsheytiw.

Sebebi, jámiyet tárepinen jaslarǵa sport penen shuǵıllanıw imkaniyatların beriw tek ǵana bos waqıttan konstruktivlik paydalanıwǵa emes, al keńpeyillik, agressivlik, alkogolizm hám jámiyettiń basqa keselliklerin emlew sıyaqlı sociallıq mashqalalardı sheshiwge alıp keliwi kerek. Sonday-aq, olar jaslardı ózin-ózi tárbiyalaw, ózin-ózi jetilistiriw hám sport arqalı ózin kórsetiw proceslerine tartıw ushın jańa sharayatlar jaratıw zárúr.

Keyingi on jıllıqlarda Batis Evropanıń kóplegen mámleketlerinde sport dene tárbiyası ornın basladı. Kópshilik mámleketlerde oqıwshılardıń beyimliligin esapqa alıp, tústen keyin mektep sport associaciyaları yamasa kásiplik awqamlarındaǵı sabaqlardan bos bolǵan májbúriy ıqtıyarlı tańlaw sport túrleri qollanıladı. Daniya, Germaniya, Gollandiya, Ullı Britaniya, Franciyada mektepler hám olardıń sport associaciyaları ádette sabaqlar ushın mámleketke tiyisli jabıq hám ashıq sport imaratları menen támiyinlenedi.

Germaniyada jaslar sportın rawajlandırıwda kóplegen jámiyetler, ministrlikler, awqamlar, shirkewler, ilimiy mákemeler hám partiyalar qatnaspaqta. Belgili biznes

firmaları kóbinese mektep jarıslarınıń qáwenderleri sıpatında isleydi. Mektep sportın rawajlandırıwda mámleket hám jergilikli hákimiyat ekonomikalıq sektor sıpatında belgili bir wazıypalardı atqaradı.

Mámleketimizde de sporttı rawajlandırıwda sport mekteplerinińtiykarǵı mashqalaların sheshiw - trenerler quramınıń kásiplik ósiwin xoshametlew, mektepte oqıwshılar sanın kóbeytiw, sport nátiyjelerine erisiw - mámleket tárepinen qollap-quwatlaw menen tikkeley baylanıslı. Jaslar sportınıń eń áhmiyetli shólkemlestiriw mashqalaların sheshiw ushın tek ǵana jaslar sport mekteplerin saqlaw hám rawajlandırıw boyınsha nátiyjeli ilajlardı kóriw emes, al qarjılandırıw máselesin de sheshiw zárúr.

Ekinshiden, kadrlar. Sebebi mekteptiń bilimlendiriw hám tárbiya procesinde salamatlastırıw hám tárbiyalıq tárepler birinshi orında turadı. Nege búgingi kúnde mashqala bunshelli keskin?

1. Zamanagóy sharayatta kásiptiń abırayı jeterli dárejede joqarı emes hám biz trener hám muǵallimlerdiń jumısı ushın jeterli dárejede tólemeymiz.

2. Oqıw-shınıǵıw procesi hám ǵalabalıq sport jumısları medicinalıq qadaǵalaw hám támiynat penen birge bolıwı kerek.

Muǵallim-oqıtıwshı bir waqıttıń ózinde muǵallim, psixolog, shıpaker hám metodist bolıwı kerek. Bul mashqalalardı sheshiw ushın:

- qánigelerdi kásiplik tayarlaw hám qayta tayarlaw;
- jas áwladqa maman dene tárbiyası hám salamatlastırıw xızmetlerin kórsetiwge baǵdarlanǵan joqarı tájiriybeli kadrlardı tartıw;
- abırayın arttırıw, oqıw jılı juwmaqları boyınsha bir mártelik bonuslar túrinde materiallıq xoshametlew hám qosımsha tólemler sistemasın óz ishine alǵan trenerlerdi xoshametlew sistemasın islep shıǵıw. Máselen, tańlaw jeńimpazları bolǵan oqıwshılardı joqarı dárejede tayarlaw, dóretiwshilik, studentler kontingentiniń qáwipsizligi ushın;
- trenerlerge materiallar tayarlaw boyınsha jumıslar, ashıq sabaqlar, túrli tańlawlarda qatnasıwdı óz ishine alǵan attestaciyadan ótiwde járdemlesiw.
- balalar hám jas óspirimler arasında salamat turmıs táriziniń shırayın qáliplestiriw mashqalasın sheshiw ushın dene tárbiya hám sport penen shuǵıllanatuǵın jaslardıń unamlı imidjin jaratıw, sonday-aq, barlıq málimleme xızmetleriniń nátiyjeli sociallıq reklamasın jaratıw ushın barlıq ǵalaba xabar quralları menen maqsetli islesiw kerek.

Bizińpikirimizshe sport mekteplerinińjumısına tásir etiwshi mashqalalarǵa tómendegiler kiredi:

- oqıw-tárbiya procesiniń sapasın arttırıw;
- dene tárbiya hám sporttıń mámleketlik emes túrlerin keńeytiw;
- dene tárbiya ilájları hám sport iskerligi sanınıń kóbeyiwi;
- balalar arasında dene tárbiyası hám sporttı rawajlandırıw.

Juwmaqlap aytqanda, sport bilimlendiriw mákemeleriniń mashqalaların durıs kóriw hám túsiniw, olardı sheshiw jolları, mektep trenerleriniń kásiplik hám mamanlıq dárejesi, álbette, jas oqıtıwshılardıń dárejesiniń artıwı shárti menen mákemeniń ózgesheliklerin jaqsılawǵa járdem beretuǵın faktor esaplanadı.

Dene tárbiyası hám sport penen shuǵıllanatuǵın balalar hám jas óspirimler sanınıń kóbeyiwi xalıqtıń usı kategoriyası arasında hár qıylı keselliklerdi emlew hám jas óspirim jınayatshılar hám jınayatshılardı qayta tárbiyalaw procesine jumsalǵan qarjını bir neshe márte únemlew imkaniyatın beredi. Sport mekteplerinıń jumısında názerde tutılǵan ilajlardıń ámelge asırılıwı dene tárbiyası hám sport jumısların jaqsılaydı, sonday-aq, balalar hám jas óspirimlerdiń den-sawlıǵın ózgertiw, olardıń fizikalıq tayarlıq dárejesin arttırıw ushın imkaniyat beredi, bul bolsa aqırında jámiyettiń ekonomikalıq hám ruwxıy jaqtan jaqsılanıwına tásir etedi.

Paydalanılǵan ádebiyatlar:

1. Ózbekstan Respublikası Prezidentiniń 2021-jıl 5-noyabrdegi “Sport bilimlendiriwi sistemasın túp-tiykarınan jetilistiriw arqalı olimpiada hám paralimpiya sport túrleri boyınsha sporshılardıń rezervin qáliplestiriw sapasın bunnan bılay da jetilistiriw ilájları haqqında”ǵı PQ-5279-sanlı qararı.

2. Ózbekstan Respublikası Prezidentiniń 2021-jıl 5-noyabrdegi “Sport-bilimlendiriw mákemeleri jumısın 2025-jılǵa shekem rawajlandırıw baǵdarlaması haqqında”ǵı PQ-5280-sanlı qararı.

3. Ózbekstan Respublikası Prezidentiniń 2021-jıl 5-noyabrdegi “2024-jıl Parij qalasında (Franciya) bolıp ótetuǵın XXXIII jazǵı Olimpiada hám XVII Paralimpiya oyınlarına sporshılarımızdı kompleksli tayarlaw haqqında”ǵı PQ-5281-sanlı qararı.

4. Ózbekstan Respublikası Prezidentiniń 2021-jıl 5-noyabrdegi “Júriw, juwırıw, mini-futbol, badminton, stritbol hám “workout” sport túrlerin bunnan bılay da rawajlandırıw ilájları haqqında”ǵı PQ-5282-sanlı qararı.

5. Абдиев А.Н. Яккакураш спорт турларида ихтисослашувчи талабаларда мураббийнинг касбий кўникмаларини шакллантиришнинг илмий-педагогик асослари. Пед. фан. док. ... дис. –Т.:ЎзДЖТИ нашриёти, 2004. – 210 б.

6. Абрамова В.В. Формирование профессиональной компетентности будущих учителей физической культуры. Автореф.дис..канд. пед. наук.- Ростов-на-Дону:2006.–28 с.

7. Бавтрюков И.А. Формирование психолого-педагогической компетентности у будущих специалистов по физической культуре и спорту. Автореф.дис..канд. пед. наук.- Ульяновск: 2009. – 25 с.

8. Матвеев Л.П. Теория и методика физической культуры. – М.: Физкультура и спорт, 2000. – 331 с.

Ózbekstan mámleketlik dene tárbiyası
hám sport universiteti
Nókis filialı
“Dene tárbiyası hám sport Xabarshısı”
ISSN 2181-2268

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya
va sport universiteti Nukus filiali
“Jismoniy tarbiya va sport
axborotnomasi”
ISSN 2181-2268

YOSh POLVONLARINING TEZKOR KUCh QOBILIYATINI RIVOJLANTIRIShDA QOBILIYATINING AHAMIYATI

Nurekeev Bayrambay Temirbaevich
assistent-o‘qituvchi
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali
nurekeevbayrambay8686@mail.ru

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o‘zbek yosh polvonlari o‘quvchilarining shaxsiy fazilatlarini shakllantirishda psixologik ta’siri o‘rganiladi, olingan ma’lumotlarning tahlili berilgan, ularni rivojlantirish usuliyatini aniqlashda o‘quv-trenirovkalardagi mashq yuklamalarini ishlab chiqish va ularni rivojlantirish usuliyati bo‘yicha trenirovka jarayoni o‘rganish yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *yosh polvonlar, o‘quvchi shaxsi, psixologik sifatlar, shaxs sifatlarini shakllanishi.*

Аннотация: *В данной статье изучается психологическое влияние узбекских борцов на формирование личностных качеств учащихся, приводится анализ полученных данных, при определении методики их развития освещается разработка тренировочных нагрузок в учебно-тренировочных занятиях и изучение тренировочного процесса по методике их развития.*

Ключевые слова: *формирование юных борцов, личности учащегося, психологических качеств, личностных качеств.*

Abstract: *This article examines the psychological impact of Uzbek wrestlers on the formation of students personal qualities, provides an analysis of the obtained data, and, when determining the methodology for their development, illuminates the development of training loads in training sessions and the study of the training process based on the methodology for their development.*

Key words: *the formation of young wrestlers, the student's personality, psychological qualities, and personal qualities.*

Kirish. O‘zbekiston Respublikasining 2015-yil 4-sentyabrdagi yangi tahrirda qabul qilingan—“Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi qonunida o‘sib kelayotgan yosh avlodni salomatligini asrash va mustaxkamlash, yosh avlodni har tomonlama rivojlangan inson qilib tarbiyalash ustuvor maqsad va vazifalardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 3-iyundagi—“Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora tadbirlari to‘grisida”gi PQ-3031 sonli Qarori mamlakatimizning barcha xududlarida ommaviy sportning inson va oila hayotidagi muhim ahamiyati, uning jismoniy va ma’naviy salomatligining asosi ekanligi, yoshlarni zararli odatlardan asrash, ularga o‘z qobiliyati va iste’dodlarini ro‘yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish masalalariga e’tibor yanada kuchaytirilgan, ular orasidan iqtidorli

sportchilarni saralab olish, hamda maqsadli saralab olish masalalariga e’tibor yanada kuchaytirilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017- yil 2-oktyabrdagi—“Kurash milliy sport turini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3306-son Qarorida asrlar davomida mardlik, bag‘rikenglik, olijanoblik va halollikning timsoli sifatida e’zozlanib kelingan, o‘zbek xalqining tarixiy merosi—Kurash milliy sport turini yanada rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Maqsadi: Yuqoridagi qonun va qarorlar mamlakatning ijtimoiy iqtisodiy va siyosiy sharoitlariga muvofiq holda jismoniy tarbiya sport sohasidagi hamma sub’ektlar faoliyatini muvofiqlashtiradi, shuningdek O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sportning yuqori sifat bosqichiga ko‘tarilishiga yordam beradi.

Muhokama va natijalar: Kurash mashg‘ulotlarida turli kattalikdagi va yo‘nalishdagi yuklamalarning qo‘llanilishi mazkur masalani hal etishda katta ahamiyatga ega bo‘lishidan qat’iy nazar, ularning sportchilar organizmiga ta’siri to‘g‘risidagi muammo hal qilinmagan.

18-20 yoshli kurashchilarni maxsus tezkor-kuch sifatlarini aniqlash va mashg‘ulotlarda rivojlanish samaradorligini tahlil qilish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi: kurashchilar tayyorlash tizimida organizmiga katta va turli yo‘nalishdagi yuklamalarning ta’siriga talluqli tadqiqot natijalari olinib, yosh polvonlar guruhlarida mashq yuklamalarining samaradorligini oshirishda quyidagi yangi uslublardan foydalanildi:

- 18-20 yosh polvonlar kurashchilarning mashg‘ulot, kunlik va haftalik mikrosikllar (MS);

- yosh polvonlar organizmiga mashg‘ulotlar jarayonida harakat mexanizmining ta’siri samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan qo‘shimcha mashg‘ulotlarning uyg‘unligi, mashg‘ulotlarning umumiy sonini oshirish va uning natijasida maxsus ish qobiliyati samaradorligi o‘rganildi;

- yosh polvonlarning tayyorgarlik bosqichlarini rejalashtirish jarayonida mashg‘ulot yuklamalarining bajarilishini nazorat qilish, yuklamalarning turli kattaligi, yo‘nalishi, mashg‘ulotlar turining kuchi va ta’sir qilish tavsifi o‘rganildi;

- yosh polvonlarning tayyorgarlik bosqichlari davomiyligining o‘zgaruvchan holatiga va haftalik mikrosikl tizimida turli yo‘nalishlarda bajarilgan yuklamalarning natijalari samaradorligiga baho berildi;

Yosh polvonlarda maxsus tezkor-kuch sifatini rivojlantirishda trenirovka mashq yuklamalarining yangicha taqsimlash orqali faoliyatidagi natijalarni yuqori darajaga ko‘tarish.

- tadqiqot jarayonida kurashchilarning tayyorgarligi bosqichlarining tuzilishi, turli yuklamalar va yo‘nalishdagi usullarda o‘rganildi va samaradorligi tadqiqotda isbotlab berildi.

18-20 yoshli polvonlarning ish qobiliyatini oshirish borasida mavjud bo‘lgan omillarning biri sifatida tayyorgarlik bosqichlarida katta yuklamali mashg‘ulotlar

sonini izchillik bilan oshirish uslublari ishlab chiqilib, yuklamalarning amaliy mashg‘ulotlarda keng qo‘llanishi tizimlashtirildi va katta yuklamali mashg‘ulotlardan so‘ng tiklanish holatlariga faol ta’sirlari aniqlandi; mashg‘ulotlarni rasional almashish asosida kurashchilarning tayyorgarlik bosqichlari mikrosikllari variantlari, turli kattaligi va yo‘nalishiga qaratilgan mashg‘ulotlarni tashkil etish borasida ko‘rsatkichlar olindi.

Yosh polvonlar bilan olib boriladigan o‘quv trenirovkasida maxsus tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirish musobaqalarda yaxshi natijalarga erishishga imkon beradi.

Yosh polvonlarning tayyorgarlik bosqichlarida mashg‘ulotlar kattaligi va yo‘nalishi tizimlarini takomillashtirish, maxsus jismoniy tayyorgarligi sifatlarini rivojlantirish borasida qo‘shimcha mashg‘ulotlarni uyg‘unlashtirishda mikrosikl mashg‘ulotlarini ratsional almashlab o‘tkazish, katta yuklamali mashg‘ulotlarning umumiy sonini oshirish va uning natijasida kurashchilarning maxsus ish qobiliyatini samarali rivojlantiradi.

Yosh polvonlar maxsus tezkor-kuch sifatlarini aniqlash va ularni rivojlantirish uslubiyati orqali trenerovkadagi yuklamalarini optimal rejalashtirish musobaqalarda yuqori natijalarni beradi.

Kurashchilarda tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirish kurashchining raqib qarshiligini engib o‘tish yoki mushak kuchlanishi hisobiga unga qarshilik ko‘rsatish qobiliyati tushuniladi. Kuchning quyidagi turlari qabul qilingan: umumiy va maxsus, mutlaq va nisbiy, tezkor va portlovchi, kuch chidamliligi.

Yuqoridagilarga asoslangan holda shunday xulosa qilish mumkin: sportchilar organizmining shaxsiy xususiyatlari va har bir kurashchining tayyorgarlik darajasiga qarab mashg‘ulot yuklamalarining hajmi, shiddati va takror soni alohida belgilanadi. Tadqiqot natijasiga har bir kurashchining mashq darajasi va shaxsiy xususiyatlari ta’sir qilmasligi uchun biz ilmiy tadqiqot ma’lumotlariga mos holda solishtirma tadqiqot variantlaridan foydalandik.

Shu bilan birga yosh polvonlar 24 soatdan keyin uzoq muddatli, 2 kundan keyin qisqa muddatli shiddat bilan bajariladigan ishlarni bemalol bajarishlari mumkin. Yosh polvonlarning maxsus tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirish tahlili: Yosh polvonlarning maxsus tezkor-kuch sifatlarini aniqlash va tayyorgarlik bosqichida ularni rivojlantirish ustida ish olib bordik. Oldimizga qo‘yilgan masalalarni o‘rganish maqsadida kurashchilar bilan olib boriladigan trenirovka jarayoni hamda etakchi trenerlar, mutaxasislar ish tajribasi umumlashtirildi hamda tadqiqotlar olib borildi. Olingan natijalar asosida aniqlandiki yosh polvonlarning maxsus tezkor-kuch sifatlarni muayyan darajada harakatlar tezkor-kuch talab qiluvchi amallarda katta ahamiyatga ega bo‘ladi. Yosh polvonlarda turli mushak guruhlari kuchning ortishi bir me’yorda bo‘lmaydi va yuqori shiddatga erishadi. Bunday kurash bilan shug‘ullanish tezkor-kuch sifatlari topografiyasiga, ya’ni turli mushak guruhlarining maksimal kuchi nisbatiga o‘z muhrini bosadi.

Yosh polvonlarni maxsus tezkor-kuch sifatlarini trenirovkadagi mashq yuklama vositalarini hajmi yig‘indilarini tahlil qilish, tekshirilayotgan kurashchilarning yuqori sport natijalarini egallashda maqsadida o‘tkaziladi. Nazorat qilish uchun 22 ta kurash bilan shug‘ullanuvchi yosh polvonlar kurashchi tanlab olindi. Polvonlar bilan olib boriladigan trenirovkaning faqat asosiy qismidagi maxsus tezkor-kuch sifatlarni tayyorgarlik bosqichida ularni rivojlantiruvchi trenirovka yuklamalari tahlili olindi. Trenirovka bosqichi tayyorgarligini asosiy vositalarining hajmi har xilligi, o‘rtacha hajm, standart keltirilgan. Asosiy qilib kurashchilarning darajasiga va murakkablik koeffisientiga qarab trenirovka mashqlarini taqsimlash qabul qilindi. Hamma maxsus mashqlar o‘z ichiga yuqori bo‘lgan trenirovka vositalarini olgan, ya’ni sherik bilan kurashish, shartli kurash, texnik-taktik mahoratni takomillashtirish uchun sherigi bilan bajariladigan mashqlar olingan.

Ixtisoslashtirilgan trenirovka mashqlari hajmi jihatidan ularni murakkabligiga qarab taqsimlandi. Kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, ayrim trenerlar qisqa muddat ichida kurashchilarni tayyorlash maqsadida jismoniy sifatlarni rivojlantiruvchi mashqlarni qo‘llaydilar. Bu borada ayniqsa maxsus tezkor-kuch sifatini tarbiyalash bolaning jismoniy imkoniyatini e’tiborga olish zaruriyatini belgilaydi. Me’yoridan ortiq beriladigan surunkali maxsus tezkor-kuch mashqlari shug‘ullanayotgan bolani zo‘riqish holatiga tushirib qo‘yishi muqarrar. Shuning uchun maxsus tezkor-kuch mashqlarini qo‘llashdan avval maxsus tezkor-kuch sifatini baholovchi ommabop maxsus test mashqlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqotlar natijasida quyidagi asos qilib olindi:

1. Maxsus rezina bilan ishlash 30 soniya (marta).
2. Maxsus tezkor-kuch sifatini rivojlantirish uchun 15 soniya davomida o‘z vazndan kichik sherik bilan oyoq oldida oyoq bilan chalish usullarni bajarish (marta).
3. 20 soniya yotgan holatdan gavdani orqadan ushlab sherigini ko‘tarish (marta).
4. 10 soniyada gimnastika qo‘shpoyada qo‘llarni bukib yoyish (marta).
5. Bir daqiqa davomida katta bolg‘ani o‘ng va chap tomonga harakatlantirish (marta). Yosh polvonlarda va xususan musobaqa bellashuvlarida barcha turdagi maxsus tezkor-kuch sifatlari (umumiy va maxsus, mutloq va nisbiy, statik va dinamik, tezkor-portlovchi) hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin. Shuning uchun o‘quv-trenirovka jarayonida maxsus tezkor-kuchni rivojlantirishga e’tibor qaratish kurashchilar tayyorlashning muhim shartlaridan biridir. Kurashchilarda har xil turdagi maxsus tezkor-kuch sifatlarini o‘rganish qayd etilgan ko‘rsatkichlar tadqiqot boshida sezilarli darajasini ko‘rsatdi. Jumladan, tajriba va nazorat guruhdagi shug‘ullanuvchilarni qo‘shib hisoblaganda ham ularning ko‘rsatkichlari tadqiqot boshlanmasdan avval deyarli farq qilmadi.

1-jadval

Yosh polvonlarning maxsus tezkor-kuch sifatlarini rivojlanish darajasi natijalari

(Nazorat guruh 11 kishi, tajriba guruhi 11 kishi)

№	Tezkor-kuch testlar	Tadqiqot guruhi		Nazorat guruhi		Tadqiqotdan keyin farqi	
		T.dan oldin	T.dan keyin	T.dan oldin	T.dan keyin	T	N
		O‘rtacha	O‘rtacha	O‘rtacha	O‘rtacha		
1	Maxsus rezina bilan ishlash 30 soni- ya (marta).	24	28	21	23	4	2
2	Maxsus tezkor-kuch sifatini rivojlantirish uchun 15 soniya davomida o‘z vazndan kichik sherik bilan oyoq oldida oyoq bilan chalish usullarni bajarish (marta).	7	10	8	9	3	1
3	20 soniya yotgan holatdan gavdani orqadan ushlab sherigini ko‘tarish (marta).	16	18	15	16	2	1
4	10 soniyada gimnastika qo‘shpoyada qo‘llarni bukib yoyish (marta).	10	13	9	10	3	1
5	Bir daqiqa davomida katta bolg‘ani o‘ng va chap tomonga harakatlantirish (marta).	27	30	29	30	3	1

Maxsus tezkor-kuch sifatini rivojlantirish uchun 15 soniya davomida o‘z vazndan kichik sherik bilan oyoq oldida oyoq bilan chalish usullarni bajarish tadqiqot guruhi polvonlarda o‘rtacha arifmetik qiymati 7 ni tashkil qildi. Nazorat guruhida polvonlarda o‘rtacha arifmetik qiymati 8 ni tashkil qildi. 20 soniya yotgan holdan qo‘llarni bukib yoyish tadqiqot guruhi polvonlarda o‘rtacha arifmetik qiymati 16 ni tashkil qiladi. Nazorat guruhida polvonlarda o‘rtacha arifmetik qiymati 15 ni tashkil qildi. 10 soniya gimnastika qo‘shpoyada qo‘llarni bukib yoyish tadqiqot guruhi polvonlarda o‘rtacha arifmetik qiymati 10 ni tashkil qildi. Nazorat guruhida polvonlarda o‘rtacha arifmetik qiymati 9 ni tashkil qildi. Bir daqiqa davomida katta bolgan o‘ng va chap tomonga harakatlantirish tadqiqot guruhi polvonlarda o‘rtacha arifmetik qiymati 27 ni tashkil qildi. Nazorat guruhida polvonlarda o‘rtacha arifmetik qiymati 29 ni tashkil qildi. Olib borilgan tadqiqotlardan so‘ng aniqlandiki yosh polvonlarda tezkor-kuch sifatlari etarli darajada rivojlanmagan deb baholashga asos bo‘ldi.

Xulosa chiqaradigan bo‘lsak, sportchining individual imkoniyatlari va

xususiyatlaridan kelib chiqqan holda trenirovka amaliyotida to‘ldirma og‘ir to‘plarni oyoq bilan uzoqqa uloqtirish, erkin va sambo kurashi elementlari singari dinamik tezlikda bajariladigan mashqlar keng ko‘lamda kiritilishi lozim. Muskullarni rivojlantirish uchun gantellar bilan siltash, aylantirish hamda gantelni ushlagan holatda qo‘l panjasini aylantirish mashqlaridan foydalanish kerak.

1. Ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, so‘nggi yillarda polvonlar tayyorgarlik bosqichlarining mashg‘ulotlari kattaligi va yo‘nalish tizimlarini takomillashtirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Trenirovkadan tashqari shakllarda amaliyot bilan bog‘liq xarakat malakalari va ular bilan bog‘liq bo‘lgan maxsus tezkor-kuch sifatlarning rivojlantirishga qaratilgan mashqlarning samaradorligi kurash bo‘yicha etakchi mutaxasis olimlar tomonidan o‘rganilgan.

2. Yosh polvonlarda tayyorgarlik bosqichidagi maxsus tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirishda jarayonida alohida ahamiyat berish kerak bu esa polvonlarning musobaqalarda yuqori natijalarga erishishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi qonuni (yangi taxrir). —Xalq so‘zi gazetasi 174(6357)-sonida e’lon qilingan 2015yil 5-sentyabr.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining—Jismoniy tarbiya va ommoviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘grisidagi PQ-3031 sonli Qarori – 2017 yil 3-iyun .

3. Mirziyoyev Sh.M.—Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. Toshkent. 2017 yil.

4. Kerimov F.A. Sport kurashi nazaryasi va usuliyati. T. 2007y

5. Turaboyev B.S., Daminov I.A. —Dzyudo. T. 2014 yil.

6. Tastanov N.A. Yunon-rum kurashi nazaryasi va uslubiyati. T. 2014 y.

BOSQON ULOQTIRUVChI SPORTChILAR MAShG‘ULOTLARINING O‘ZIGA XOS AHAMIYATI

Mambetkasimova Qırmızı
assistent-o‘qituvchi
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali
qirmisi@gmail.com
Yoldashova Farangiz
Talaba

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bosqon uloqtiruvchi sportchilar mashg‘ulotlarini tashkil etish, ular o‘zlashtirishi shart bo‘lgan texnik harakatlar tadqiq etilgan. Shuningdek bosqon uloqtiruvchi sportchilarni mashg‘ulot va musobaqa jarayonida uloqtirish harakatlarini boshqarish va ularni tahlili haqida so‘z yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Maxsus sport jihozlari, jihozni uloqtirish, maxsus jismoniy tayyorgarlik, jismoniy moslashuv, morfologik va fiziologik qayta tiklanish, dam olishni mashg‘ulot bilan almashish, jismoniy chidamlilik, aylanish, kuchlanish reaksiyasi.*

Аннотация. *В статье рассматриваются вопросы организации тренировок спортсменов по метанию. Технические действия, которые необходимо освоить спортсменам. Работа посвящена управлению и анализу метательных движений спортсменов во время тренировок и соревнований. Результаты работы описаны в таблице.*

Ключевые слова: *Специальное спортивное снаряжение, метание снаряжения, специальная физическая подготовка, физическая адаптация, морфологическое и физиологическое восстановление, чередование отдыха с занятиями, физическая выносливость, вращение, напряженная реакция.*

Abstract. *This article discusses the organization of training for throwing athletes.The technical actions that athletes.The technical actions that athletes must master. The work deals with the management and analysis of throwing movements of athletes during treining and competition. The results of the work are described in the table.*

Key words: *Special sports equipment, throwing equipment, special physical training, physical adaptation, morphological and physiological recovery, alternating recreation with classes, physical endurance, rotation, tension reaction.*

Tadqiqotning dolzarbligi. Mamlakatimiz aholisini har tomonlama sog‘lom va yetuk bo‘lishida, o‘sib kelayotgan yosh avlodni jismonan hamda ma’nan barkamol etib tarbiyalashda pedagog-murabbiylar bilan birgalikda barcha yo‘nalishlar ya’ni, sog‘liqni saqlash tizimi, ishlab chiqarish tashkilotlari, kichik va o‘rta biznes subyektlari ham o‘zlarining munosib hissasini qo‘shib kelmoqda. Bularning barchasi yurtimizda hukm surayotgan tinchlik va osoyishtalikning, davlatimiz rahbari tomonidan olib borilayotgan odilona siyosatining natijasidir. Xususan, mamlakat aholisining yarmidan ko‘prog‘ini tashkil etuvchi yoshlarga, ularning bilim olishi va salomatligini mustahkamlash bo‘yicha qabul qilingan jismoniy tarbiya va sport davlat dasturlari, qaror va farmonlar maqsadli rejalari ham amalga oshirilmoqda. Jumladan, “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi qonunlarda ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiya uzluksiz ta’lim tizimining eng muhim majburiy qismi bo‘lib, davlat ta’lim standartlari, o‘quv rejalari va dasturlarga muvofiq yuqori malakali mutaxassislar tomonidan ham amalga oshirilishi, jismoniy tarbiya bo‘yicha majburiy darslar, darsdan tashqari mashg‘ulotlar va test sinovlari barcha ta’lim muassasalarida o‘quvchilarning fiziologik imkoniyatlariga mos ravishda o‘tkazilishi hamda ta’lim muassasalarida yoshlarni jismonan tayyorlash masalalariga e’tibor qaratilgan. Shu jumladan maktablarda va Bolalar va o‘smirlar sport maktablarida olib borilayotgan kunning birinchi va ikkinchi qismidagi sport mashg‘ulotlari

5. http://uzforyou.com/tours/velotur-pustinyaKizilkum.htm

6. http://www.travelgroup.ru/ecotourism

BASKETBOLChI TALABA QIZLARNING JISMONIY TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISh TAHLILI

N.S.Kurbanova
Mustaqil izlanuvchi
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti
n.s.@kurbonova.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada basketbolchi-talabalar bilan mashg‘ulot olib boruvchi ustoz-murabbiylar bilan jismoniy tayyorgarlikni rivojlantirish yuzasidan anketa-so‘rovnomasi natijalari tahlili bo‘yicha olingan ma’lumotlar batafsil yoritib berilgan hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqilib amaliyotga tatbiq etilgan.*

Kalit so‘zlar. *Mashg‘ulotlari, musobaqa davri, funksional tayyorgarlik, jismoniy tayyorgarlik, texnik-taktik tayyorgarlik, psixologik tayyorgarlik, basketbolchi talaba-qizlarning jismoniy tayyorgarligi, omil, vosita, usul, tahlil.*

Аннотация: *В данной статье подробно поясняются данные, полученные в результате анализа результатов анкетирования по развитию физической подготовки у преподавателей-тренеров, тренирующихся с баскетболистами-студентами, а также разрабатываются и применяются на практике практические рекомендации.*

Ключевые слова: *Тренировка, соревновательный период, функциональная подготовка, физическая подготовка, технико-тактическая подготовка, психологическая подготовка, физическая подготовка студентов-баскетболистов, факторы, средства, методы, анализ.*

Abstract: *This article explains in detail the data obtained as a result of analyzing the results of a questionnaire on the development of physical fitness among teacher-coaches training with student basketball players, and also develops and applies practical recommendations in practice.*

Key words: *Training, competitive period, functional training, physical training, technical and tactical training, psychological training, physical training of basketball students, factors, means, methods, analysis.*

Ishning dolzarbligi. Basketbolchi-talaba qizlar jismoniy tayyorgarligining yillik tayyorgarlik mashg‘ulotlari jarayonida tashkil topishiga hamda musobaqalar

davrida barqaror ushlab turilishiga ta’sir etuvchi omillar deyarli hisobga olinmasligi asosiy sabablardan biri sanaladi [1, 6].

Basketbolchi-talaba qizlar jismoniy tayyorgarligiga ta’sir etuvchi omillarni o‘rganish va tahlil qilish, musobaqa sikllarida sportchilar tomonidan erishilgan tayyorgarlik darajasini maksimal darajada ko‘rsatib bera olish va jismoniy tayyorgarligini barqaror ushlab turishlari uchun keng imkoniyatlar yaratib berilishiga xizmat qiladi. Tadqiqot ishi mavzusiga doir ilmiy-uslubiy adabiyotlarni o‘rganish va tahlil qilish jarayonida aniqlandiki, basketbolchi-talaba qizlar jismoniy tayyorgarligi bo‘yicha ma’lumotlar umumiy tarzda berilgan [2, 7].

Basketbolchi-talaba qizlar jismoniy tayyorgarligi yuqori bo‘lgan vaqtda sportchi o‘z faoliyatida jismoniy texnik va taktik natijalarning ma’lumotlarini sifatlifoq ko‘rsata oladi [4]. Basketbolchi-talaba qizlar yillik tayyorgarlik mashg‘ulotlari jarayonida basketbolchi talaba-qizlarning jismoniy tayyorgarligiga ta’sir etuvchi omillarni o‘rganish va tahlil qilish natijasida, ular tarkibini tizimli ravishda shakllantirish va zararli tomonlarini bartaraf etishning samarali yo‘llarini ishlab chiqish hamda mashg‘ulotlarda qo‘llash zarur hisoblanadi [3, 5].

Tadqiqotning maqsadi. Basketbolchi-talaba qizlar jismoniy tayyorgarligini, yillik tayyorgarlik mashg‘ulotlarda oshirish bo‘yicha anketa so‘rovnomasi o‘tkazish orqali o‘rganish va tahlil qilish hisoblanadi.

Tadqiqot ishining vazifalari;

- basketbolchi talaba-qizlar jismoniy tayyorgarligiga ta’sir etuvchi omillar yuzasidan ilmiy-uslubiy adabiyotlarni o‘rganish va tahlil qilish;
- basketbolchi-talaba qizlar jismoniy tayyorgarligini oshirish yuzasidan maxsus anketa-so‘rovnomasi o‘tkazish va olingan natijalarni tahlil qilish;
- basketbolchi-talaba qizlar jismoniy tayyorgarligini oshirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning usullari. Pedogogik kuzatuv, nazariy tahlil va umumlashtirish, anketa-so‘rovnomasi va matematik-statistik usullar qo‘llanildi.

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi. Basketbolchi-talaba qizlar jismoniy tayyorgarligini yillik tayyorgarlik mashg‘ulotlarida oshirish orqali yuqori sport natijalarga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mashg‘ulotlarning davom etishi va tuzilishi ko‘pgina faktorlar bilan belgilanadi. Sport turining maxsus xususiyatlarini va sport mahoratini tashkil etuvchi asosiy qonuniyatlarni, sportchining individual adaptatsiya qilish imkoniyatlari va tayyorgarlik tuzilishi va o‘tilgan mashg‘ulot mazmuni tashkil etadi.

Basketbolchi talaba-qizlar jismoniy tayyorgarligini yillik tayyorgarlik mashg‘ulotlarida oshirish yuzasidan, respublika musobaqalari jarayonida, basketbolchi talaba-sportchilarni tayyorlovchi murabbiylar bilan anketa-so‘rovnomasi o‘tkazishda savollar mazmunidan kelib chiqqan holda ba’zilari diagramma ko‘rinishida ayrimlari esa izohli holatda bayon etilganligini eslatib o‘tishimiz lozim (1-rasmga qarang).

Tadqiqot o‘tkazish uchun ishlab chiqilgan anketa so‘rovnomasi 10 ta savoldan iborat bo‘lib, ular quyidagicha ifoda etildi:


1-savol. Jismoniy tayyorgarlik talaba-qizlar sport mahoratini oshirishda muhim deb hisoblaysizmi?
0
11
Yo‘q
Ha


2-savol. Jismoniy tayyorgarlikni oshirishda qanday vositalardan foydalanasiz?
8
3
Umumiy va maxsus tayyorgarlikni rivojlantiruvchi
Jismoniy sifatlarni rivojlantiruvchi mashqlardan


3-savol. Basketbochi talaba-qizlarni tayyorlashda nazariy bilim yetakchi deb hisoblaysizmi?
1
10
Yo‘q
Ha


4-savol. Basketbolchi talaba-qizlarni tayyorlashning ilmiy-metodik asosi nimada deb bilasiz?
1
10
Ilmiy kitoblarda
Ilmiy tadqiqot ishlari


6-savol. Siz faoliyat yuritayotgan oliy ta’lim muassasasida tahsil olayotgan talaba-qizlar muassasa talabalarining nechi foizini tashkil qiladi?
1
1
9
50-55 % ini
6-8%ini2
25-30 %ini


8-savol. Basketbolchi talaba-qizlarning jismoniy tayyorgarligini oshirish uchun maxsus dasturdan foydalanasizmi?
4
7
Yo‘q
Ha


9-savol. Faoliyatingizda qo‘llayotgan uslublar basketbolchi talaba-qizlarning jismoniy tayyorgarligini optimallashtirishga xizmat qiladi deb ayta olasizmi?
1
10
Yo‘q
Ha

1-savol bo'yicha (Jismoniy tayyorgarlik talaba-qizlar sport mahoratini oshirishda muhim deb hisoblaysizmi?) 11 nafar ishtirokchi qatnashgan hamda barcha ishtirokchilar "Ha" deb javob berishgan (1-diagrammaga qarang).

2-savol bo'yicha (Jismoniy tayyorgarlikni oshirishda qanday vositalardan foydalanasiz?) 11 nafar ishtirokchi qatnashgan; 8 nafar ishtirokchi 2 savolga "Umumiy va maxsus tayyorgarlikni rivojlantiruvchi mashqlar" deb javob bergan. 3 nafar ishtirokchi "Jismoniy sifatlarni rivojlantiruvchi mashqlardan" deb javob berishgan (2-diagrammaga qarang).

3-savol bo'yicha (Basketbochi talaba-qizlarni tayyorlashda nazariy bilim yetakchi deb hisoblaysizmi?) 11 nafar ishtirokchi qatnashgan; 10 nafar ishtirokchi "Ha", 1 nafar ishtirokchi "yo'q" deb javob bergan.

4-savol bo'yicha (Basketbolchi talaba-qizlarni tayyorlashning ilmiy-metodik asosi nimada deb bilasiz?) 11 nafar ishtirokchi qatnashgan; 10 nafar ishtirokchi "Ilmiy tadqiqot ishlari" deb, 1 nafar ishtirokchi "Ilmiy kitoblarda" deb javob bergan.

5-savol bo'yicha 11 nafar ishtirokchi qatnashgan.

5-savolga Basketbolchi talaba-qizlarni jismoniy taryyorgarligini qaysi mezonlar asosida baholaysiz? Ishtirokchilar quyidagicha javoblarni berishgan.

- Tasdiqlangan mezonlar asosida (n=1);
- UJT (n=1);
- Jismoniy tayyorgarligini o`lchovchi amaliy test me'zonlari orqali. Bilim (n=1);
- Kuch, tezkorlik, chidamkorlik, chaqqonlik va egiluvchanlik bo'yicha meyoriy mashqlar orqali baholayman (n=1);
- Basketbolchi talaba-qizlarning jismoniy tayyorgarligini baholash uchun quyidagi mezonlardan foydalanish mumkin: Jismoniy sifatlarni baholash: Tezlik: Qisqa masofaga yugurish (masalan, 20-30 metr masofa uchun vaqtni o'lchash). Kuch: Tirsakda tortilish, o'tirib-turish va boshqa kuch mashqlari orqali baholash (n=1);
- Quvvat: Vertikal sakrash balandligi yoki sakrash qobiliyati testi (n=1);
- Chaqqonlik: Konusli yugurish yoki "ilakish" mashqlarida vaqtni o'lchash (n=1);
- Chidamlilik: 6-12 daqiqali yugurish testi (masalan, "Kuper testi") (n=1);
- Baholash mezoni (n=1);
- Tezkor axborot beruvchi raqamlashtirilgan mezonlar asosida (n=1);
- Javob yo'q (n=2);
- Tasdiqlangan mezonlar asosida (n=1).

6-savol bo'yicha (Siz faoliyat yuritayotgan oliy ta'lim muassasasida tahsil olayotgan talaba-qizlar muassasa talabalarining nechi foizini tashkil qiladi?) 11 nafar ishtirokchi qatnashgan;

1 nafar-6-8%

9 nafar- 25-30%

1 nafar- 50-55 %

7-savol bo‘yicha. Basketbolchi talaba-qizlarning nazariy bilimini qanday mezonlar asosida aniqlaysiz? 11 nafar ishtirokchi qatnashgan; Ishtirokchilar ushbu savolga quyidagicha javoblar berishgan;

- Test, savol-javob (n=1);
- Mustaqil ta’lim (n=1);
- 1. Krassvord, 2. Savol-javob, 3. Test (n=1);
- Nazariy bilim bo‘yicha test va yozma topshiriqlar asosida aniqlayman (n=1);
- Basketbolchi talaba-qizlarning nazariy bilimlarini aniqlash uchun quyidagi mezonlardan foydalanish mumkin: Basketbol asoslari bo‘yicha bilimlar: Basketbol o‘yinining qoidalari: to‘pni olib yurish, otish, uzatish, qoida buzish holatlari. O‘yinning asosiy qism va bosqichlari: hujum va himoya taktikasi, vaqtni boshqarish. Basketbol maydonining tuzilishi va uning o‘lchamlari. Taktik va strategik bilimlar: Jamoaviy o‘yin taktikalari: kombinatsiyalar, pressing, zonal va shaxsiy himoya usullari. Hujum va himoya o‘yinlaridagi texnik va strategik harakatlar. Raqibning kuchli va zaif tomonlarini tahlil qilish ko‘nikmalari (n=1);
- Testlar (n=1);
- Mustaqil ta’lim (n=1);
- Javob yo‘q (n=3);
- Test, og‘zaki saol javob (n=1).

8-savol bo‘yicha (Basketbolchi talaba-qizlarning jismoniy tayyorgarligini oshirish uchun maxsus dasturdan foydalanasizmi?) 11 nafar ishtirokchi qatnashgan.

Ha- 7 nafar

Yo‘q- 4 nafar

9-savol bo‘yicha (Faoliyatingizda qo‘llayotgan uslublar basketbolchi talaba-qizlarning jismoniy tayyorgarligini optimallashtirishga xizmat qiladi deb ayta olasizmi?) 11 nafar ishtirokchi qatnashgan.

Ha - 10 nafar

Yo‘q - 1 nafar

10-savol bo‘yicha. Basketbolchi talaba-qizlarning jismoniy tayyorgarligini oshirish uchun pedagogikaning qaysi uslublaridan foydalanasiz? 11 nafar ishtirokchi qatnashgan; Ishtirokchilar ushbu savolga quyidagicha javoblar berishgan;

- MJT (n=1);
- hamma uslublardan (n=1);
- interfaol, aralash, keys stady, klasster (n=1);
- maxsus kitobidan (n=1);
- Tartibga solinadigan mashqlar usuli, o‘yin va musobaqa usullari, og‘zaki va sensor usullardan foydalanaman (n=1);
- Basketbolchi talaba-qizlarning jismoniy tayyorgarligini oshirish uchun quyidagi pedagogik uslublardan foydalaniladi:

1. Ko‘rgazmali uslub: Mashqlarni to‘g‘ri bajarish texnikasini namoyish etish. Video tahlil va texnikani vizual o‘rganish. Basketbol texnikasi va taktikasi bo‘yicha diagrammalar va grafik materiallardan foydalanish.

2. Og‘zaki uslub: Mashqlarni tushuntirish va ularga bog‘liq nazariy bilimlarni yetkazish. Motivatsion nutqlar va maqsadlarni aniq belgilash orqali rag‘batlantirish. Mashg‘ulot davomida konstruktiv fikr-mulohazalar berish.

3. Amaliy uslub: Mashg‘ulotlarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishtirok etish va basketbol harakatlarini amalda qo‘llash. O‘yin holatlarini modellashtirish va mashqlarni qiyinchilik darajasiga moslashtirish. Jamoaviy o‘yinlar va taktik mashg‘ulotlar orqali qizlarning texnik va jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish (n=1);

- Test (n=1);
- Javob yo‘q (n=2);
- Tasdiqlangan barcha uslublardan (n=1);
- amaliy (n=1).

O‘tkazilgan anketa so‘rovnomasi bo‘yicha olingan ma’lumotlarga asoslanib aytishimiz mumkinki, ko‘pchilik basketbolchi talaba qizlar jismoniy tayyorgarligini, yillik tayyorgarlik mashg‘ulotlarining musobaqalar davrida, barqaror ushlab turilishiga ta’sir etuvchi omillar bo‘yicha yetarlicha ma’lumotga ega emasliklari aniqlandi.

Bizning fikrimizcha, basketbolchi-talaba qizlar jismoniy tayyorgarligini yillik tayyorgarlik mashg‘ulotlarida oshishiga ta’sir etuvchi omillar bo‘yicha doimiy nazorat olib borish, sportchilar natijalarining barqaror o‘sishiga erishishlarida, samarali yondashuv hisoblanadi. Basketbolchi talaba-qizlar jismoniy tayyorgarligini, yillik tayyorgarlik mashg‘ulotlarida rivojlantirishga ta’sir etuvchi omillarni tizimli asosda tahlil qilib borish, ularning salbiy ta’sirini kamaytirish yoki bartaraf etilishiga xizmat qiladi.

Amaliy tavsiyalar.

1. Jismoniy tayyorgarlik talaba-qizlar sport mahoratini oshirishda muhim hisoblanadi.

2. Jismoniy tayyorgarlikni oshirishda umumiy va maxsus tayyorgarlikni rivojlantiruvchi mashqlar muhim hisoblanib optimal jismoniy tayyorgarlikni rivojlanishiga zamin yaratadi.

3. Basketbolchi talaba-qizlarni tayyorlashning ilmiy-metodik asosi basketbolni rivolantirishga oid ilmiy-tadqiqot ishlarida hisoblanadi.

4. Musobaqalarda ishtirok etish, basketbolchi talaba-qizlarning jismoniy tayyorgarligiga ta’sir etishini hisobga olgan holda asosiy musobaqalarni belgilab olish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

5. Basketbolchi talaba-qizlarning yillik tayyorgarligida jismoniy tayyorgarlikni barqaror ushlab turishda “Musobaqalarda qatnashish jarayonida raqiblar imkoniyatini” to‘g‘ri baholab yuklamalarni taqsimlash qilish kerak.

6. Basketbolchi talaba-qizlarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda jarohatlanish va shikastlanish holatlarining ta’sir etishini hisobga olish lozim.

7. Basketbolchi talaba-qizlarning jismoniy tayyorgarligi musobaqalarda barqaror ushlab turilishida, texnik, taktik va psixologik tayyorgarlik ta’sir etishini hisobga olgan holda yuklamalarni taqsimlash lozim.

8. Basketbolchi talaba-qizlarning jismoniy tayyorgarligi musobaqalarda barqaror ushlab turilishida, funksional va integral tayyorgarlik ta’sir etishini hisobga olish lozim.

9. Basketbolchi talaba-qizlarning jismoniy tayyorgarligi barqaror ushlab turishda mashg‘ulot hajmi va shiddatini nazorat qilish ijobiy ta’sir ko‘rsatishini hisobga olish lozim.

10. Mashg‘ulotlarda qo‘llaniladigan vosita va usullarni almashtirib turish basketbolchi talaba-qizlarning jismoniy tayyorgarligiga o‘z ta’sirini ko‘rsatishini hisobga olgan holda ularni sinxiron qo‘llash tavsiya etiladi.

Biz tadqiqotni olib borishda, basketbolchi talaba qizlar jismoniy tayyorgarligini yillik tayyorgarlik mashg‘ulotlarining musobaqalar davrida barqaror ushlab turilishiga tasir etuvchi omillarni o‘rganish va tahlil qilish nuqtai-nazaridan yondashildi. Basketbolchi-talaba qizlar sportchilar bilan jismoniy tayyorgarligini yillik tayyorgarlik mashg‘ulotlarda bosqichli o‘sib borishiga ta’sir etuvchi omillar yuzasidan, o‘tkazilgan anketa-so‘rovnomasi bo‘yicha olingan ma’lumotlarni tahlil qilish va umumlashtirish, tadqiqotdan kutilgan samaradorlikka erishganligimizni asoslab bergan holda aniq xulosalar shakllanishiga xizmat qildi.

Xulosa. Ilmiy-uslubiy adabiyotlarni o‘rganish va tahlil qilish davomida ma’lum bo‘ldiki, basketbolchi talaba qizlar jismoniy tayyorgarligini yillik tayyorgarlik mashg‘ulotlarining musobaqalar davrida barqaror ushlab turishga tasir etuvchi omillar bo‘yicha olimlar tomonidan aloxida tadqiqot ishlari olib borilmaganligi aniqlandi.

Tadqiqotdan olingan natijalar matematik-statistik usuldan foydalanilgan xolda tahlil qilinganda, basketbolchi-talaba qizlar jismoniy tayyorgarligini yillik tayyorgarlik mashg‘ulotlarining musobaqalar davrida, barqaror ushlab turishga tasir etuvchi omillarni o‘rganish va tahlil qilish orqali ushbu omillarning salbiy tasir etishining oldini olish va bartaraf etish orqali mashg‘ulotlarni olib borish samarador yondashuv ekanligi, o‘tkazilgan anketa-so‘rovnomasi natijalar orqali o‘z tasdig‘ini topdi. Basketbolchi talaba qizlar jismoniy tayyorgarligini yillik tayyorgarlik mashg‘ulotlarining musobaqalar davrida barqaror ushlab turilishiga ta’sir etuvchi omillarni o‘rganish va tahlil qilishda, sport turining xususiyatlarini hamda sportchilarning individual imkoniyatlarini hisobga olgan xolda yondashish yuqori sport natijalariga erishishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kerimov F.A, Umarov M.N. “Sportda prognozlashtirish va modellash-tirish”. -T: O‘zDJTI, 2005. 279 b.
2. Salamov R.S. “Sport mashg‘ulotining nazariy asoslari”. T.2005. 132 b.
3. Arziqulov D.N. “Sport psixologiyasi”. T. 2021 yil. 306 bet.
4. Kurbanova N.S. “Jismoniy tarbiyaning nazariy asoslari”. “O‘ZBEK-KITOBSAVDO-NASHRIYOT” NMIU. O‘quv qo‘llanma. T.,-2020. 108 b.
5. A.A.Pulatov., F.V.Ganiyeva., B.M.Miradilov., D.T.Xusanova., F.A.Pulatov. “Basketbol nazariyasi va uslubiyati”. Darslik. Sano-standart.T.:-2017. 348 b.
6. To‘laganov Sh.T., Raxmanova M.M. “Gandbol nazariyasi va uslubiyati”. O‘quv qo‘llanma. “O‘zkitobsavdonashriyoti”,. T.:-2020. 282 B.
7. Boltayev A.A. “Voleybol nazariyasi va uslubiyati (Voleybolga o‘rgatish jarayonida o‘qituvchi trenerning roli)”. O‘quv qo‘llanma. Toshkent “Makon savdo print”-2024. 158 b.

KURASh SPORT TURI BILAN ShUG‘ULLANUVChI YUQORI MALAKALI XOTIN-QIZLARNING TAKTIK TAYYORGARLIK ASOSLARI

K.Razaxov
assistant-o‘qituvchi
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali
razaxovkopbergen@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada kurash sport turi bilan shug‘ullanuvchi ayyollarning taktik tayyorgarlik muammosi ko‘rib chiqiladi. Kurashchi ayollarning taktik tayyorgarliklarini rivojlantirish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar tahlil qilinib kurash sport turi bilan shug‘ullanuvchi ayyollarning taktik tayyorgarligi bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *Mashg‘ulot, taktik tayyorgarlik, hujum, qarshi hujum, himoya, kombinatsiyalar, kurash sport turi bilan shug‘ullanuvchi ayyollar.*

Аннотация: *В статье исследуется проблема необходимости тактической подготовки высококвалифицированных девушек курашистов. Анализируется работа по развитию тактической подготовки девушек курашистов и разрабатывается предложения и рекомендаций по тактической подготовке девушек курашистов.*

Ключевые слова: *Тренировочный процесс, тактическая подготовка, атака, контратака, защита, комбинации.*

Abstract: *This article examines the problem of tactical training of women engaged in kurash. The ongoing work on the development of the tactical training of women kurash was analyzed and proposals and recommendations were developed for the tactical training of women engaged in kurash.*

Key words: *Training process, tactical training, attack, counterattack, defense, combinations.*

Dolzarbligi. Kurashning jadal rivojlanishi, xalqaro maydonda raqobatning kuchayishi kurashchilarning taktik mahoratini nafaqat ko‘p yillik sport mashg‘ulotlarining dastlabki bosqichlarida, balki sportni takomillashtirish bosqichida ham amalga oshirishni taqozo etadi.

Kurash sport turi bilan shug‘ullanuvchi qizlar tobora ommalashib bormoqda. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ayollar an‘anaviy ravishda erkaklar sport turlari hisoblangan - futbol, xokkey, yakka kurashni faol ravishda o‘zlashtirdilar. 2000-yillarning boshidan O‘zbekistonda kurash jadal rivojlanmoqda. Sportchilar yirik xalqaro musobaqalarda qatnashaib kelmoqda. Ayni paytda kurash bo‘yicha ayollar terma jamoasi Osiyodagi eng kuchli jamoalardan biri hisoblanadi [1].

“Taktika” atamasi dastlab harbiy ishlarda qo‘llanilgan bo‘lib, jang paytida dushman ustidan g‘alaba qozonish uchun turli kuch va vositalar yordamida bajariladigan ma’lum manevrlarni bildirgan. Keyinchalik, bu atama inson faoliyatining boshqa sohalariga tarqaldi. Qarama-qarshilik yoki ziddiyat mavjud bo‘lgan har qanday vaziyatga nisbatan taktika haqida gapirishingiz mumkin. Bu atamaning umumiy ma’nosi – ustunlikka, g‘alabaga erishish uchun raqibning sharoiti, harakatlari va imkoniyatlarini, o‘z imkoniyatlarini, sifatlarini, individual xususiyatlarini tushunish asosida bellashuv uchun muayyan turdagi qobiliyat va ko‘nikmalardan foydalanishdir.

Sportda “taktika” tushunchasi biroz boshqacha ma’no kasb etdi. Bu raqobat faolligi sharoitida raqib ustidan g‘alaba qozonishning turli usullari va metodlardan foydalanishdir [2].

Sport taktikasi - aniq musobaqa sharoitida eng yuqori natijaga erishish uchun texnik, jismoniy va psixologik sifatlarini maqsadga muvofiq foydalanish san’ati. Taktika vaziyatni tahlil qilish, raqibning harakatlarini tushunish va bashorat qilish uchun aqliy operatsiyalar va harakatlar tizimini amalga oshirishni o‘z ichiga oladi. Bu sport musobaqalari qoidalarini, sportchining tayyorgarligidagi resurslar va cheklovlarni, atrof-muhitning o‘ziga xos sharoitlarini, shuningdek, oqilona taqsimlashni hisobga olgan holda, dolzarb raqobat muammolarini hal qilish uchun usullardan foydalanishning eng samarali usullarini tanlash va maqsadli qo‘llashni nazarda tutadi. Raqobat harakatlarini amalga oshirish jarayonida harakatlar, raqibga ta’sir qilish va o‘z niyatlarini yashirishdir. Sport taktikasining asosiy maqsadi musobaqa faoliyatining usuldan maksimal samaradorlik bilan foydalanish, sportchining musobaqa faoliyatida jismoniy, fiziologik, aqliy imkoniyatlarini ochib

berishga va raqibning qarshiligini eng kam yo‘qotishlar bilan engib o‘tishga imkon beradigan harakatlarga tayanishdan iborat.

Kurash taktikasi - bu musobaqalarda eng yaxshi natijaga erishish uchun yuzaga kelgan muayyan sharoitlarda texnik, jismoniy va irodaviy imkoniyatlardan maqsadga muvofiq holda foydalanishdir. Taktik tayyorgarlik sportchilarda taktika sohasidagi zarur bilimlarni egallash, sport kurashini to‘g‘ri olib borishda ma’lum malaka hamda bilimlarni shakllantirish, shuningdek taktik mahoratni takomillashtirishga qaratilgan [3].

Taktik tayyorgarlikning asosiy maqsadi sportchida musobaqada g‘alabaga erishish yoki yuqoriroq natijani ko‘rsatish maqsadida sport bellashuvini to‘g‘ri tashkil qilish hamda olib borish qobiliyatini tarbiyalashdan iborat.

Kurash taktikasi sportchilar va murabbiylar faoliyati natijasida rivojlanib, boyib bormoqda. Agar qoidalar o‘zgarsa yoki o‘tkazish uchun yangi talablar o‘zgartirilsa, bellashuv qoidalari yangilanadi. Birinchi kurashchining taktik tayyorgarligining vazifasi - texnik harakatlarni taktik harakatlar bilan bog‘lash qobiliyatini rivojlantirish, texnik-taktik mashqlarini etarli miqdorda takrorlash. Taktik tayyorgarlikning ikkinchi vazifasi operativ taktik fikrlashni rivojlantirishdan iborat bo‘lib, bu turli raqiblar bilan bellashuvlarda ko‘nikmalardan oqilona va o‘z vaqtida foydalanishni ta’minlashi kerak. Taktik tayyorgarlikning uchinchi vazifasi kurashchini tahlil qilishga va kurash rejasini tuzishga shu asosda tomonlarning imkoniyatlarini mumkin bo‘lgan variantlarini bashorat qilishga ya’ni bellashuvni modellashtirishga o‘rgatishdir [4].

Taktik reja va uni musobaqada amalga oshirish texnik, jismoniy va taktik tayyorgarlikning mavjud darajasiga, musobaqa shartlari va xususiyatlariga, raqibning tayyorgarlik darajasi va xususiyatlariga mos kelishi kerak. Taktika, kuch, tezlik, epchillik, murakkab muvofiqlashtirilgan harakatlarda eng yuqori natijaga erishishga qaratilgan bo‘lishi mumkin. Yakka kurash sport turlarida taktika raqib bilan kurashish uchun o‘z kuchini va mahoratini maksimal darajada yo‘naltirishda ifodalanadi.

Zamonaviy sport nazariyasida sportchining tayyorgarlik darajasi va malakasiga, raqiblarning xususiyatlariga qarab taktikaning har xil turlari ajratiladi. Musobaqalarda kurashni o‘tkazish shakllari va usullarining kombinatsiyasi sifatida quyidagi taktikalar ajralib turadi.

Birinchi tur passiv taktika - kerakli vaqtda faol harakatlarni amalga oshirish uchun oldindan ko‘zda tutilgan tashabbusni ta’minlash.

Ikkinchi tur faol taktika - raqibga o‘zi uchun foydali bo‘lgan muayyan harakatlarni qo‘llashni o‘z ichiga oladi.

Uchinchi tur aralash taktika - raqobat kurashini olib borishning faol va passiv shakllari va usullarining kombinatsiyasini o‘z ichiga oladi.

Sport musobaqalarida harakatning taktik vazifalarini uch turga bo‘lish mumkin: tayyorgarlik, hujum va himoya. Tayyorgarlik harakatlari tabiatan razvedka

bo‘lib, taktik harakatni amalga oshirishni boshlash uchun vaqtni tanlash, raqibning harakatlarini tahlil qilish o‘z taktikasini niqoblashni o‘z ichiga oladi. Hujum, himoya va qarshi hujum harakatlarini o‘z ichiga oladi. Himoyadagi harakatlar pozitsion, manevr va kombinatsiyaga bo‘linadi. Taktik yo‘nalishiga ko‘ra, barcha harakatlar haqiqiy va yolg‘onga bo‘linadi. Sport rivojining zamonaviy tendentsiyalari asosida kurashning taktik harakatlar va uslublari arsenali doimiy ravishda yangilanib boriladi. Murabbiylar sportchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda an’anaviy va yangi taktik harakatlar shakllarini ishlab chiqadilar va tanlaydilar [5].

Taktik tayyorgarlik natijasida sportchilarning taktik tayyorgarligi taktik bilim, ko‘nikmaga ega bo‘lish, taktik fikrlashni rivojlantirishni o‘z ichiga oladi. Taktik bilimlar - sportda taktikaning turlari va shakllari, taktik vositalar haqida, ularni mashg‘ulot va musobaqa faoliyati jarayonida qo‘llash to‘g‘risidagi tushunchalar va g‘oyalaridir.

Taktik ko‘nikmalar - bu taktik bilimlarga asoslangan harakatlarni bajarish qobiliyatidir. Bu raqibning harakatlarini bashorat qilish, raqobatning rivojlanish jarayonini tahlil qilish, raqobatdosh muammolarni hal qilish usullarini to‘g‘ri tanlash qobiliyatidir. Musoboqa faoliyatining taktikasi - harakatlar rejasi va ularni amalda amalga oshirishdan iborat. Eng samarali taktika taktik rejaning sportchining texnik, jismoniy va psixologik imkoniyatlariga aniq mos kelishi bilan ta’minlanadi [6].

Sportchining taktik mahorati uning texnik tayyorgarligiga asoslanadi. Agar sportda texnika ma’lum bir sport turidagi harakat muammolarini eng samarali hal qilishni belgilovchi texnika va harakatlar majmua bo‘lsa, taktika ulardan foydalanishning maqsadga muvofiqligidir. Musoboqa faoliyatida taktik masalani yechishga xizmat qiluvchi texnikalar majmuasi harakat deyiladi.

Sportdagi texnika va taktika yagona tizimni tashkil qiladi: har bir taktik harakat yoki texnikadan ma’lum taktikani hal qilishda yurish mumkin, ammo har qanday texnika yoki harakatni taktik tayyorgarliksiz amalga oshirib bo‘lmaydi. Bu holat sportga oid ixtisoslashtirilgan adabiyotlarda “texnik-taktik tayyorgarlik” atamasining umumiy qabul qilinishiga olib keldi [7].

Sport bellashuvlarida taktika muhim ro‘l o‘ynaydi. Bellashuvning natijasi ko‘p jihatdan sportchilarning taktik mahoratiga, musobaqa o‘zgarishlarga muvofiq taktikalarning mukammalligiga bog‘liq. Sport kurashida taktikaning o‘ziga xos xususiyati bevosita jismoniy aloqasiga dori vositalarining bir-biriga bevosita ta’sir ko‘rsatishi bo‘lib, bu kurashchilarning harakatlari va javoblari o‘rtasida yaqin bog‘lanishga olib keladi [8].

Kurashda texnika va taktika o‘zaro chambarchas bog‘liqlikda, birlikda bo‘ladi. Har bir bajarilgan taktik harakat ham ma’lum bir texnik harakatdir. Masalan, siltanish harakatlar taktik maqsadlarda raqibini muvozanatdan chiqarish va hujum qilish uchun sharoit yaratish uchun ishlatilishi mumkin. Bir tomondan, bu texnik harakatlar bo‘lsa, ikkinchi tomondan, ular hujumga tayyorgarlik ko‘rish taktikasiga

kiritilgan. Ya’ni, kurashchilarning raqobatbardosh faoliyatining muvaffaqiyati texnikasi va taktikasiga ega bo‘lishiga bog‘liq.

Sport kurashida juda ko‘p sonli texnik-taktik harakatlar mavjud, bundan tashqari, ularning soni doimiy ravishda o‘sib bormoqda. Lekin, ularning xilma-xilligiga qaramay, barcha asosiy taktik harakatlarni taktika turlariga ko‘ra uch guruhga birlashtirish mumkin: hujumga qarshi himoya.

Hujum taktikasi kurashda muvaffaqiyatni maksimal darajada ta’minlaydi. Aynan hujumda ayrim kurashchilar jismoniy va ruhiy imkoniyatlarini ochib berishada, texnik-taktik mahorat ko‘rsatishadi, tashabbusni qo‘lga olishadi.

Qarshi hujum taktikasi raqibi faol harakat qilganda yuzaga keladigan qulay daqiqalarda yaqinlashib kelayotgan va javob qarshi hujumlardan foydalanishdan iborat. Bunday taktikalar, agar raqib tezligi past bo‘lsa va shu bilan birga doimiy yoki vaqti-vaqti bilan hujum qilishga intilsa, bellashuvning muvaffaqiyatli o‘tishiga yordam beradi [9].

Himoya taktikasi shundan iborat sportchi himoyaga eng ko‘p e‘tibor beradi, kurashda tashabbus ko‘rsatmaydi va faqat xatoga yo‘l qo‘ygandagina raqibga hujum qilishga harakat qiladi. Agar bu taktika etakchi bo‘lsa, u mag‘lubiyatga olib keladi.

Kurashchi ayollarning texnik-taktik tayyorgarligi jarayonida quyidagi tarkibiy qismlarni innovatsion deb hisoblash kerak: “taktik tayyorgarlik variantlari bilan individual texnik harakatlarni takomillashtirishga e‘tiborni kuchaytirish, musobaqadan oldingi bosqichlarda texnik va taktik tayyorgarlik hajmini oshirish. o‘quv jarayoni, texnik-taktik harakatlar va sport texnik ko‘rsatkichlari tarkibini nazorat qilish, murakkab texnik va taktik harakatlarni takomillashtirishga urg‘u beradi. Bu ayollar va erkaklarning taktik va texnik tayyorgarligini tahlil qilish uning tadqiqot vazifalari doirasidan tashqariga chiqadi. Muayyan ma’noda kurashchi ayollarning taktik tayyorgarligining xususiyatlarini aniqlash zarurati olib tashlanadi, chunki har bir malakali sportchi, jinsidan qat’i nazar, o‘ziga xos taktik uslubga ega.

Xulosa. Kurashchi ayollarning taktik va texnik tayyorgarligi sportchilarning natijalari uchun alohida ahamiyatga ega. To‘g‘ri tuzilgan taktika bellashuvni ishonchli o‘tkazish va raqiblarni yutish imkonini beradi. Texnik va taktik tayyorgarliksiz yuqori natijalarga erishib bo‘lmaydi. Kurashchi ayollarning taktik tayyorgarliklarini takomillashtirishda vazn toifalarini hisobga olgan holda tayyorlash samarali dep hisoplaymiz. Chunki yengil vazn toifasidagi sportchilar harakatchang bo‘lib holdan toyish holatlari kamdan-kam kuzatiladi. O‘g‘ir vazn toifasidagi sportchilar esa kam harakatchang bo‘lib holdan toyish harakatlari ko‘p hollarda so‘ngi soniyalarda kuzatilmoqda. Shuning uchun biz sportchilarimizga kam harakatlanib asosiy kuchini bo‘lim oxiriga yo‘naltirish taktikasini ishlab chiqdik va o‘z samarasini berdi. Eksperimental guruhning o‘smir kurashchi ayollarning texnik-taktik tayyorgarliklarini takomillashtirish ularning sport malakasini sezilarli darajada oshirish imkonini berdi. Yoshlar ortasida O‘zbekiston chempionatida ikki

nafar sportchimiz “O‘zbekiston sport ustasi” normativini bajarib, kurashchi ayyollar bo‘yicha O‘zbekiston terma jamoasiga azo bolishdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Таймуратов А.Р Кураш назарияси ва услубияти. Т., 2020 – 205 б.

2. Иванков Ч.Т. и др. Методика технико-тактического совершенствования атакующих действий юных борцов в системе общеобразовательной средней школы дополнительного образования // Физическая культура, воспитание образование, тренировка. – №6. – М., 2012. – С. 44-50.

3. Toylibaev, S. M. (2021). Improvement of professional activity of students of physical education faculties by means of basic gymnastics. *Eurasian Journal of Sport Science*, *1*(2), 113-118.

4. Еганов А.В. Управление тренировочным процессом повышения спортивного мастерства дзюдоистов: Автореф.дис. ...д-ра пед. наук. – Челябинск, 1999. – 41 с.

5. Керимов Ф.А. Спорт кураш назариясива услубияти. – Т.: ИТА-пресс, 2018. – 205 б.

6. ТОЙЛИБАЕВ, С. М. СТРАТЕГИЯ ФОРМИРОВАНИЯ ЗДОРОВОГО ОБРАЗА ЖИЗНИ НАСЕЛЕНИЯ СРЕДСТВАМИ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ И СПОРТА: ЦЕЛЕВЫЕ ОРИЕНТИРЫ, ТЕХНОЛОГИИ И ИННОВАЦИИ.

7. Неробеев Н. Ю. Физическая и технико-тактическая подготовка спортсменок в вольной борьбе с учетом влияний полового диморфизма: автореф. дис. д-ра пед. наук : 13.00.04 / Неробеев Николай Юрьевич. – Санкт-Петербург, 2014 – 46 с.

8. Тараканов Б.И. Комплексная оценка технико-тактического мастерства борцов порезультатом их соревновательной деятельности // Становление и совершенствование тактико-технического мастерства в спортивной борьбе: Сб. науч. тр. – Омск, 1989. – С. 42.

9. Кузнецов А.С. Организационно-методические основы многлетней технико-тактической подготовки борцов греко-римского стиля: Дисс.док.пед.наук. – Краснодар, 2002. – 471 с.

Ózbekstan mámleketlik dene tárbiyası hám sport universiteti Nókis filialı "Dene tárbiyası hám sport Xabarshısı" ISSN 2181-2268

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali "Jismoniy tarbiya va sport axborotnomasi" ISSN 2181-2268

MOTORNI MUVOFIQLAShTIRISh QOBILIYATLARI MAKTABGAChA BOLALIK DAVRIDA SPORT FAOLIYATINING MUVAFFAQIYAT OMILI SIFATIDA

R.D.Allambergenova
tayanch doktorant
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti
Rawshana9898@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada 5-6 yosh bolalarda koordinatsion qobiliyatlarni gimnastika sport vositalari bilan rivojlantirish metodikasi, koorinatsion qobiliyat tushunchasi, muvofiqlashtirish qobiliyatlari, harakat-koordinatsion ko'nikmasining individual mezonlari hususida so'z yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *Sport, gimnastika, koordinatsion, qobiliyat, tezlik, kuch, chidamlilik, muvofiqlashtirish qobiliyatlari, motor harakat.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются методика развития координационных способностей у детей 5-6 лет с помощью гимнастических видов спорта, понятие координационных способностей, координационные навыки, индивидуальные критерии двигательно-координационных навыков.*

Ключевые слова: *Спорт, гимнастика, координация, способности, скорость, сила, выносливость, координационные навыки, двигательная активность.*

Annotation: *This article discusses the methodology of developing coordination abilities in children aged 5-6 years with the help of gymnastic sports, the concept of coordination abilities, coordination skills, and individual criteria for motor coordination skills.*

Key words: *Sports, gymnastics, coordination, abilities, speed, strength, endurance, coordination skills, motor activity*

Harakat-koordinatsion ko'nikmalari jismoniy tarbiya adabiyotida keng tarqalgan epchillikning umumiy tushunchasidan ajralib turadi.

Ma'lumki harakat-koordinatsion ko'nikmalari (HKK) insonning yaxlit vosita harakatlarini maqsadga muvofiq va mazmunli bajarish qobiliyatini, shuningdek ularni o'zgaruvchan vaziyat talablariga muvofiq qayta qurish qobiliyatini belgilaydi.

Inson organizimida HKK shakllanishida markaziy asab tizimining muvofiqlashtirish funktsiyalari yetakchi ro'l o'ynaydi, bu harakatlarni sifat jihatidan muvofiqlashtirish va ularning rivojlangan shakllarini tobora murakkablashib borayotgan yangi shakllarga aylantirish qobiliyatini belgilaydi. Ushbu funktsiyalar nafaqat motorli harakatlarning murakkab tarkibiga ega bo'lgan sport turlarida, balki doimiy ravishda yangilanib turadigan motorli harakat dasturlarini namoyish etishni talab qiladigan-gimnastika sport turlari, figurali uchish, suvga sakrash kabi sport

turlarida va boshqa (jang san’atlari, sport o‘yinlari va boshqalar) sport turlarida rivojlanish qobiliyatini sezilarli darajada aniqlashda asosiy ro‘l o‘ynaydi.

Shuni ta’kidlab o‘tish kerakki HKK asosan insonning yoshligidan yangi vosita harakatlarini o‘rganish, yangi vosita qobiliyatlari va ko‘nikmalarini tez va qat’iy shakllantirish, zarur bo‘lgan individual motor tajribasini to‘plash qobiliyatini belgilaydi. Hayotiy vosita ko‘nikmalarini o‘zlashtirish jarayoni, ayniqsa, maktabgacha yoshda, bola harakatlarni boshqarish mexanizmlarini faol ravishda shakllantirganda sodir bo‘ladi va bu yosh “oltin yosh” deb nomlanishi bejiz emas, bu vosita koordinatsiyasini tarbiyalashga ishora qiladi va aynan shu yoshda vosita sohasining poydevori qo‘yiladi, bu kelajakda bolaga jismoniy tarbiya va sportning faol mashg‘ulotlariga qo‘shilishga imkon beradi.

Ensiklopedik lug‘atda berilgan ta’rifga ko‘ra “Muvofiqlashtirish” “coordinate” so‘zi lotincha “Co” - birgalikda va “ordinate” - buyurtma berishdan kelib chiqqan. Siz “muvofiqlashtirish” tushunchasini aniqlash uchun ko‘plab variantlarni berishingiz mumkin. Biroq, adabiyot tahlili shuni ko‘rsatdiki, hali ham umum e’tirof etilgan ta’rif mavjud emas.

Bir-qator olimlar harakatni muvofiqlashtirish qobiliyati tushunchasi haqida o‘z fikr-mulohazalarini bildirishgan:

Masalan, pedagogika fanlari doktori, professor Yu.V.Verxoshanskiy HKK deganda kerakli ish effektiga erishish va insonning motor potentsialidan to‘liq foydalanish uchun vosita muammosini hal qilishda tashqi va ichki kuchlarni tartibga solish qobiliyatini tushunadi [1].

Harakatlarni qurish nazariyasi va biologik faoliyat nazariyasi asoschisi N.A.Bernshteyn harakatlarni muvofiqlashtirishni - faol va reaktiv kuchlarni maqsadga muvofiq tashkil etish orqali harakatlanuvchi organning ortiqcha darajalarini yengib o‘tish deb tariflagan [2].

Buyuk rus olimi L.P.Matveev muvofiqlashtirish qobiliyatlari ostida quyidagilarni ta’kidlaydi: bir tomondan, harakatlarni muvofiqlashtirish-muvofiqlashtirish, bo‘ysunish va ularni yangi vosita harakatlarini qurish va ko‘paytirish uchun bir butunga tashkil etish qobiliyati, boshqa tomondan, agar kerak bo‘lsa, o‘zgartirilgan vosita harakat parametrlarini o‘zgartirish yoki o‘zgaruvchan sharoitlar talablariga muvofiq boshqa harakatga o‘tish qobiliyati dep hisoblagan [3].

Bizning fikrimizcha harakatni muvofiqlashtirish qobiliyati haqida bildirilgan ta’riflar ichida, eng muvaffaqiyatli va aniq tarif A.K.Moskatovaga tegishli bo‘lib vosita - muvofiqlashtirish qobiliyatlari faoliyatning shartlari, holatlari va maqsadlariga nisbatan harakatning fazoviy-vaqt va tezlik-kuch parametrlarini aniq dozalash asosida o‘ziga xos vosita faoliyatini samarali amalga oshirish uchun o‘z tanasini boshqarish san’atining individual ifodasi sifatida belgilanishini nazarda tutgan. Uning fikriga ko‘ra, vosita muvofiqlashtirish qobiliyatlari miyaning psixosensor, psixomotor funktsiyalarining tug‘ma potentsiali orqali amalga

oshiriladigan vosita intellekti va o‘ziga xos sezgi rivojlanish darajasini aks ettiradi. Boshqa tadqiqotchilar ham shunga o‘xshash terminologiyaga amal qilishadi.

Harakat-koordinatsion ko‘nikmasining tabiiy asosiy anatomik va fiziologik moyilliklari (analizatorlarning xususiyatlari, asab tizimining xususiyatlari, rivojlanish darajasi va signal tizimlarining nisbati, kuch, harakatchanlik, muvozanat, dinamizm, asab jarayonlarining stabilligi) markaziy asab tizimining individual darajalar (“harakatni qurish darajalari”) ga bog‘liq.

Muvofiqlashtirish qobiliyatlari HKK va shaxsning harakat faoliyatini maqbul boshqarish va tartibga solishga tayyorligini tavsiflovchi xususiyatlarining asosidir. Bunda to‘rtta xususiyat ajratilgan:

to‘g‘rilik: adekvatlik (harakatni mo‘ljallangan maqsadga yetkazish) va aniqlik (harakatlar davomida mushaklarning kuchini dozalash);

tezlik: o‘z vaqtida yangi harakat faoliyatini o‘zlashtirish tezligi, qiyin sharoitlarda javob berish tezligi;

ratsionallik: maqsadga muvofiqlik (vosita harakatlarining sifatli bajarilishi) va samaradorlik (natija va unga erishish xarajatlarining nisbatini miqdoriy jihatdan tavsiflaydi, nafaqat HF texnologiyasining samaradorligiga, balki funktsional imkoniyatlarga ham bog‘liq;

topqirlik: barqarorlik (taqillatuvchi omillarga qarshilik) va tashabbuskorlik (vosita muammosini hal qilishning eng yaxshi variantlarini topish).

Harakat-koordinatsion ko‘nikmasining individual mezonlarini hisobga olgan holda shuni ham ta’kidlab o‘tish kerakki, eksperimentchilar HKK ni tasniflashda ularning namoyon bo‘lishining quyidagi mezonlari ajratiladi.

reaktsiyalar va vosita holatining parametrlarining o‘zgarishiga muvofiq vosita harakatlarining tartibga solinadigan o‘zgarishi;

fazo va vaqtni his qila olish;

cheklangan qo‘llab-quvvatlash sharoitida turli xil murakkablikdagi statik pozitsiyalar va pozitsiyalarni bajarishda, shuningdek qiyin motorli vaziyatlarda harakatlanayotganda muvozanatni saqlash;

motor harakatlarini qayta tiklash tezligi;

motor harakatlarini farqlashning aniqligi;

tananing o‘ng va chap yarmi (ikkala oyoq-qo‘llari) tomonidan harakat faoliyatini oqilona bajarish;

motor harakatlarining ritmik tuzilishini takrorlash;

mushaklarning ixtiyoriy boshashishi.

Tadqiqot mavzusi bo‘yicha ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki yosh katalashishi bilan harakatlarni muvofiqlashtirishda sezilarli o‘zgarishlar kuzatiladi: harakatlarning harakatchanligi va aniqligi pasayadi, yangi vosita ko‘nikmalarini o‘zlashtirish tezligi pasayadi, harakatlar tezligi sekinlashadi va muvofiqlashtirish mexanizmlarining o‘zaro ta’siri buziladi.

Shu munosabat bilan muvofiqlashtirish qobiliyatini rivojlantirish uchun mualliflar vosita harakatlarini tartibga solish, ularni bir butun sifatida tashkil etish uchun yuqori talablarga ega bo‘lgan mashq turlaridan foydalanishni maslahat berishadi. Mashqlar quyidagi talablarga javob berishi kerak:

shug‘illanuvchilar uchun ortib boroyatgan, ammo mavjud qiyinchiliklarga ega bo‘lishi zarur;

notanish, yangi elementlarini o‘z ichiga olishi kerak;

motor harakatlarini bajarish shakllarining xilma-xilligi bilan ajralib turishi kerak;

o‘z-o‘zini baholash va nazorat qilish, individual analizatorlarni ishga tushirish yoki ularning faoliyatini o‘chirish orqali harakat parametrlarini tartibga solish bo‘yicha vosita vazifalarini o‘z ichiga oladi.

Shunday qilib, HKK ni rivojlantirish orqali shug‘ullanuvchilar o‘z harakatlarini nazorat qilish va boshqarishni o‘rganadilar. Rivojlangan muvofiqlashtirish qobiliyati mushak va asab energiyasini tejab sarflashga yordam beradi. Tezlik, kuch, chidamlilikni namoyon etishda, ayniqsa rivojlanishning dastlabki bosqichida muvofiqlashtirishning ro‘li juda katta. Bularning barchasi HKK ning ahamiyatini va 4 yoshdan boshlab bolalarda ularning rivojlanishining ahamiyatini yana bir bor ta’kidlaydi. Agar mashqlar o‘z paytida vosita vazifalarining taxminiy belgilangan talablari bilan hal qilinsa, qo‘shimcha mushak guruhlari ishtirok etadi va metabolizm kuchayadi.

Tadqiqotlar natijasida maktabgacha yoshdagi bolalarda harakatni muvofiqlashtirishning rivojlangan qobiliyati bilan erishish mumkin bo‘lgan vosita harakatlarini bajarishda mushaklarning harakatlarini muvozanatlash qobiliyatini rivojlantirish tavsiya etiladi.

Ta’lim jarayonida 5-6 yoshli maktabgacha yoshdagi bolalarda HKK ni shakllantirishda yuqoridagi muammolariga e’tibor berish muhimdir. Ushbu yoshda muvofiqlashtirish mexanizmlari jadal takomillashadi, Markaziy va periferik tartibga solish tizimlarining o‘zaro ta’siri shakllanib, barcha organlar va to‘qimalar jadal rivojlanadi. Aytishimiz mumkinki, insonning ixtiyoriy motor funktsiyasini shakllantirishning shartli davrlaridan biri maktabgacha oraliqdagi yosh ekanligi belgilap berilgan. Shu munosabat bilan, soha tadqiqotchilari HKK ni samarali rivojlantirish uchun har doim HKK ning individual namoyon bo‘lishini yaxshilash uchun yangi vositalarni izlashi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Верхошанский Ю.В. Основы силовой подготовки в спорте. -3-е изд.-М.: Советский спорт, 2013. - 216 с.

2. Бернштейн, Н. А. О ловкости и ее развитии / Н. А. Бернштейн. 2-ое изда-. М.: ТВТ Дивизион, 2017. - 328 с.

3. Матвеев, Л. П. Теория и методика физической культуры (введение в теорию физической культуры; общая теория и методика физического воспитания) : ⁄4-е изд. - М .: Спорт, 2021. - 520 с

Ózbekstan mámleketlik dene tárbiyası
hám sport universiteti
Nókis filialı
“Dene tárbiyası hám sport Xabarshısı”
ISSN 2181-2268

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya
va sport universiteti Nukus filiali
“Jismoniy tarbiya va sport
axborotnomasi”
ISSN 2181-2268

YOSh FUTBOLChILARNI TEXNIK-TAKTIK HARAKATLARINI BAHOLASh VA SAMARADORLIGINI ANIQLASh

Abdullaev Islam Maxmudovich
assistant-o‘qituvchi
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali
abdullaev7647@mail.ru

Annotatsiya. *Maqolada yosh futbolchilarning musobaqa faoliyati va texnik-taktik tayyorgarligi o‘rganilgan. 12-13 yoshli futbolchilarning musobaqa davomida bajargan texnik-taktik harakatlari, darvozaga berilgan zarbalari va ularning samaradorligi aniqlangan. Musobaqa sharoitida texnik-taktik harakatlarni o‘rganish yo‘llari ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *yosh futbolchilar, musobaqa faoliyati, texnik harakatlar, to‘p uzatishlar, harakatlar samaradorligi.*

Аннотация. *В статье исследуется соревновательная деятельность и технико-тактическая подготовка юных футболистов. Определяются технико-тактические действия игроков 12-13 лет, выполняемые ими во время соревнований, удары по воротам и их результативность. Выявлены пути изучения технико-тактических действий в условиях соревнований.*

Ключевые слова: *юные игроки, соревновательная деятельность, технические действия, передачи, эффективность движений.*

Annotation*: In this article,there researched about the competition activity and technical - tactical preparation of young of players. Technicaltactical activities of 12-13 year old football players during the competition, shots towards the goal and their effectiveness were identified. There are enlightened how to study technical and tactical activities in a competition.*

Key words: *Young players, competition, technical activities, ball passing, action efficiency.*

Kirish: Yurtimiz sportini yuqori marralarga olib chiqish, jahon hamjamiyatida munosib o‘rinni egallash, sportchilarimizni har tomonlama tayyorgarliklarini oshirishda mamlakatimiz prezidenti va hukumatimiz tomonidan ko‘plab qaror va farmonlar chiqarilmoqda. Ushbu qaror va farmonlarni ijrosini ta’minlash borasida Respublikamizda ulkan ishlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-martdagi “Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5368–sonli farmoni va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 16-martdagi “Futbolni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3610–qarori mamlakatimiz jismoniy tarbiya va sport sohasi, jumladan yurtimiz futbol va soha mutaxassislari uchun ulkan imkoniyatlarni yaratib

berdi. Ushbu qaror va farmonlarni ijrosi yurtimiz sporti, ayniqsa futbolda istiqbolli o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda.

Viloyatlar va shaharlardagi umumta’lim maktablarda jismoniy tarbiya darslar samaradorligini oshirish, sportchilar tayyorlashning yangi samarali usullarini tadbiq etish hozirgi kunning dolzarb masalasiga aylandi. Yosh sportchilar tizimini tayyorlashda va ularning jamiyatda muhim o‘rin tutishida bolalar maxsus sport maktablari, bolalar bilan sport ishlarini boshqaruvchi va bajaruvchi sport to‘garaklari katta ahamiyatga egadir.

Milliy terma jamoamizning natijalarini yaxshilash maqsadida chet ellik mutaxassislarni ham taklif qilinmoqda. U mutaxassis milliy terma jamoamizni natijalariga javobgardir biroq mamlakatimiz sportini, futbolimiz taraqqiyotini taqdiri albatta biz yoshlarga bog‘liqligicha qoladi. Amaliyotda yosh futbolchilarni tarbiyalashda yaxshi, tajribali murabbiy jismoniy tayyorgarlik, texnik tayyorgarlik, taktik tayyorgarlik, psixalogik tayyorgarlik, fiziologik tayyorgarlik va nazariy tayyorgarliklarni bir-biridan ajratmagan holda olib boradi.

Yosh futbolchilarning texnik tayyorgarligi ular faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Texnik tayyorgarlikni yuqori saviyaga olib chiqmasdan yosh futbolchilarni ushbu sport turiga moslashtirish mumkin emas albatda.

Tadqiqotning maqsadi: yosh futbolchilar musobaqa faoliyatini o‘rgangan holda ularning texnik-taktik harakatlari sonini va samaradorligini aniqlash.

Tadqiqot obyekti va predmeti: yosh futbolchilarning musobaqa faoliyati va o‘tkaziladigan o‘yinlar.

Hozirgi zamon futbolida yosh futbolchilarni tayyorlash va ular mashg‘ulotlarini tashkil qilishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Chunki bu sport zahiralarini tayyorlashda eng muhim omil bo‘lib hisoblanadi.

Yosh futbolchilarni tayyorlash, ularning mashg‘ulotlarini to‘g‘ri rejalashtirish, ko‘p yillik istiqbolli rejalar asosida tayyorlash bugungi zamon futbolining asosiy talablaridan biri.

Bolalar, o‘smirlar sporti bo‘yicha olib borilgan tadqiqot ishlari, shu jumladan, futbol bo‘yicha bir nechta ilmiy-uslubiy qo‘llanmalar, jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati, sport mashg‘ulot (trenirovka) nazariyasi va uslubiyati o‘quv qo‘llanmalar va nizomlar tayyorlangan, ya’ni pedagogik va tibbiy-biologik yo‘nalishlar bo‘yicha ishlar olib borilgan.

Ko‘plab olimlar texnik tayyorgarlik futbolda hozirgi zamon sport mashg‘ulotining eng muxim va dolzarb masaladir deb ta’kidlaganlar.

Futbolchilarda to‘pni olib yurish texnikasi qanchalik yuqori bulsa, shunchalik futbolchining jismoniy va ijodiy imkoniyatlari oshadi. Oqibatda futbolchilarning maxorati oshadi va u jamoaning yutuq darajasini aniqlab beradi.

Lekin, xozirgi zamon futboli mutaxassislardan mahoratli futbolchilarning texnika-taktik imkoniyatlarini oshirishga asosiy e’tibor berishini talab qiladi.

Texnikani mikdori. Sportchi tomonidan o‘yin davomida bajargan umumiy harakatlar soni, M.A.Godikning kuzatishlari shuni ko‘rsatdiki, yuqori malakali futbolchilarning umum-jamoaviy TTX optimal miqdorlari 600-800 taga to‘g‘ri kelgan. Lekin bu ko‘rsatkich qanday raqib bilan o‘ynayotganligiga qarab o‘zgarishi mumkin. Masalan kuchliroq jamoaga qarshi o‘ynalsa, bu ko‘rsatkich o‘z-o‘zidan oshishi aniq. Chunki, asosan bunday vaziyatda o‘yin tizginini o‘z qo‘liga olinadi, katta tashabbusga erishish yo‘li bilan to‘p bilan muomila qilish vaqti ko‘payadi va o‘z-o‘zidan ITTX miqdoriy ko‘rsatkichlari o‘sishi tabiiy. Aksincha, o‘ziga nisbatan kuchli raqibga qarshi maydonga tushishganda aksari xollarda tashabbus boy beriladi, to‘p bilan muomila qilish vaqti kamayadi va ITTX mikdoriy ko‘rsatkichlari pasayib 400-500 ITTX tashkil qilish mumkin.

Musobaqa faoliyati vaqtida futbolchilarni TTX miqdori va samaradorligini baholash uchun telefon yoki diktafondan foydalangan xolda quyidagi texnik harakatlar yozib olinadi:

- to‘p uzatishlar (qisqa, o‘rta va uzoq masofaga);
- to‘pni olib yurish;
- to‘pga ilgari ega bo‘lish;
- bosh bilan o‘ynash;
- bosh bilan zarba berish;
- ayoq bilan zarba berish;
- standart vaziyatlarni bajarish

So‘ngra olingan malumotlarni maxsus jadvalga xar bir futbolchiga tegishli bo‘lgan kataklarga tushirishadi.

Bu yerda shuni takidlash joizki, turli chiziq (himoya, yarim himoya, hujum) o‘yinchilarga optimal samaradorlik koeffitsiyenti turlicha bo‘ladi. Himoya chizig‘idagi o‘yinchilarni meyoriy koeffitsiyenti bu 0,85 % ni tashkil etish kerak.

Yarim himoyachilardan bu ko‘rsatkich 0,75 % dan 0,85 % gacha tashkil qlishi mumkin. Hujumchilarda esa 0,68 dan 0,75 gacha tashkil qilishi mumkin. Bu tafovutlarni quyidagicha tariflash mumkun. Himoyachilar ko‘pgina TTX o‘z darvozalari yaqinida bajarishadi va raqiblar bu zonada nisbatan kamroq qarshilik ko‘rsatishadi aksincha hujumchilarni raqibning darvoza yaqinidagi harakatlari katta qarshilik bilan kutib olinishi va bemalol to‘p bilan hujumchilarga yo‘l qo‘yilmasligi bilan izohlanadi. Hujumchilarga to‘pni olib yurish, raqibni aldash, to‘p uzatish (ayniqsa oldinga) harakatlari qiyinroq bo‘ladi.

Xulosa: Biz tadqiqotimizni Toshkent shahrida joylashgan “Magik football” jamoasida olib bordik. Kuzatishlar davomida 8 ta o‘yin nazorat qilindi. Nazorat qilishda yosh futbolchilar tomonidan bajariladigan turli texnik-taktik harakatlar kuzatildi va natijalar qayd qilib borildi.

Yosh futbolchilar tomonidan bajarilgan TTX larni natijalari ko‘rsatib o‘tilgan. Natijalarni tahlil qilib o‘tilgan bo‘lsa, quyidagilarni aytib o‘tish mumkun. Futbolchilar o‘rtacha o‘yin davomida 483 ta texnik-taktik harakatni amalga

oshirishdi. Bu texnik-taktik harakatlarni 295 tasi samarali yakun topdi va 188 ta texnik-taktik harakat samarasiz yakun bo‘ldi. Umumiy samaradorlik koeffitsiyenti 0.61% ni tashkil qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.I.Talipjanov. “Futbol texnikasi”. Toshkent 2010y.
2. I.A. Koshbaxtiev “Yosh futbolchilarni tayyorlashda texnik va taktik jarayonlarning ro’li va axamiyati” Toshkent 2015y.
3. R.A.Akramov “Zamonaviy futbol asoslari” Toshkent 2012 y.
4. Javlonbek Abduqaxor o‘g‘li Zulxaydarov. Futbolchilarni tayyorlash jarayonidagi musobaqalar faoliyati ko‘rsatkichlarini taxlil qilishning axamiyati 2022. 764-770.

AKADEMIK ESHKAK ESHUVCHILARNI ESHKAK ESHISH VAQTIDA TEXNIK XATOLARINI ANIQLASH VA ULARNI KOOREKSIYALASH METODIKASI

Mambetnazarov Islambek Muratbayevich
p.f.b.f.d. (PhD), docent
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali
Islambekmambetnazarov95@gmail.com

Annotatsiya. Akademik eshkak eshuvchilarni eshkak eshish vaqtida texnik xatolari haqida va ularni kooreksiyalash metodikasini ishlab chiqish bo‘yicha ma’lumotlar keng berilgan.

Kalit so‘zlar. Akademik eshkak eshish texnikasiga o‘rgatish, tezlikni o‘zgartirmasdan eshkak yuzasining suvda harakatini cho‘zish.

Аннотация. Широко представлена информация о технических ошибках академических гребцов во время гребли и разработке методики их коррекции.

Ключевые слова. Обучение технике академической гребли, удлинение движения поверхности гребли в воде без изменения скорости.

Annotation: Information is widely presented on the technical errors of academic rowers during rowing and the development of methods for their correction.

Key words: Training in rowing technique, lengthening the movement of the rowing surface in the water without changing the speed.

Dolzarbligi. Qayiq harakatisiz eshkak eshish – asosiy mashqlardan biridir. Bu shug‘ullanuvchi eshishni bajarishda gavdaning siltama harakatiga diqqatni qaratsa samarali hisoblanadi. Mashqni shug‘ullanuvchining eshish oxiri texnikasini egallash darajasiga qarab har bir mashg‘ulotga kiritish lozim. Eshkak ushlagichi qo‘llarni

ortga tashlab gavdaga tomon o‘tkaziladi va tirsakni qisish yordamida yoy bo‘yicha pastga-oldinga tizza tomonga qaytariladi. Eshkak eshuvchining diqqati tirsaklarning ortga o‘tkazilishi va eshkak ushlagichining gavda tomonga bir xil harakatiga qaratiladi.

Tadqiqotning maqsadi. Akademik eshkak eshuvchilarni eshkak eshish vaqtida texnik xatolarini aniqlash va ularni kooreksiyalash metodikasini ishlab chiqish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari. 1. Akademik eshkak eshuvchilarni eshkak eshish vaqtida texnik xatolarini aniqlash. 2. Aniqlangan texnik xatoliklar tahlil qilish va uni kooreksiyalash metodikasini ishlab chiqish. 3. Texnik xatolarni tuzatish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi. Akademik eshkak eshishda eshish elementlarini o‘rgatish. Suvni ilish (olib o‘tishning boshlanishi). Suvni ilish yaxlit harakatning qismi sifatida bajariladi.

Suvni ilishni o‘rgatishda quyidagi mashqlar qo‘llaniladi:

1. Qayiq harakatisiz eshkak eshish. Eshkak yuzasi harakatlari suv ustida, olib o‘tish suvda. Eshkak yuzasi yoy bo‘yicha harakatlanishiga e’tibor bering.

2. Qayiq harakatisiz eshkak eshish. Eshkakni yoy bo‘yicha tepadan pastga harakatlantirib, suv sachrashi asos tomonga ketadigan qilib eshkak yuzasi bilan suvga zarba beradi.

3. Qayiq harakatisiz eshkak eshish. Eshkak yuzasini yoy bo‘ylab tepadan pastga harakatlantirib suvga sekin tekkiziladi va tezlikni o‘zgartirmasdan eshkak yuzasining suvda harakatini cho‘zish. Bu mashqni bajarishda eshkak yuzasi havoda va suvda teng harakatlanishiga e’tibor berish kerak. 1-3 mashqlarni harakat erkinligiga erishib 8-10 marta takrorlanadi.

4. Bir nechta yangi shug‘ullanuvchilar qayiqni ushlab turadi, boshqalar esa mashqni bajaradi: o‘rindiqqa o‘tirib oldinga harakatlanadi. Yelkalar erkin tushirilgan. Eshkak ushlagichini tizzadan pastda o‘rnatiladi. Eshkak yuzasi pastdan yuqoriga harakatlantiriladi. Eshkak ushlagichi pastki holatda bo‘lgan vaqtda oyoqlar oyoq tiragichga tayanib yozila boshlaydi. Qo‘llar yoy bo‘ylab yuqoriga harakatini davom ettiradi va eshkak yuzasini suvga tushiradi. Gavda to‘g‘irlanib, eshkak ushlagichi harakat yo‘nalishini o‘zgartirib qo‘llar tortiladi.

Ushbu mashq olib o‘tishning boshlanishini o‘rgatishda qo‘llaniladigan mashqlardan bittasidir.

Olib o‘tishning oxirini o‘rgatishda quyidagi mashqlar qo‘llaniladi:

Shuni esdan chiqarmaslik kerakki, olib o‘tishda qo‘llar bukilmaydi, tirsak ortga tortiladi. Qo‘llarning bunday harakati orqa muskullarining ishga tushishini talab qiladi.

Bu mashqni bajarishda eshkak ushlagichining to‘xtovsiz harakatiga erishish lozim.

Eshishni yaxlit mustahkamlash. Eshishni yaxlit mustahkamlash olib

o‘tishning har xil vaziyatlarida gavda holatini aniqlovchi mashqlardan boshlanadi:

1. Qayiq harakatisiz eshkak eshish. Dastlabki holat–gavda to‘g‘irlangan. To‘liq eshish bajariladi.

2. Qayiq harakatisiz eshkak eshish. Dastlabki holat – gavda ko‘krakdan oldinga egilgan. To‘liq eshish bajariladi.

Shug‘ullanuvchilarning diqqati olib o‘tish va o‘tkazishda eshkak yuzasining gorizontal holatiga hamda olib o‘tishda tirsak harakatiga qaratilishi lozim. Qo‘llar to‘g‘irlanishini o‘zgartirish eshkak harakati tezligini o‘zgartirishi mumkin.

Keyin gavdani burishni o‘rganishga kirishiladi “o‘z tomoniga” bir eshkakli qayiqlarda eshkak eshishda va qo‘llarni yonga “o‘tkazish” – juft eshkakli qayiqlarda eshkak eshishda.

Gavdani burish shartli ravishda ikki qismga bo‘linadi – tizzalargacha-oldinga va tizzalardan-yonga bajariladi.

Ushbu mashqlarni akademik eshkak eshish texnikasiga o‘rgatishning eng samarali vositalar sarasiga kiradi. Shu bilan birga biz tomonimizdan akademik eshish vaqtida kuzatiladigan texnik xatolar aniqlandi hamda ular tahlil etilib tuzatish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

1-jadval

Akademik eshkak eshishda texnik xatoliklar va ularni uz vaqtida to‘g‘irlash metodikasi

№	Xatolik	Xatolik tahlili	Tuzatish bo‘yicha tavsiyalar
1.	“Tayyorgarlik” fazasida tananing erta burilishi	Sportchi korpusni 10° ga oldinroq buradi	Eshkak eshish fazasida pauzani nazorat qiluvchi videotrenirovkalar
2.	Startda kalta eshish amplituda	Startda eshkak eshish uzunligi 1,7 m ga qisqardi.	Eshkakni bir tekisda botirish va pozitsiyani mustahkamlash mashqlari
3.	Oxirgi 200 m da eshish kuchining pasayishi	Eshish kuchining 350 Vt gacha kamaytirish	Quvvatni oshirish bilan 8×200 m oraliqlarni mashqlar o‘tkazish va oxirgi (200) 100m masofada quvvatni yanada oshsirish
4.	Eshkak eshish siklida harakatlar uzluksizligining buzilishi	Qayiqning tezligini pasaytiradi; eshkak eshish yengilligi yo‘qoladi	Concept2 ergometrida yengil yuklamada sekinlashtirilgan eshkak eshish
5.	Eshkak dastasini qattiq ushlab turish eshkakni boshqarishni qiyinlashtiradi	Bilak mushaklarining ortiqcha zo‘riqishiga olib keladi	Podyezda ochiq kaftlar bilan eshkak dastasini harakatlantirish
6.	Eshishdagi kuchlarning noto‘g‘ri taqsimlanishi	Qayiqning bir maromda yurishini buzadi.	Har bir eshish fazasiga alohida mashqlarni ergometrda bajarish

№	Xatolik	Xatolik tahlili	Tuzatish bo‘yicha tavsiyalar
7.	Eshkakchi tanasining bo‘g‘inlari ishidagi nomuvofiqlik	- qo‘llar, gavda va oyoqlar - dastakka kuch berishni bo‘shashtiradi, eshish siklida harakat koordinatsiyasini buzadi.	Katta ekipajlarda yarim jamoa balansda qolgan yarim jamoa harakatda. Eshkak eshish siklidagi har bir fazasida pauza bilan ishlash va concept2 ergometrda sportchi bilan individual ishlash
8.	Ratsional ish va dam olish ritmining yo‘qligi	Dam olish vaqtini qisqartiradi (yoki uzaytiradi), bu esa erta charchashga va sport natijalarining yomonlashishiga olib keladi	Suvni ilish vaqtida nafas chiqarib tortish fazasida nafas olish va suvdan eshkakni chiqarish vaqtida nafasni chiqarish mashqlarini suvda va quruqlikda bajarish.
9.	Juda uzun yoki kalta eshkak eshish	Eshkakning sekin tortilishiga yoki eshkakning suvdan juda tez chiqishiga olib keladi, bu esa eshish zaiflashishiga olib keladi.	Qayiq va eshkaklarning sozlanmalarini (nastroykasini) sportchiga moslab sozlash va eshkak eshish texnikasi takomillashtirsh (oyoq tirgagich joylashuvi osga nisbattan uzoq yaqinligini, banka past balandligi, yulak oyoq tirgagichga yaqin uzoqligi, eshkaklarning parametrlarini sportchi boyiga moslab sozlash).
10.	Eshkak yuzasining suvga kirishidan oldin to‘xtashi	Eshish boshlanishini susaytiradi, eshish sur’atini sekinlashtiradi, qayiqning yurishini tormozlaydi.	2 kishilik ekipajlarda eshkak dastagi bilan suvni ilish fazasida takroriy harakatlarni bajarish
11.	Bankning tortish fazasi boshlanishida uzoq vaqt turib qolishi	Qayiqning yurishini to‘xtatadi	Eshkak eshish tugatish fazasidan keyin (kanesdan keyin) gavda va eshkak dastasini oldinga chiqarish, Tayyorgarlik fazasiga sekinroq chiqish, eshkaklarni tortish fazasiga yetmasdan oldinroq suvni ilishga tayyorlash.
12.	Bankani suvni ilish fazasida orqaga vaqtidan oldin itarish	Eshkak dastasining tortishini juda bo‘shashtiradi, eshish ritmi buziladi, bel va yelka soxasida travmalarga olib keladi.	Eshkak baland pastligini sportchiga moslab sozlash, quruqlikda ko‘ra muskullarini kuchaytirish orqali qo‘l, gavda va oyoq harakatlarini sinxronlashtirish. Concept2 ergometrda texnik mashq elementlarini bajarish.

№	Xatolik	Xatolik tahlili	Tuzatish bo'yicha tavsiyalar
13.	Eshkak yuzasining suvga haddan tashqari chuqur yoki sayoz kiritilishi	Eshkakni tortishni qiyinlashtiradi va sekinlashtiradi yoki eshkak yuzasining suvdagi tayanchini zaiflashtiradi, balans buzilishiga olib keladi, eshkakning suvdagi foydali ish koeffitsientini pasaytiradi	1. Qayiqdagi eshkak qotiriladigan element (vertlyuk,os) gradusini sozlash 2. Eshkak balad pasligini sportchiga moslab sozlash 3. Sportchi bilian texnik elementlar ustida ishlash (eshkakni suvni ilishga ertaroq tayyorlash va suvga botirish elementlari)
14.	Oyoqlarni ikki bo'lib itarilishi (yozish)	Eshkak yuzasining suvdagi bir tekisda tayanch holatini buzadi, qayiq tekis harakatlanish ritmini buzadi	Concept2 ergometrda qayiqda texnik elementlar ustida ishlash eshkakga o'z vaznini (massasini) ildirib eshkak eshish va yelka muskullarini kuchaytirish
15.	Qo'llar bilan eshkak dastasini zaif tortish	Eshkakning suvdagi tugatish fazasi harakatini juda bo'shashtiradi, eshkak suvdan chiqishi qiyinlashadi qayiq tormozlanadi	Tugatish fazasida ko'proq texnik eshkak eshish, quruqlikda qo'l muskullarini kuchaytirish
16.	Oyoqlarning sust ishlashi	Eshkakni tortib olishni sekinlashtiradi va susaytiradi natiyjada eshkakni suvdan chiqarish qiyinlashadi.	Quruqlikda pastdan tepaga sakrash uzoqlikga sakrash mashqlari va oyoq muskullarini kuchaytirsh. Qayiqda faqat oyoqlar yordamida tez itarish (qo'l va gavdani ishlatmasdan) mashqlarini bajarish
17.	Eshkak yuzasining tortish fazasida suvdan vaqtidan oldin chiqib ketishi	Eshkakga bir tekisda kuchlanish berilishining buzilishiga va qayiq balansining buzilishiga olib keladi.	Eshkakning baland pastligini sportchiga moslab sozlash eshkak yuzasining gradusini sozlash. Sportchining eshkak eshishda tugatish fazasida eshkak dastasini gavdasigacha gorizontal torishi
18.	Eshkak yuzasining suvdagi sakrab harakatlanishi.	Eshkakka qo'yiladigan kuchni bo'ladi va eshkak tortishni susaytiradi.	Eshkak dastasiga o'z vazni (massasi) bilan tayangan xolda eshkak eshish
19.	Eshkak tortish jarayoni oxirida oyoqlarni tayanch zinapoyaga tirash yo'qligi	Eshkak tortishning oxirida eshkakning suvga tayanishini susaytiradi va eshkakni suvdan chiqarish qiyinlashadi natijada eshkak suvda tormoz xosil qiladi	Oyoq tirgagichni sportchiga moslab uzoq yaqinligini sozlash. Oyoq tirgagichning os markasizidan uzoqroq qo'yish (karma tomonga) suvda tugatish fazasida oyoq kaftlari podnojkani tirab o'z vaznini eshkak dastasiga ildirigan holda texnik eshkak eshish mashqlar, quruqlikda oyoq, qo'l va bel muskullarini kuchaytirish.

№	Xatolik	Xatolik tahlili	Tuzatish bo‘yicha tavsiyalar
20.	Gavdaning orqaga haddan tashqari harakati	Qayiqning burin tarafi juda ko‘p yuklanadi, eshkakchi oyoq tirgagi yordamida o‘zini oldinga tortadi.	Oyoq tirgagichni sportchiga moslab uzoq yaqinligini sozlash. Oyoq tirgagichning os markasizidan uzoqroq qo‘yish (karma tomonga). Eshkak dastasining uzunligini sportchiga moslab sozlash suvda tugatish fazasida oyoq kaftlari Oyoq tirgagichni tirab turgan holda texnik eshkak eshish mashqlar.
21.	Eshish ohirida tananing kech ko‘tarilishi	Eshish ritmini buzadi eshkakni suvga ildirish vaqti sekinlashadi va banka karmada to`xtab qoladi natijada qayiq tormozlanadi	Suvda va concept2 ergometrda gavda va qo`llarni tugatish fazasidan keyin tezroq orqaga qaytarish texnik mashqlarini bajarish.quruqlikda kora muskullarin ikuchaytirish
22.	Eshkak tortish oxirida tirsaklarni pastga tushirish	Dastaning tortish kuchini pasaytiradi. Eshkak suvdan chiqib ketadi, balans buziladi	Suvda va concept2 ergometrda sportchi eshkakni gavdasiga gorizontal tortish texnik mashqlarini bajarish. eshkakning baland pasligini sportchiga moslab sozlash.
23.	Eshkakni ilgakdan (vertlyukdan) tortib olish	Qayiq ustidan boshqaruvni yo‘qotishga olib keladi, eshkak tutqichidagi (vertlyugdagi) kuch sezilarli darajada pasayadi.	Eshkakning dasta uzunligini sportchiga moslab sozlash. Suvda eshkak dastasiga tayanib o‘z vaznini (massasini) ilgan xolda eshish texnik mashqlarni bajarish
24.	Eshkakni suvdan asta-sekin tortib olish	“Tabanka”ga va eshkak eshish tezligining sekinlashishiga olib keladi.	Eshish oxirida qollar harakatini tezlashtirish zalda va quruqlikda qo‘llar uchun shtanga va griflar bilan mashqlar.
25.	Eshkak tortishning oxirida qo‘llarni “siltov” harakati	Eshkak dastaning bir tekis tortilishini pasaytiradi.	Suvda eshkak dastasiga tayanib o‘z vaznini (massasini) ilgan xolda eshish texnik mashqlarni bajarish va eshkak eshish texnikasi ketma ketligini to‘g‘ri bajarish oyoq gavda qo‘l, qo‘l gavda oyoq
26.	Eshkak yuzasining suvda aylanma harakati	Eshkak tortishning oxirini bo‘shashtiradi, qayiqning yurishini sekinlashtiradi	To‘rt kishilik qayiqlarda bir nomerlab ishlash bunda qayiq balans tog‘ri holatta xatolikni to‘g‘irlash imkoniyati kengaytiriladi

№	Xatolik	Xatolik tahlili	Tuzatish bo‘yicha tavsiyalar
27.	Eshish oxirida eshkak dastagi bilan gavdaga tegish.	Eshish siklida harakat uzluksizligini buzadi	Eshkak eshish texnikasi ketma ketligi ustida ishash oyoq-gavda-qo‘l, qo‘l-gavda-oyoq .Eshishning tugash fazasida oyoqlar tayanch holatda turushi chorakta uzunlikda eshkak eshish. Suvda eshkak dastasiga tayanib o‘z vaznini (massasini) ilgan xolda eshish texnik mashqlarni bajarish. Quruqlikda qo‘l va gavda muskullarini kuchaytirish
28.	Eshkak dastakni qo‘l barmoqlari bilan ushlash va tortishning yo‘qligi	Dastakni tortishni zaiflashtirib qo‘yadi.	Har bir qol kaftlari bilan alohida eshish harakatlarini bajarish bunda bir qolda eshilganda qollar eshkakni mahkamroq ushlashga harakat qilinadi.
29.	Tayyorgarlik fazasida haddan tashqari tez harakatlanish	Qayiqning bir maromda yurishini buzadi, banka karmada to‘xtab qoladi. Eshkakni suvga ildirish vaqti sekinlashadi qayiq tormozlanadi	Eshkak eshish tugatish fazasidan keyin (kanesdan keyin) gavda va eshkak dastasini oldinga chiqarish, tayyorgarlik fazasida (Podyezga) sekinroq chiqish, eshkaklarni tortish fazasiga yetmasdan oldinroq suvni ilishga tayyorlash, ko‘zlar yumulgan xolda qayiqni xis qilib bankani bir maromda harakatlanishini nazorat qilish
30.	Eshkakchining gavdasi harakati kildan chetga og‘ishi	Qayiq muvozanatni buzadi.	Katta ekipajlarda yarim jamoa balansda qolgan yarmi harakatda pauzalar bilan ishlash bitta qo‘lda tashqari qo‘lda gavda rotatsiyasini nazorat qilib texnik elementlar bajarish
31.	Tayyorgarlik paytida gavdaning haddan tashqari ko‘p yoki yetarlicha egilmasligi	Eshish vaqtidagi harakatlar muvofiqligini buzadi. Eshishda kuchlanishni tanaga to‘g‘ri taqsimlashga xalaqit beradi	Bel muskullarini kuchaytirish qayiqning sportchiga moslab sozlanishi (nastroyka qilish).
32.	Tayyorgarlik davrida suvni ilishga yaqinlashganda tizzalarning nosimmetrik holati	Qayiq balansini buzilishi.	Suvda balans mashqlarini bajarish dastakni maksimal bosib chiqish balansni tana bilan emas eshkak dastaklari bilan stabillashtirish tanani erkin ushlash. Quruqlikda koordinatsiya mashqlarini bajarish bel muskullarini kuchaytirish

№	Xatolik	Xatolik tahlili	Tuzatish bo‘yicha tavsiyalar
33.	Eshkak dastalarining tizzadan tashqariga chiqishigacha oyoqlarni bukish.	Eshkak yuzasining notekis harakati tayyorgarlik fazasida muvozanatini buzib, boshqarishni qiyinlashtiradi.	Eshkak eshish texnikasi ketma ketligi ustida ishash oyoq-gavda-qo‘l, qo‘l-gavda-oyoq. Suvda va concept2 ergometrda gavda va qo‘llarni tugatish fazasidan keyin tezroq orqaga qaytarish texnik mashqlarini bajarish. Quruqlikda bel muskullarini kuchaytirish. Quruqlikda koordinatsiya mashqlarini bajarish
34.	Eshkak yuzasi bilan suvni ilishdan oldin eshkak yuzasining kech burilishi.	Suvni ilib olishda kechikishga sabab bo‘ladi.	Eshkaklarni tortish fazasiga yetmasdan oldinroq suvni ilishga tayyorlash quruqlikda koordinatsiya mashqlarini bajarish
35.	Eshkak fiksatorining vertlyugga bo‘lgan bosimini nazorat qilmaslik	Eshkakchining kuchlari vertlyugga uzatilishini susaytiradi.	Eshkak uzunligini sportchiga moslab sozlash
36.	Tayyorgarlik fazasida ishlamaydigan mushaklarning yetarlicha bo‘shashmasligi.	Barvaqt charchashga olib keladi.	Suvda va concept2 ergometrda gavda va qo‘llarni tugatish fazasidan keyin tezroq orqaga qaytarish va muskullarni tayyorgarlik fazasidan suvni ilib olish fazasigacha erkin tutib dam berish texnik mashqlarini bajarish.

Jadvalda akademik eshkak eshish texnikasida uchraydigan xatoliklar, ularning sabablari va bartaraf etish bo‘yicha tavsiyalar bayon etilgan. Unda asosiy diqqat eshkak eshish jarayonidagi har bir texnik xatolikni aniqlash, bu xatoliklarning sport natijalariga ta’sirini tahlil qilish hamda ularni tuzatish yo‘llarini belgilashga qaratilgan. Quyida ushbu ma’lumotlarni umumlashtirib, tahlil qilamiz:

1. Texnik xatoliklar va ularning tahlili. Jadvalda eshkak eshish jarayonidagi turli bosqichlarda yuzaga keladigan xatoliklar ko‘rsatilgan. Xususan:

Tananing noto‘g‘ri burilishi yoki harakatlarning muvofiqsizligi.

Eshkakning noto‘g‘ri burchakda yoki noto‘g‘ri chuqurlikda suvga kirishi.

Harakatlarning uzluksizligini buzuvchi omillar, masalan, oyoqlarning yoki qo‘llarning noto‘g‘ri ishlashi.

Gavdaning haddan tashqari yoki yetarlicha harakatlanmasligi.

Eshish jarayonida qo‘llar, gavda va oyoqlar o‘rtasidagi muvofiq harakatlarning bo‘lmasligi.

Ushbu xatoliklar natijasida qayiqning tezligi, muvozanati va harakat samaradorligi sezilarli darajada pasayishi mumkin.

2. Xatoliklarning sport natijalariga ta’siri. Xatoliklar sportchining harakatlaridagi ortiqcha zo‘riqish, charchash yoki jarohat olish ehtimolini oshiradi. Masalan:

Harakatlar uzluksizligining buzilishi qayiqning tezligini pasaytiradi.

Harakatlarni amalga oshirish uchun noto‘g‘ri uslub tanlanishi kuch va energiyaning yo‘qotilishiga olib keladi.

Yomon muvozanat qayiqning turg‘unligini buzadi, bu esa sport natijalarining pasayishiga sabab bo‘ladi.

3. Xatolarni bartaraf etish bo‘yicha tavsiyalar. Jadvalda har bir xatolik uchun mos tuzatish usullari tavsiya qilingan. Bularga quyidagilar kiradi:

Video va texnik tahlil mashqlari: Harakatlarning to‘g‘riligini nazorat qilish va xatolarni bartaraf etish uchun videotrenirovkalar yoki Concept2 ergometridan foydalanish.

Fiziologik va kuch mashqlari: Mushaklarni kuchaytirish uchun maxsus mashqlar, masalan, oyoq va qo‘l mushaklarini rivojlantirish uchun sakrash, shtanga ko‘tarish kabi faoliyatlar.

Texnik sozlamalar: Qayiq, eshkak va boshqa jihozlarning sportchiga mos ravishda sozlanishi, shu jumladan eshkakning uzunligi, burchagi va balandligini optimallashtirish.

Muvozanat va koordinatsiya mashqlari: Suvda yoki quruqlikda balansni saqlashga qaratilgan texnik va koordinatsiya mashqlari.

Samarali nafas olish va dam olish ritmi: Nafas olish va nafas chiqarish texnikasini to‘g‘ri tashkil qilish charchashni kamaytiradi.

Xulosa. Umuman olganda, jadvalda eshkak eshish texnikasi, harakatlar muvofiqligi va sport natijalarini oshirish uchun batafsil tahlil va tavsiyalar taqdim etilgan. Har bir xatolikning alohida o‘rganilishi va tuzatish choralari orqali sportchilarning salohiyati va natijalari sezilarli darajada yaxshilanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. McGregor AH, Patankar ZS, Bull AM (2005) Спинальная кинематика у элитных гребцов во время обычного физиологического «шагового теста». Медицина и наука в спорте и упражнениях 37, 1014-1020 [PubMed] [Google Scholar]

2. McGregor AH, Patankar ZS, Bull AM (2007) Изменения в спинальной кинематике гребцов во время степ-тестирования. Журнал спортивной науки и медицины 6, 29-35 [Бесплатная статья PMC] [PubMed] [Google Scholar]

3.O'Sullivan F., O'Sullivan J., Bull AM, McGregor AH (2003) Моделирование многомерных биомеханических измерений позвоночника во время гребных упражнений. Клиническая биомеханика 18, 488-493 [DOI] [PubMed] [Google Scholar]

Ózbekstan mámleketlik dene tárbiyası
hám sport universiteti
Nókis filialı
“Dene tárbiyası hám sport Xabarshısı”
ISSN 2181-2268

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya
va sport universiteti Nukus filiali
“Jismoniy tarbiya va sport
axborotnomasi”
ISSN 2181-2268

BOKS SPORTIDA HIMOYA TEXNIKASI

Allanazarov Ikram Genjeyevich
assistent o‘qtivchi
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali
ikramallanazarov@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada, boks sportida himoyalanishlar, raqibning bittalik zarbalaridan himoyalanish harakatlari, gavda bilan himoyalanish, qarshi zarba, orqaga chekinishlar nazarda tutiladi va boks sportining o‘quv-mashg‘ulot jarayonidagi vazifalari to‘g‘risida ma’lumolar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *himoya, qarshi zarba, blok, gavda bilan himoyalanish, og‘ish, orqaga og‘ish, sho‘ng‘ish, orqaga chekinish.*

Аннотация: *В данной статье приведены средства защиты в боксе, действия по защите от одиночных ударов противника, защита корпусом, контрудар, отступления и дана информация о задачах бокса в тренировочном процессе.*

Ключевые слова: *защита, контрудар, блок, защита корпуса, отклонение, отклонение назад, пикирование, отступление.*

Annotation: *In this article, defenses in the sport of boxing, actions to defend against single blows of the opponent, defense with the body, counter strike, retreats are provided and information is given about the tasks of the sport of boxing in the training process.*

Key words: *defense, counter strike, block, body defense, deflection, back deflection, dive, retreat.*

Tik turishlar va siljib yurishlar. Himoyada jangovar tik turish hujumdagi jangovar tik turishga o‘xshash, ya’ni hujum va himoya harakatlari uchun universal. Himoyada jangovar tik turishlar himoyalanish va siljib yurishga maksimal tayyor turishni paydo qilish uchun qo‘llaniladi. Siljib yurishlar, shuningdek, ring bo‘ylab siljib yurishda texnik usullarning uyg‘unlashuvi hujum texnikasi bo‘limida yoritilganga o‘xshash. Bu yerda siljib yurish texnik usullarini bajarishning umumiy qonuniyatlari saqlanib qoladi, shuningdek, ularning uyg‘unlashuv tamoyillariga amal qilinadi.

Himoyalanishlar. Boksda himoyalanishlar – bokschi tayyorgarligining eng muhim bo‘limi. Ular bokschining texnik jihatdan qurollanganligining asosiy mazmunini tashkil etadi. Agar texnik mahorat darajasi zarba variantlarining keng to‘plami bilan belgilansa, unda bokschining jangovar qobiliyati aynan himoyalanish harakatlari to‘plami bilan belgilanadi. Himoyalanishlar quyidagi maqsadlarda qo‘llaniladi:

1) gavdaning bo‘sh joylarini zarbadan ishonchli himoya qilish;

2) himoyalanishdan qarshi hujum va hujumga o‘tish uchun kerakli vaziyatni tanlash hamda o‘z harakatlarini tashkil qilish.

Himoyalanish harakatlari asosida o‘quv-mashg‘ulot jarayonida hisobga olish zarur bo‘lgan quyidagi omillar yotadi:

1. Raqibning hujum harakatlarini bashorat qila olish, ularning rivojlanishi, shuningdek, shaxsiy hujum amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan uslublarni nazarda tuta bilish.

2. Har xil himoyalanish usullaridan foydalanib, qarshi harakatlarni tashkil qilish bilan raqib harakalarini aniqlab olish:

a) o‘zaro zarba harakatlarini bartaraf etishga qaratilgan qo‘llar yordamida himoyalanish. Bunda qarshi zarbalar, to‘sishlar, qaytarishlar, bloklar qo‘llaniladi;

b) raqib bilan o‘zaro harakatlarni bartaraf etishga qaratilgan gavda yordamida himoyalanish. Bunda og‘ishdan, sho‘ng‘ishdan foydalaniladi;

v) orqaga chekinish va masofani uzaytirish yo‘li orqali raqib bilan to‘qnashuvni bartaraf etishga qaratilgan oyoqlar yordamida himoyalanish.

Raqibning asosiy bittalik zarbalaridan mumkin bo‘lgan himoyalanish harakatlari variantlari 1-jadvalda keltirilgan.

Himoyalanish usullari jangovar tik turishda bajariladi. Qarshi va javob zarbalarini bajarish uchun mustahkam muvozanat hamda jangovar tayyorgarlik holatini saqlash uning zarur sharti hisoblanadi.

1-jadval

Raqibning bittalik zarbalaridan himoyalanish harakatlari variantlari

Himoyalanish usullari, uslubiyati va vari-antlari / raqibning asosiy zarbalari	Qo‘llar yordamida										Gavda yordamida						Oyoqlar yordamida		
		to‘sish			qaytarish				blok		og‘ish			sho‘ng‘ish			chekinish		
	Qarshi zarbalar	kaft	elka	bilak	kaft bilan tashqariga	kaft bilan ichkariga	bilak bilan tashqariga	bilak bilan ichkariga	kaft bilan	bilak bilan	chapga	o‘ngga	orqaga	pastga-chapga	pastga-o‘ngga	pastga	chapga	o‘ngga	orqaga
O‘ng qo‘lda to‘g‘ridan	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+
Chap qo‘lda to‘g‘ridan	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+
O‘ng qo‘lda yondan	+	-	-	+	+	-	+	-	+	-	-	+	+	+	-	+	-	+	+
Chap qo‘lda yondan	+	+	-	+	+	-	+	-	+	-	+	-	+	-	+	+	+	-	+
O‘ng qo‘lda pastdan	-	+	-	+	-	-	-	-	+	-	-	+	+	-	-	-	-	+	+
Chap qo‘lda pastdan	-	+	-	+	-	-	-	-	+	-	+	-	+	-	-	-	+	-	+

Ta’kidlash lozimki, himoyalanishning hamma turlarida harakatlanish umumiy tamoyili saqlanadi:

1. Oyoqlarning faol ishlashi, u gavdani siljitish hamda muvozanatni saqlashga qaratilgan.

2. Gavdaning faol ishlashi, u raqib zarbasidan og‘ib qolishga qaratilgan.

3. Qo‘llarning faol ishlashi, u raqib zarbalarini to‘xtatib qolishga va qarshi hamda javob zarbalarini bajarishga tayyor turishni yuzaga keltirishga qaratilgan.

Himoyalanish harakatlarida masofa katta ahamiyatga ega.

Qo‘llar bilan himoyalanish mudofaa harakatlarida keng qo‘llaniladi. Ta’kidlash joizki, zarbalarga qarshilik ko‘rsatish uchun qo‘llardan foydalanish ma’lum darajada bokschining qarshi hujum harakatlarini cheklab qo‘yadi. Lekin bunday himoyalanish yuqori darajada ishonchli hamda samaralidir, ayniqsa, jang yuqori sur’atda va yaqin masofada olib borilayotgan bo‘lsa.

Raqib zarbasini quyidagi hollarda bartaraf etish mumkin:

1) Zarba boshlanishida. Ushbu holda qarshi zarba yoki blok qo‘llaniladi;

2) Zarba o‘rtasida. Bunda qaytarishdan foydalaniladi;

3) Zarba oxirida. Bu erda to‘sishdan foydalanish maqsadga muvofiq.

Qarshi zarbalar himoyalanishning faol usullaridan biri hisoblanadi.

Qarshi zarba – bu raqib zarbasi vaqtida beriladigan va uning hujumining rivojlanishini to‘xtatadigan qarshi zarba. Bunda boks texnikasida ma’lum bo‘lgan zarbalarning hamma variantlari qo‘llaniladi. Qarshi hujum zarbalarining eng yaxshi variantlaridan biri – bu chap qo‘lda to‘g‘ridan zarba (u har qanday jang vaziyatida samarali, bunda bokschi raqib zarbalaridan nisbatan xavfsiz holatda bo‘ladi), shuningdek, o‘ng qo‘lda to‘g‘ridan zarba, bu zarba raqib hujumini to‘xtatuvchi kuchli zarba sifatida samarali.

Qarshi zarbani bajarish paytida quyidagi shartga amal qilish lozim: u raqib tomonidan beriladigan zarbadan ilgari bajarilishi, hujum zarbasiga qaraganda nishonga avvalroq tegishi zarur.

Blok – bu gavdaning zararsiz joyini (bilak, yelka, kaft) tutib turish orqali raqib zarbasini to‘xtatish.

Qaytarish – raqib zarbasi bo‘sh joylarga yetib kelmasligini ta’daqlash maqsadida uning yo‘nalishini o‘zgartirishga qaratilgan qo‘lning qarshi harakati.

Gavda bilan himoyalanish zamonaviy jangni olib borishda keng qo‘llaniladi. Uning afzalligi shundan iboratki, bokschining qo‘llari raqib zarbalariga qarshilik ko‘rsatishdan bo‘sh qoladi va bu tezda javob hujumi uchun imkoniyat yaratadi. Bunday himoyalanish ikki xil uslubda amalga oshiriladi: og‘ish va sho‘ng‘ish bilan.

Og‘ish – joyini o‘zgartirmasdan turib zarbadan qochish. Bunda himoyalanayotgan bokschining boshi yoki raqibning zarba berayotgan qo‘li darajasida, yoki undan yuqorida turadi. Zarbadan orqaga qochib qolish orqaga og‘ish deb nomlanadi.

Sho‘ng‘ish – bokschining o‘z joyini o‘zgartirmasdan turib pastga (pastga – yon tomonga) raqibning zarba berayotgan qo‘li ostiga harakati orqali zarbadan qochish. Bunda himoyalanayotgan bokschining boshi raqibning zarba berayotgan qo‘lidan pastda turadi.

Oyoqlar yordamida himoyalanish ham zamonaviy boksda keng qo‘llaniladi. Ushbu usul yordamida mudofaa harakatlarining ishonchliligi ortadi, ring bo‘ylab manyovr qilish bokschining “o‘yin” uslubini shakllantiradi. Bunday himoyalanish uslubi orqaga chekinish bo‘lib, u qadam tashlash yoki sakrash yordamida o‘rtadagi masofani oshirish va raqib bilan to‘qnashuvdan chiqib ketishga qaratilgan bokschining joylashish o‘rnini o‘zgartirishidir.

Hulosa sifatida shuni aytish mumkinki musobaqalarda himoyaning o‘rni judayam katta ahamiyatga ega. Sportchilarning yuqori sport natijasiga erishish uchun himoya texnikasini doimiy nazoratda saqlashi kerak. Ma’liumki, himoyalanib turib qarshi zarbalar, jangovar hujumlar, qarshi harakatlarni tashkil qilish bilan raqib harakalarini aniqlab olish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Gorstkov Ye. N. Analiz trenirovochnoy i sorevnovatel'noy deyatel'nosti bokserov tyajelix vesovix kategoriy / Ye. N. Gorstkov // Boks: Yejegodnik.- M.: FiS, 1983.-S. 43-46.

2. Gradopolov K. V. Trenirovka boksera v sorevnovatel'nom periode: uchebnoe posobie dlya trenerov / K. V. Gradopolov, V. I. Ogurenkov.- M.: FiS, 1963.- 305 s.

3. Karimov M.A., Xalmuxamedov R.D., Quyashematov I.Yu., Tajibaev S.S. Boksshılardıń sport -pedagogikalıq sheberligin asırıw. T., 2011. 478 b.

4. Sherbakov S.I. Issledovanie sorevnovatelnoy deyatel'nosti v bokse / S.S.Naumov, V.A.Kiselev // Sb. molodix uchenix i studentov RGAFK.- M.: FON, 2000.- S. 61-65.

5. R.D.Xalmuxamedov, V.D.Anashov, P.M.Adilshaev, I.G.Allanazarov. Boks teoriyası hám metodikası 2023.j 372-381 b

JAS BASKETBOLShÍLARDÍŃ ShÍNÍĠÍW PROCESINDE JEŃIL ATLETIKA QURALLARÍNAN PAYDALANÍW

Paluaniyazova Naubaxar Abdreimovna
stajyor-oqıtıwshı
Ózbekstan mámleketlik dene tárbiyası hám sport universiteti Nókis filialı
naubakhar89@mail.ru
Avezbaev Aziz
assistent-oqıtıwshı

Annotaciya: Sporttıń hár qıylı túrlerinde jeńil atletika qurallarınan paydalanıwdıń ornı anıqlanıp, sonday-aq jas basketbolshılardıń fizikalıq tayarlıq dárejesine tásiri sıpatlanadı. Jas sportshılardı tayarlaw sistemasında jeńil atletika qurallarınan paydalanıw zárúrligi tájiriybede tiykarlanǵan.

Tayanısh sózler: jas basketbolshılar, fizikalıq tayarlıq, jeńil atletika quralları, mikrocikl, shınıǵıw procesi.

Аннотация: Выявлена роль использования средств легкой атлетики в различных видах спорта и описано их влияние на уровень физической подготовленности юных баскетболистов. Экспериментально обоснована необходимость использования средств легкой атлетики в системе подготовки юных спортсменов.

Ключевые слова: юные баскетболисты, физическая подготовленность, средства легкой атлетики, микроцикл, тренировочный процесс.

Abstract: The role of using athletics in various sports has been identified and their influence on the level of physical fitness of young basketball players has been described. The necessity of using athletics in the training system for young athletes has been experimentally substantiated.

Key words: young basketball players, physical fitness, athletics, microcycle, training process.

Kirisiw. Jeńil atletika eń belgili sport túrlerinen biri bolıp esaplanadı. Waqıt ótiwi menen jeńil atletika shınıǵıwları menen shuǵıllanıwshılar sanı kóbeyip barǵan, sebepli bul shınıǵıwlar adamnıń dene tárbiyası hám salamatlandırıw procesi ushın eń qolaylı, ámeliy hám tábiyiy jaqtan paydalı bolıp tabıladı.

Házirgi dáwirde jeńil atletika sport túri sıpatında barlıq kontinentlerde shuǵıllanbaqta [2:21]. Sport túrleriniń kópshiligi tábiyiy háreketlerden (júriw, juwırıw, sekiriw) ibarat, sonıń ushın jeńil atletika sport shınıǵıwlar hár qıylı sport túrlerinde sportshılardı tayarlaw sistemasında júdá keńnen qollanıladı.

Ayırım sport túrlerinde jeńil atletika shınıǵıwlarınan ulıwma hám arnawlı fizikalıq sapalardı rawajlandırıw quralları sıpatında paydalanıladı. Mısalı ushın futbol, voleybol hám gandbolda shıdamlılıqtı rawajlandırıw ushın kross juwırıw qollanıladı, toptı jetkerip beriwdiń anıqlıǵın hám uzaqlıǵın támiyinlewdi muwapıqlastırıw ushın sheberlikti rawajlandırıw hám háreketli shınıǵıwlar qollanıladı.

Kurash, boks hám qılıshpazlıqta jeńil atletika shınıǵıwları sportshılarda háreket reakciyasın rawajlandırıw quralı bolıp xızmet etedi [1:18]. Motosport, parashyut sportı sıyaqlı túrlerde bul shınıǵıwlar hár tárepleme fizikalıq hám salamatlandırıw baǵdarındaǵı qurallar sıpatında qollanıladı [4:37].

Basketbolda jeńil atletika shınıǵıwları júdá áhmiyetli ról oynaydı. Bul qurallardıń nátiyjeliligi sportshılarǵa zárúr fizikalıq sapalar hám háreket qábiletlerin rawajlandırıw hámde olardıń dárejesin arttırıwda óz kórinisin tabadı. Mısalı, sekiriwshilik jeterli bolmaǵan basketbolshı maydanda top penen sekirip atıw boyınsha háreketlerdi orınlawı qıyınlaspaqta, tezlik hám iyiliwsheńlik jeterli bolmaǵan basketbolshılardıń maydanda top penen aylanıp háreketleniwi qıyınshılıqlar tuwdıradı [5:20].

Ádebiyatlardağı dereklerdiń analizi sportshılardı tayarlawda jeńil atletika qurallarınan paydalanıw hár qıylı sport túrlerinde barlıq jerde bar ekenliginen dárek beredi. Biraq bul shınıǵıwlardıń basketbolda jas sportshılardıń fizikalıq tayarlıǵına tásiri haqqındağı maǵlıwmatlardı óz ishine alǵan bolıp, ilimiy izertlewdiń usı baǵdarı onıń áhmiyetli ekenligin kórsetedi.

Izertlew jumısımızdıń maqseti jeńil atletikanıń bazalıq (ulıwma tayarlıq) mezociklinde jas basketbolshılardıń fizikalıq tayarlıq dárejesine tásirin úyreniwden ibarat.

Izertlew jumısımızdıń wazıypaları. Izertlew jumısımızǵa Nókis qalasınıń basketbol komandasınıń (balalar hám jas óspirimler basketbolı) 2006-2007-jıllarda tuwılǵan 14 jas sportshısı qatnastı.

Izertlew nátiyjleri hám olardıń dodalanıwı. Izertlew jumısımız 2024-jıl 29-iyuldan 31-avgustqa shekemgi aralıqta ótkerildi. Jeńil atletika qurallarınıń jas basketbolshılardıń fizikalıq tayarlıq dárejesine tásirin anıqlaw ushın eki ret test isleri ótkerildi. Sportshılardıń dáslepki fizikalıq tayarlıq dárejesin anıqlaw ushın zárúr bolǵan birinshi test iyul ayınıń aqırında, ekinshi test bolsa (avgust ayınıń aqırında) ótkerilgen jumıslardan keyin fizikalıq tayarlıq dárejesin anıqlaw imkaniyatın berdi.

Eki test isleri de bir qıylı sxema boyınsha ótkerildi. Sonnan keyin organizmniń dem alıwına qaratılǵan dáslepki shınıǵıwlar (áste temp penen 5-7 minut juwırıw, iyiliwsheńlik shınıǵıwları, arnawlı juwırıw shınıǵıwları) qolın joqarıǵa sozıp turıp uzınlıqqa sekiriw (bahalaw testleri sekiriw), joqarı starttan 20 m.ge juwırıw (tezlikti bahalaw testi), juwırıw joqarı starttan 300 m. ge (tezlikke shıdamlılılıqtı bahalaw testi). 300 m. ge juwırıwdan tısqarı hár bir shınıǵıw 2 márteden orınlandı hám eń jaqsı nátiyje belgilengen. Test shınıǵıwları basketbol sport túri boyınsha sport tayarlıǵı baǵdarlamasın esapqa alǵan halda ótkerildi [6:42]. Biziń pikirimizshe, fizikalıq shınıǵıwlar orınlanıwında kórsetilgen nátiyjeler basketbolshılardıń jetekshi bolǵan qásiyetleri hám háreket qábileti tájiriybeli dárejede, sonday-aq olardıń arsenalına kóplegen texnikalıq usıllar dárejesiniń tiyisliligin kórsetedi.

Fizikalıq sapalardı jaqsılaw boyınsha qoyılǵan maqsetlerden kelip shıǵıp, jas basketbolshılardıń háreket qábiletleri házirgi tayarlıq dáwirindegi shınıǵıw jumısları (bazalıq mezocikl) sport túri boyınsha (basketbol) sport tayarlıǵı baǵdarlamasın hám qánigelestirilgen oqıw-sport mákemeleri hám olimpiada rezervleri mektepleri ushın baǵdarlamalar (uzınlıqqa sekiriw) dan kelip shıǵıp ámelge asırıldı [7:11]. Sonday-aq, shınıǵıw jumıslarınıń rejesin dúziwde jas sportshılardı tayarlaw ushın usınıs etilgen shınıǵıwlardan paydalanılǵanlıǵın atap ótiw kerek [8:10].

Izertlewler ótkerilgen tayarlıq dáwiri altı mikrociklden ibarat. Dáslepki úsh mikrocikl 18 kúnge rejelestirilgen hám 12 oqıw-shınıǵıw shınıǵıwların óz ishine alıp, jeńil atletika qurallarınan paydalanıldı.

Sonı ayrıqsha atap ótiw kerek, basketbolshılardıń shınıǵıw procesi texnikalıq kónlikpelerdi qáliplestiriwge qaratılǵan jeńil atletika quralları menen birgeliktegi, basketbol oyınıń fizikalıq tayarlıq dárejesin arttırıwǵa qaratılǵan tárepleri tásirinde

ámelge asırıldı. Sonıń ushın barlıq shınıǵıw mikrocikllerinde, shınıǵıw kúnlerinde, biraq keshki waqıtta basketbol boyınsha oqıw-shınıǵıwları ótkerildi. Basketbol boyınsha oqıw-shınıǵıwları jeńil atletikadan ayrıqsha kúnlerde ótkeriletuǵın tikleniwshi mikrocikller buǵan kirmeydi.

Dáslepki kúni shınıǵıw jumıslarına áste juwırıw waqtında arnawlı juwırıw hám sekiriw shınıǵıwları (300 m. áste juwırıw, 50 m. juwırıw yamasa sekiriw shınıǵıwı × 8-10 márte), sonday-aq, 81-90% shıdamlılıq penen 5×60 m. juwırıw kirgizildi.

Ekinshi shınıǵıw kúninde shınıǵıwlarda tosıqlardan paydalanıldı: tosıqtıń qaptalında eki ayaq penen iyterip (tosıq biyikligi 0,74 sm.); bir ayaq penen iyterip tosıqlar arqalı sekiriw (bálentligi 0,40 sm.); tosqınlıqtan eki ayaq penen sekirip ótiw 20-30 m. tezleniw menen. Barlıq shınıǵıwlar 8 tosıq arqalı 5-6 tákirarlanıp orınlandı. Shınıǵıwlar juwmaǵında sportshılar 10×20 m. (shınıǵıwlılıǵı 81-90%), 6×20 m. (91-95%) hám 4×20 m. (96-100%) aralıqlarda júrip shıqtı.

Úshinshi shınıǵıw kúni kúsh hám sekiriw shınıǵıwların óz ishine aldı: shıǵıp júriw; shep ayaqtıń ústinen oń ayaqqa tolıq otırıp, alǵa qaray háreketleniw; dizelerdi kókirekke tartıp sekiriw.

Tórtinshi kúni tiklew quralları (sauna, basseyn)nan paydalanıldı.

Bazalıq mikrocikller shınıǵıw jumısları hám qalǵan mikrocikller menen úlken ulıwma kólemi menen ajıralıp turadı. Mikrocikllerdiń maǵlıwmatları jas basketbolshılar organizmindegi beyimlesiw processlerin xoshametlew ulıwma fizikalıq hám arnawlı tayarlıq boyınsha máselelerdi sheshiwge baǵdarlanǵan.

Birinshi hám ekinshi bazalıq mikrocikllerde kúnler sanı – hár birinde 7 den, oqıw-shınıǵıw sabaqları – 5 ewden. Tórtinshi hám jetinshi kúnleri birinshi hám ekinshi bazalıq mikrocikllerde tikleniwshi aktiv dem alıw quralları hám (háreketsheń oyınlar) intensiv trenirovka jumısınan soń organizmniń tikleniw qurallarınan paydalanıldı.

Shınıǵıw waqtında 1-bazalıq mikrocikldiń birinshi kúni kúsh hám tezlik-kúsh shınıǵıwları paydalanıldı: dizeden kókirekke - bileklerge jatqan halda tayanıw; qaptalǵa jatqan halda tayanıw ayaqtıń kóteriliwi hám túsiriliwi; tayanıshqa arqasın bileklerde jatqan halda tayanıw, tayanıshtan kóteriw hám túsiriw, ayaqtı sozǵan halda kókirekke dizerlew - tik turıp, ayaqları birge; orında turıp ayaqları menen sekiriw; gewdeni qarama-qarsı tárepke awdarıp turıp ayaqta sekiriw bir jaqqa dizelerdi qozǵalmay kókirekke tartıw h.t.b. Hár bir shınıǵıw 10-15 sekund dem alıwdan soń 30-35 sekundtan orınlandı. Shınıǵıwshılar aqırında sportshılar 3×150 m. ge juwırıp baradı (shınıǵıwshılıq 81-90%).

Ekinshi shınıǵıw kúninde koordinaciyalaw hám tezlik-kúsh shınıǵıwları záńgire menen paydalanıldı (shep hám oń ayaq penen gezekpe-gezek ayaqlardı birgelikte sekiriw, ayaqlardı bir-birine bóliw h.t.b.) 3×30 m, 2×60 m, intensivligi 96-100 %.

Úshinshi kúni shınıǵıw jumısına kross qosıldı, hár qıylı intensivlikte 3 km. ge juwırıw (fartlek), sekiriw hám kúsh penen juwırıw shınıǵıwdıń dóńgelek usılınan

paydalanǵan shınıǵıwlar atlanıw, gimnastika skameykasına sekiriw, rezina jgut penen sekiriw, ayaqların almastırıp gimnastika skameykasına sekiriw (30 s. intensiv jumıs, 30 s. dem alıw).

Besinshi shınıǵıw kúni ózindegi juwırıw hám sekiriw shınıǵıwları mazmunı menen xarakterlenedi: ayaǵınan ayaǵına sekiriw, jgut penen aldıǵa qaray háreketleniw. Sonday-aq, shınıǵıw procesine ózgermeli juwırıw da kirgizildi 3-4×80 m, intensivligi 81-90% (tezleniw 80 m, keri – juwırıw áste pát penen).

Altınshı shınıǵıw kúninde juwırıw hám sekiriw shınıǵıwlar jáne qollanıldı. (kókirekten sekiriwler, bul shınıǵıwlardan soń sportshılar 2×100 m. (intensivligi 91-95%) aralıqta juwırıp bardı 50 m. áste juwırıw hám 2×150 m. (81-90%).

Jas sportshılardıń juwmaqlawshı test sınaǵı waqtında sekiriwshilik dárejesi jaqsılandı. Bunı "Joqarıǵa sozıw" shınıǵıwında kórsetilgen nátiyjeler tastıyıqlaydı, bul jerde toparlar ortasha nátiyjesiniń isenimli ósiwi 1,35 sm. ($t=2,34$, $r<0,05$ bolǵanda), bul baslanǵıshqa salıstırǵanda 4 % joqarı esapalanadı. Nátiyjelerde de isenimli ayırmashılıqlardı kóriw múmkin "Ornınan uzınlıqqa sekiriw" shınıǵıwında ósiw 1,65 sm. ($t=2,29$, $r<0,05$), jaqsı tárepke ózgeris 0,8 procentti quradı. Ósiw bul shınıǵıwlardı orınlawdaǵı nátiyjeler qosılǵan sekiriw, juwırıw hám kúsh shınıǵıwları jas basketbolshılardı tayarlawdıń derlik hár bir mikrociklinde kóriw múmkin.

20 m. ge juwırıwda kórsetilgen baslanǵısh hám aqırǵı kórsetkishlerdi salıstırǵanda tezlik dárejesiniń artqanınan nátiyjeler dárek beredi. Ósiw 0,04 sekundti quradı ($t=2,88$, $r<0,05$), bul dáslepki dáwirge salıstırǵanda 1,1% jaqsı, testlew arqalı bul shınıǵıwda nátiyjelerdiń unamlı dinamikası biziń pikirimizshe 100 m. ge shekem 91-95 hám 96-100% intensivlikte.

Úyrenilip atırǵan kórsetkishlerdiń eń az ózgerisleri ortasha topar nátiyjesiniń ósiwi 300 m. ge juwırıwda júz berdi 0,3% ti quraǵan ($t=1,94$, 0,14 sek.qa jaqsılanǵan) $r>0,05$). Tezlikke shıdamlılıqtı rawajlandırıwǵa qaratılǵan jumıslar bul juwırıwdıń kólemi jeterli emesliginen dárek beredi. Sonıń ushın keyingi baslanǵısh mezocikldegi shınıǵıw jumısların rejelestiriwde jas basketbolshılardıń tayarlıq strukturasına uzınlıǵı 100 m. den joqarı bolǵan, orınlaw intensivligi 91-95 hám 96-100% bolǵan kesindilerdi kóbirek muǵdarda kirgiziw zárúr, bul biziń pikirimizshe, jas sportshılardıń tezlikke shıdamlılıǵınıń joqarı dárejesine erisiwge xızmet etedi.

Juwmaq. Izertlew dawamında alınǵan maǵlıwmatlar jas basketbolshılardı tayarlıq sistemasında jeńil atletika quralların qollanıw zárúrligin tastıyıqlaydı, sebebi bul qurallardıń nátiyjeliligi jas sportshılardıń háreket qábileti ushın zárúr fizikalıq qásiyetlerdiń rawajlanıw dárejesin arttırıwda úlken áhmiyetke iye.

Paydalanılǵan ádebiyatlar:

1. Матвеев Л.П. Общая теория спорта и ее прикладные аспекты. СПб.: Лань, 2005. 316 с.

2. Чаров Е.Н. Легкая атлетика в спорте. СПб., 2011. 284 с.

3. Матвеев Л.П. Теория и методика физической культуры. М.: Физкультура и спорт; Спорт Академ Пресс, 2008. 392 с.

4. Чайцев В.Г. Новые технологии физического воспитания. М.: АРКТИ, 2014. 172 с.

5. Костикова Л.В. Баскетбол. Азбука спорта. М.: Физкультура и спорт, 2002. 288 с.

6. Муниципальное бюджетное учреждение «Спортивная школа олимпийского резерва «Игровые виды спорта» [Электронный ресурс]. URL: http://gameschool71.ru/documents/files/77379 (дата обращения: 01.03.2020).

7. Программа для специализированных учебно-спортивных учреждений и училищ олимпийского резерва: утв. приказом Министерства спорта и туризма Республики Беларусь от 09.12.2009 № 919. Минск: НИИ ФКС Республики Беларусь, 2009. 103 с.

8. Михеева Т.М., Холодова Г.Б. Использование легкоатлетических упражнений в тренировочном процессе баскетболистов: метод. рекомендации. Оренбург: ОГУ, 2014. 48 с. [Электронный ресурс]. URL: https://rucont.ru/efd/245251 (дата обращения: 01.03.2020).

ИТОГИ ОБЩЕЙ ФИЗИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВЛЕННОСТИ КУРСАНТОВ 1 КУРСА ТАМОЖЕННОГО ИНСТИТУТА И ОСОБЕННОСТИ ИХ ВЗАИМОСВЯЗИ

С.Р.Шакирзянова
Таможенный институт Таможенного комитета Республики Узбекистан
Maliwka_1986@mail.ru

Аннотация: *В научной статье представлены итоги общей физической подготовленности курсантов 1 курса Таможенного института и их взаимосвязь.*

Ключевые слова: *курсанты, Таможенный институт, общая физическая подготовленность, взаимосвязь.*

Abstract: *The scientific article presents the results of the general physical training of first-year students of the Customs Institute and their interrelationships.*

Keywords: *cadets, Customs institute, general physical fitness, interrelation.*

Аннотация: *Илмий мақолада Божхона институти 1-курс курсантларининг умумий жисмоний тайёргарлиги натижалари ва уларнинг ўзаро боғлиқлиги келтирилган.*

Калит сўзлар: *курсантлар, Божхона институти, умумий жисмоний тайёргарлик, ўзаро боғлиқлик.*

Введение. Данные физической подготовленности курсантов и особенности их взаимосвязи. В соответствии с положением о кафедре физической подготовки, одной из основных задач является повышение физической подготовленности курсантов таможенного института. Для определения параметров физической подготовленности курсантов в соответствии с учебной программой утвержденной начальником Таможенного института, использованы следующие контрольные нормативы: время бега на 100 м, челночный бег, подтягивание на перекладине, отжимания на брусьях, время бега на 800 м, время бега на 3000 м. (таблица 1).

Результаты исследования. В исследовании приняли участие курсанты 1 курса в начале учебного 2023-2024 года. По сравнению с результатами бега на 100м студентов Ташкентского государственного экономического университета у курсантов параметры значительно ниже. [2]

Наилучший показатель в беге на 100 м показал курсант Таможенного института Ашуров Рамзиддин – 12.0 сек, а в челночном беге - 24,13, в подтягивании на перекладине курсант Эшбоев Нурсултон - 20 раз, в отжимании на брусьях несколько курсантов показали результат - 25 раз.

Таблица 1

Результаты тестов по определению физической подготовленности курсантов 1 курса Таможенного института

№	Наименование нормативов	Средние значения	Стандартные отклонения
1	Бег на 100 м (сек)	13.59	0.59
2	Челночный бег (сек)	25.41	0.62
3	Подтягивание на перекладине (кол-во)	14	2.3
4	Отжимание в упоре на брусьях (кол-во)	16	4.1
5	Бег на 800 (мин.,сек.)	2.167	0.77
6	Бег на 3000 м (мин.,сек.)	12.58	0.28

Определение общей физической подготовленности курсантов и особенности их взаимосвязи. Оценка показателей общей физической подготовленности курсантов в соответствии с положением кафедры Военной и физической подготовки, одной из основных задач является повышение физической подготовленности курсантов Таможенного института. Для определения параметров физической подготовленности курсантов в соответствии с утверждённой учебной программой использованы следующие.

Контрольные нормативы: время бега на 100 метров; челночный бег (10Х10 м.); подтягивание на перекладине; сгибание и разгибание рук в упоре на брусьях; время бега на 800 метров; время бега на 3000 метров.

Утверждённые Государственным Таможенным комитетом Республики Узбекистан приказ №118 от 2013 года (Таблица 2)

Таблица 2

Параметры физической подготовленности курсантов 1 курса Таможенного института

п/н	Ф.И.О.	Бег на 100 метров	Челночный бег 10х10 м.	Подтягивание на перекладине	Сгибание и разгибание рук в упоре на брусьях	Бег на 800 метров	Бег на 3000 метров
1	О.Б.	13,32	25,33	14	20	2,18	13,11
2	Т.А.	13,20	25,92	17	25	2,04	12,44
3	К.А.	13,65	25,24	25	20	2,03	13,09
4	И.Ш.	13,93	25,13	12	15	2,14	12,5
5	Ё.М.	13,61	25,44	10	10	2,24	12,37
6	Б.М.	13,22	25,12	15	14	2,2	12,3
7	Х.Ш.	12,82	25,24	10	10	2,28	13,2
8	Р.С.	13,91	24,99	14	16	2,03	12,49
9	Р.Ж.	14	24,93	14	14	2,11	12,38
10	У.А.	12,86	25,95	12	15	2,18	13,04
Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, o‘qituvchilarda media savodxonlikni rivojlantirishda kognitiv, amaliy va refleksiv yo‘nalishlar uyg‘unligi muhim ahamiyat kasb etadi. Kognitiv yo‘nalish nazariy bilimlarni, amaliy yo‘nalish media vositalarni qo‘llash ko‘nikmalarini, refleksiv yo‘nalish esa o‘z faoliyatini baholash va tahlil qilish madaniyatini shakllantiradi. Bu uch yo‘nalishning uyg‘unligi metodikaning samaradorligini ta’minlaydi va o‘qituvchilarda mustaqil, ongli va mas’uliyatli media faoliyatini rivojlantiradi.

Bundan tashqari, media savodxonlikni shakllantirish jarayonida individual yondashuvning ahamiyati ham ko‘rsatildi. Har bir o‘qituvchining media tajribasi, texnologiyaga bo‘lgan ishonchi va kommunikativ uslubi turlicha bo‘lgani sababli metodika shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni nazarda tutadi. Bu yondashuv

o‘qituvchilarning shaxsiy malaka va kreativ salohiyatini rivojlantirishga, media bilan ishlashda o‘ziga xos yo‘l topishga imkon yaratadi.

O‘qituvchilar media savodxonligini rivojlantirgan sari, o‘quvchilarning o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyasi va tanqidiy fikrlash darajasi ham oshadi. Shu bilan birga, metodika ta’lim muassasalarida media markazlar, raqamli laboratoriyalar va uzluksiz malaka oshirish kurslarini joriy etish zaruratini ko‘rsatadi. Bu esa media savodxonlikni rivojlantirishning barqaror tizimini yaratishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchilarda media savodxonlikni shakllantirish nafaqat pedagogik, balki ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan jarayon bo‘lib, zamonaviy ta’lim tizimining sifatli va samarali rivojlanishini ta’minlaydi. Metodika o‘qituvchilarning raqamli va tanqidiy kompetensiyalarini mustahkamlash, pedagogik faoliyatda innovatsion yondashuvni tatbiq etish, o‘quvchilarning media madaniyati va axborot etikasi madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bois, o‘qituvchilarda media savodxonlikni shakllantirish metodikasi ta’lim muassasalari va davlat ta’lim siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida e’tirof etilishi lozim.

Umuman olganda, media savodxonlikni rivojlantirish o‘qituvchining professional identifikatsiyasi, pedagogik innovatsiya va o‘quvchilarning raqamli madaniyatini shakllantirishning muhim omili sifatida qaraladi. Shu sababli, bu yo‘nalishda uzluksiz tadqiqotlar olib borish, yangi metodik yondashuvlarni joriy etish va o‘qituvchilarni doimiy qo‘llab-quvvatlash kelajakdagi ta’lim sifatini oshirishning asosiy kafolati bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Buckingham, D. (2003). Media education: Literacy, learning and contemporary culture. Cambridge, UK: Polity Press.

2. Hobbs, R. (2010). Digital and media literacy: Connecting culture and classroom. Thousand Oaks, CA: Corwin Press.

3. UNESCO. (2013). Global media and information literacy assessment framework: Country readiness and competencies. Paris, France: UNESCO.

4. Potter, W. J. (2012). Media literacy. Thousand Oaks, CA: Sage Publications.

5. Mihailidis, P., & Thevenin, B. (2013). Media literacy as a core competency for engaged citizenship in participatory democracy. American Behavioral Scientist, 57(11), 1611–1622. https://doi.org/10.1177/0002764213489015

6. Jenkins, H., Purushotma, R., Weigel, M., Clinton, K., & Robison, A. J. (2009). Confronting the challenges of participatory culture: Media education for the 21st century. Cambridge, MA: MIT Press.

7. Livingstone, S., & van Couvering, E. (2008). Media literacy and the challenges of new information and communication technologies. The Communication Review, 11(2), 95–108. https://doi.org/10.1080/10714420802016128

8. Aufderheide, P. (1993). Media literacy: A report of the national leadership conference on media literacy. Aspen, CO: Aspen Institute.

9. Kellner, D., & Share, J. (2007). Critical media literacy, democracy, and the reconstruction of education. In D. Macedo & S. R. Steinberg (Eds.), Media literacy: A reader (pp. 3–23). New York, NY: Peter Lang.

10. Potter, W. J., & McDougall, J. (2011). Assessing media literacy: Integrating theory and research. New York, NY: Peter Lang.

11. Mihailidis, P. (2018). News literacy, social media behaviors, and skepticism toward information on social media. Information, Communication & Society, 21(5), 693–711. https://doi.org/10.1080/1369118X.2017.1360412

12. Hobbs, R., & Frost, R. (2003). Measuring the acquisition of media-literacy skills. Reading Research Quarterly, 38(3), 330–355. https://doi.org/10.1598/RRQ.38.3.4

JISMONIY TARBIYA VA SPORT SOHASIDA MALAKALI MUTAXASSISLAR TAYYORLASh TIZIMINI TAKOMILLAShTIRISh MEZONLARI

Abdullaev Islam Maxmudovich
assistent o‘qituvchi
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali
abdullaev7647@mail.ru

Annatatsiya: *Maqolada jismoniy tarbiya va sport sohasida malakali mutaxassislar tayyorlash tizimini takomillashtirishda “Fan, ta’lim va ishlab chiqarish” sohalari o‘rtasida munosabatlarni tartibga solish hamda amalga oshirilayotgan ishlar samaradorligini nazorat qilish tizimini tashkil qilish sifatida “klaster” tizimini yaratish masalalari muhokama qilinib, yanada rivojlantirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *jismoniy tarbiya, sport, ta’lim, tizim, mezon, klaster, ilmiy maktab, talab va taklif, rivojlanish, integratsiya, ilm-fan, innovatsiya, kollaboratsiya.*

Аннотация: *В статье рассматриваются вопросы регулирования отношений между сферами «науки, образования и производства» в совершенствовании системы подготовки квалифицированных специалистов в области физической культуры и спорта, и создания «кластерной» системы в качестве организации контроля эффективности осуществляемой работы, а*

также разработаны предложения и рекомендации по дальнейшему её развитию.

Ключевые слова: *физическая культура, спорт, образование, система, критерий, кластер, научная школа, спрос и предложение, развитие, интеграция, наука, инновации, коллаборация.*

Annotation: *The article deals with the issues of regulating relations between the spheres of “science, education and production” in improving the system of training qualified specialists in the field of physical culture and sports, and creating a “cluster” system as an organization for monitoring the effectiveness of the ongoing, and also developed proposals and recommendations for its further development.*

Key words: *physical culture, sport, education, system, criterion, cluster, scientific school, supply and demand, development, integration, science, innovation, collaboration.*

Kirish. Har bir soha taraqqiyotida ilm-fan asosida yaratilgan innovatsiyalarni ahamiyati katta bo‘lib, rivojlanishni hamda sohada faoliyat yuritayotgan mutaxassislarning tafakkuri, malakasi, bir-biriga bo‘lgan munosabatini o‘sishiga olib keladi. Ilm-fansiz sohalarda turg‘unlik, raqobatdan ortda qolish kuzatiladi. Mazkur holat insoniyat tarixi davomida ko‘p marotaba o‘z isbotini topgan.

Oxirgi yillarda jamiyatning barcha jabhalariga hamda iqtisodiyot tarmoqlariga innovatsiyalarni joriy qilish bo‘yicha ko‘pgina ishlar amalga oshirilmoqda. Hatto, ta’lim tizimiga ham turli yo‘nalishdagi innovatsiyalar joriy qilinib, samarali natijalarga erishilmoqda. Bu esa o‘qitishning yangi uslublari, yangi ta’lim texnologiyalarini vujudga keltirib, “Fan, ta’lim va ishlab chiqarish” o‘rtasidagi o‘zaro mustahkam bog‘langan tizimni rivojlanib borishiga xizmat qilmoqda.

Fan, ta’lim va ishlab chiqarish o‘rtasida mustahkam o‘zaro bog‘langan tizimni vujudga keltirishda har bir kichik tizim mutaxassislari bilan hamkorlik qilish, o‘zaro manfaatlarni hurmat qilish, muammolarni aniqlashda hamkorlik qilish hamda aniqlangan muammolar doirasida ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil qilish orqali innovatsiyalarni joriy qilish, innovatsion metodlar va mahsulotlarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur tizimlar o‘rtasida mustahkam aloqalarni shakllantirish ularni bir maqsad yo‘lida birlashtirib, samarali faoliyat yuritishini ta’minlash zarur hisoblanadi. Bugungi kunda mazkur vazifani klaster tizimi orqali ta’minlash ishlari ommalashib bormoqda. Klaster tizimini har bir sohaga tatbiq etish orqali sohani rivojlantirish, yangilash, yangi samarali va tejamkor texnologiyalardan foydalanish, mahsulotlarni ishlab chiqarish imkoniyati ortib bormoqda. Shuning uchun ham mamlakatimizda klaster tizimini rivojlantirish zarur hisoblanadi.

Bir nechta lug‘atlarda klaster tushunchasiga quyidagicha ta’riflar berilgan: “Klaster (inglizcha cluster-Klaster, brush, svar) – bu bir necha elementlarning birlashmasi bo‘lib, uni ma’lum xususiyatlarga ega bo‘lgan mustaqil birlik sifatida

ko‘rib chiqish mumkin” [11]. Shuningdek, “klaster-bu ma’lum xususiyatlarga ega bo‘lgan mustaqil birlik sifatida qaralishi mumkin bo‘lgan bir nechta bir hil elementlarning birlashmasi” [6, 61-b.]. Ushbu ta’riflardan kelib chiqqan holda klaster tizimini asosiy elementi sifatida hamkorlikda ishlash uslubi deb hisoblasa ham bo‘ladi. Mazkur qarashlardan kelib chiqqan holda faylasuf konfutsiyning quyidagi ibratli so‘zlarini kelitrish mumkin: “Faylasuf Konfutsiy haqida shunday hikoyat bor: u yoshligida baliqchining oldiga boribdi. Baliqchi unga balig‘idan tutqazibdi. Shunda u baliqchiga qarab, “Menga yordam bermoqchi bo‘lsangiz, baliq bermang, balki tutishni o‘rgating. Shunda men bu hunar bilan oilamni boqaman, undan ortsa, qo‘shnilarimga, undan ham ortsa, xalqqa beraman”, debdi” [12]. Buyuk faylasuf bilan bog‘liq bo‘lgan ushbu rivoyat orqali har bir hodisa va jarayonlarni chuqur o‘rganib, boshidan to oxirigacha bo‘lgan jarayonni o‘zlashtirmasdan turib biror natijaga erishish qiyinligi to‘g‘risidagi tarbiyaviy o‘gitni ko‘rish mumkin. Albatta, inson o‘z kasbining sir-asrorlarini to‘liq o‘rganmasdan, yetarli malakaga ega bo‘lmasdan yetuk mutaxassis bo‘lib yetisha olmaydi. Shu bilan birga faoliyat yuritayotgan sohasini rivojlanishiga o‘z hissasini qo‘shib boradi. Umuman mamlakatimizda klaster tizimini rivojlantirish bo‘yicha bir qator olimlar ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishmoqda (M.A.Raxmatov, B.Z.Zaripov va boshqalar). Shuningdek, jismoniy tarbiya va sport yo‘nalishida ham R.D.Xalmuxamedov, A.A.Taniberdiyevlar oliy ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiya darslari uchun klaster modulini ishlab chiqish bo‘yicha olib borgan ilmiy izlanishlari natijalarini e’lon qilib kelmoqda. Lekin, jismoniy tarbiya va sport sohasida sog‘lomlashtirish hamda ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil qilish, tizimlashtirish masalalarini o‘z ichiga qamrab olgan klaster tizimini tashkil qilish hamda oxirgi yillarda malakali mutaxassislar tayyorlash tizimini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilmagan.

Tadqiqot maqsadi. Jismoniy tarbiya va sport sohasida fan, ta’lim va ishlab chiqarish sohalari o‘rtasida hamkorlik aloqalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi klaster tizimini tashkil qilish hamda sohadagi malakali mutaxassislarda mazkur yo‘nalishdagi ishlarning samaradorligini ta’minlashga xizmat qiluvchi malaka mezonlari mavjudligini tajribada asoslash.

Tadqiqot vazifasi. Jismoniy tarbiya va sport sohasida zamonaviy talabalar doirasida ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil qilishini, malakali mutaxassislar tayyorlash bo‘yicha olib borilayotgan ishlar samaradorligini aniqlash.

Tadqiqotning uslubi. Pedagogik kuzatishlar, anketa so‘rovlardan foydalanildi. Bunda jismoniy tarbiya va sport sohasida fan, ta’lim va ishlab chiqarish sohalari o‘rtasida hamkorlikni rivojlantirish uchun kerak bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lgan mutaxassislarni qanday tayyorlash masalalari sotsiologik tadqiqot orqali o‘rganildi hamda sohadagi yetuk mutaxassislarning fikrlari tahlil qilindi. Tajriba ishtirokchilari kontingenti. Tajribada 20 nafar malakali mutaxassislar ishtirok etdi.

Tadqiqot natijalari. Bizga ma’lumki har bir ishlab chiqarish sohasiga yangi zamonaviy texnologiyalar kirib kelmoqda. Ular ishning sifatini oshirish bilan birga qisqa vaqt davomida ko‘proq hamda raqobatbordosh mahsulotlarni ishlab chiqarishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur jarayonlarni boshqarish va yanada rivojlantirishda klaster tizimi o‘z samarasini ko‘rsatdi. Klaster tizimida ishlash klaster jamoasini o‘z oldiga korxona faoliyatini kengaytirish, mahsulot turini ko‘paytirish va sifatini yanada yaxshilash imkoniyatini beradi. Bularning barchasi klaster integratsiya, innovatsiya va iqtisodiy o‘sish mezoni ekanidan dalolat beradi. Chunki bir makonda harakat qilish, o‘zining faoliyatini tashkil qilish hamda shu yo‘nalishdagi muassasa va mutaxassislar bilan hamkorlik qilish yaratilayotgan yangilik va innovatsiyalarni o‘zlashtirish imkoniyatini yaratish bilan birga innovatsiyalarni yangi turlarini yaratish, qo‘llash va amaliyotga tatbiq etishda samarali hisoblanadi.

Mamlakatimiz va jahonda jismoniy tarbiya va sport sohasiga bo‘lgan qiziqish tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, pandemiya davrida salomatlikni ta’minlashda jismoniy tarbiya mashg‘ulotlaridan to‘g‘ri foydalanish samarali ekanligini ko‘rsatdi. Bugungi kunda jismoniy tarbiya va sport sohasidan daromad olish ilinjida turli soha vakillarining kirib kelishi kuchaymoqda. Hatto, katta miqdordagi investitsiyalar ham kiritilmoqda. Bu esa jismoniy tarbiya va sport sohasining kengayib, turli sohalarning o‘zaro hamkorlikdagi harakatiga bo‘lgan ehtiyojning paydo bo‘lishiga olib keldi. Bundan buyon ushbu sohada hamda uning tarmoq sohalarida sohalar kesimida muammolarni o‘rganish, ushbu holatdagi munosabatlarni tartibga solish zaruriyati tobora ortib boradi. Chunki, jismoniy tarbiya v sport sohasiga turli sohalarning kirib kelishi, inson bo‘sh vaqtini o‘tkazishda jismoniy tarbiya va sportdan foydalanish xohishining hamda sport musobaqalariga bo‘lgan qiziqishning ortib borishi sohada innovatsion ishlanmalarga bo‘lgan talabning ortib borish jarayonini kuchaytirmoqda. Insonlarning jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari jarayonida turli innovatsion sport jihozlaridan foydalanish, musobaqalarni tashkil qilishda raqamli texnologiyalardan foydalanish, o‘z jismoniy holatini rivojlantirishda innovatsion ishlanmalardan foydalanish ko‘nikmalarining shakllanishi, ulardan foydalanishga odatlanish kuzatilmoqda. Shuningdek, insonlarning tobora individuallashib borishi ham mazkur sohada qullanilayotgan sport jihozlariga bo‘lgan talabning ortib borishiga xizmat qilmoqda. Mazkur holatda klaster tizimini joriy qilish o‘z samarasini beradi. Klaster tizimi jismoniy tarbiya va sport sohasiga tatbiq etilishi sohadagi fan, ta’lim va ishlab chiqarish munosabatlarini birlashtirib, olimlar, trenerlar hamda ishlab chiqaruvchilarni bir maqsad yo‘lida harakat qilishga bo‘lgan ishonchli munosabatlarni shakllantiradi. Shuningdek, turli sohadagi mutaxassislarni o‘zaro bir-birini tushunishga, innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqishga olib keladi hamda jismoniy tarbiya va sport yo‘nalishidagi muammolarni o‘rganishda turli soha olimlarini birlashtirib, hamkorlikda ishlash (kollaboratsiya) natijasida sohani

rivojlantrishga qaratilgan ixtirolar, ishlanmalar, zamonaviy innovatsion metodlarning shakllanish va rivojlanish jarayonlarini tezlashtiradi.

Jismoniy tarbiya va sport sohasida klaster tizimining yaratilishi natijasida jismoniy tarbiya va sport sohasida yaratilayotgan ishlanmalar sifatining nazorati ta’minlanadi hamda jismoniy tarbiya va sport sohasiga innovatsiyalarni joriy qilish samaradorligi yanada ortadi.

Bu esa nafaqat jismoniy tarbiya va sport sohasida innovatsion yondashuvlarning rivojlanishiga, ilm-fan taraqqiyotining negizi hisoblanuvchi yangicha qarashga ega bo‘lgan olimlar avlodining shakllanishiga, ilmiy maktablarning rivojlanishiga ijobiy ta’sir qiladi. Olimlar o‘rtasida hamkorlikda ishlash -kollaboratsiya (collaboration - hamkorlik, hamkorlikda ishlash), ilmiy maqolalar, jamoaviy monografiyalar yozish hamda ilmiy-tadqiqot ishlari, loyihalarni bajarish malakasini rivojlantiradi. Shuningdek, sohadagi ilmiy maktablarni ham rivojlanishiga ojobiy ta’sir qiladi. Bizga ma’lumki mamlakatimiz ta’lim tizimida “ustoz-shogird” an’anasini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilayotganligi hamda mazkur tizim asosida ilmiy maktablarni rivojlantirishga e’tibor qaratilayotganligi olimlik kasbiga xos bo‘lgan qadriyatlar va munosabatlar tizimining rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Bu borada jismoniy tarbiya va sport sohasida ham ilmiy maktablar faoliyatini yo‘lga qo‘yish, jismoniy tarbiya va sport sohasining ma’lum bir yo‘nalishida ko‘p yillardan buyon mehnat qilib kelayotgan ilmiy salohiyati va saviyasi yuqori bo‘lgan professorlarga ilmiy maktablarini yo‘lga qo‘yish hamda o‘z sohasini belgilab olish sohadagi tarmoq yo‘nalishlarning o‘sishiga xizmat qiladi. O‘z ilmiy maktablarni yaratgan olimlar va ularning izdoshlari jismoniy tarbiya va sport sohasining yangi yo‘nalishlariga asos solishda, mamlakatimiz fani va ta’limi rivojiga munosib hissa qo‘shishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa jismoniy tarbiya va sport sohasi yo‘nalishlaridagi fan doktorlarining jismoniy tarbiya va sport sohasining ma’lum bir yo‘nalishida ilmiy maktablarini tashkil qilish va rivojlantirish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Zamonaviy taraqqiyot natijalari har bir soha vakillarini zamon talablariga mos bo‘lgan ko‘nikma, malaka va tajribalarga ega bo‘lishi lozimligini ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, ilm-fan sohasidagi yangiliklarni o‘zlashtirish, tadqiqot natijalaridan foydalana olishi hamda fanlar kesimidagi muammolarni o‘rganishda hamkorlikda ishlash malakasiga ega bo‘lishi zamonaviy yetuk mutaxassislar uchun zarur bo‘lgan mezonlar hisoblanadi. Xususan, jismoniy tarbiya va sport sohasidagi malakali mutaxassislarda fanlar kesimidagi muammolarni hamkorlikda o‘rganish malakasiga hamda etikasiga qat’iy rioya qilish irodasiga ega bo‘lishi zarur bo‘lib, sohada yuzaga kelayotgan bir qator fanlar kesimidagi muammolarni o‘rganishda, sohaga kirib kelayotgan zararli ilmiy ishlanmalar va vositalarni oldini olishda o‘z samarasini beradi. Biz mazkur mezonlarni ahamiyatlilik darajasini o‘rganish maqsadida sotsiolgik tadqiqot ishlarini tashkil qildik. Tadqiqotimizda 20 nafar jismoniy tarbiya va sport sohasidagi yetkachi mutaxassislar ishtirok etdi. Ularga “Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi malakali mutaxasislar qanday bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak?” savoli bilan murojaat qildik. Tadqiqotimizda

ishtirok etgan malakali mutaxassislarning 75 % – “Jismoniy tarbiya va sport sohasida ilmiy maktabni yaratish, soha yoki fanning ma’lum bir yo‘nalishini tanlash hamda shu yo‘nalishda ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil qilish malakasiga ega bo‘lishi kerak”, 79% – “Bir necha sohalar kesimidagi muammolarni hamkorlikda o‘rganish malakasiga ega bo‘lishi kerak”, 87% – “Jismoniy tarbiya va sport sohasida tashkil etilgan ilmiy-tadqiqot ishlari natijalarini o‘zlashtirish hamda amaliyotda qo‘llay olish tajribasiga ega bo‘lish kerak”, hamda 97% – “Olimlik etikasiga qat’iy rioya qilish irodasiga ega bo‘lishi kerak” deb hisoblashgan.

Tadqiqot natijalari jismoniy tarbiya va sport sohasida malakali mutaxassislarni tayyorlash jarayonlarini takomillashtirishda bo‘lajak mutaxassislarda quyidagi bilim, malaka va ko‘nikmalarni rivojlantirib borish zarurligi ko‘rsatdi. Mazkur bilim, malaka va ko‘nikmalarni zamonaviy mezonlar sifatida quyidagi tartibda keltirdik:

Jismoniy tarbiya va sport sohasida tashkil etilgan ilmiy-tadqiqot ishlari natijalarini o‘zlashtirish hamda amaliyotda qo‘llay olish tajribasiga ega bo‘lish. Bir necha sohalar kesimidagi muammolarni hamkorlikda o‘rganish malakasini shakllantirish kollaboratsiya.

Jismoniy tarbiya va sport sohasida ilmiy maktabni yaratish, soha yoki fanning ma’lum bir yo‘nalishini tanlash hamda shu yo‘nalishda ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil qilish.

Xulosa. Xalqaro tajriba olimlarning ko‘payishiga fan tarmoqlari yo‘nalishlari bo‘yicha kuchli olimlarning shakllanishini ko‘rsatdi. Jismoniy tarbiya va sport sohasida ham fan tarmoqlari bo‘yicha yetuk mutaxassislar avlodining shakllantirish olimlar va yetuk mutaxassislar o‘rtasidagi vorisiylikni ta’minlab beradi. Ya’ni yaratiliyotgan bilimlar, nazariyalarni yosh avlod tomonidan katta avloddan o‘zlashtirishi hamda o‘z hisasini qo‘shib, keyingi avlodga yetkazib berish mexanizmining rivojlanishiga olib keladi. Bu jarayonda klaster tizimi markaz vazifasini bajaradi. Sohada yaratilayotgan bilimlar, ixtirolar asosida metodologik ilmiy nazariyalarni, zamonaviy uslublarni ishlab chiqib, samaradorligni belgilab beradi.

Jismoniy tarbiya va sport sohasida klaster tizmining tashkil qilinishi xalqning salomatligini tiklashda jismoniy tarbiya va sportdan foydalanish bo‘yicha qiziqishini oshirishga qaratilgan ilmiy asoslangan tavsiyalarni ishlab chiqishda hamda xalqning jismoniy tarbiya va sport orqali salomatligini tiklash bo‘yicha savodxonligi, bilim, ko‘nikma va malakalarini oshirishga xizmat qiladi. Jismoniy tarbiya va sportdan foydalanish, qay darajada yuklamalarni berish, farzandlarini sportga oshna qilish bo‘yicha metodologiya yaratilishiga olib keladi. Chunki bizga ma’lumki har bir xalqning qadriyatlari, turmush-tarzi, an’analari bo‘ladi. Shuning uchun mavjud mintaqaning iqlim bo‘yicha shart-sharoitlari hamda xalqning madaniyatini hisobga olib, aholini jismoniy tarbiya va sport orqali sog‘lomlashtirish ishlarni tashkil qilish zarur hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2015-yil 4-sentyabrdagi “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi (yangi tahriri) qonuni”.-B.29.

2. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 29-oktyabrdagi “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi qonuni”.-B.37.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-noyabrdagi “Sport ta’limi tizimini tubdan takomillashtirish orqali olimpiya va paralimpiya sport turlari bo‘yicha sportchilar zaxirasini shakllantirish sifatini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5279-sonli qarori.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-noyabrdagi «2024-yil Parij shahrida (Fransiya) bo‘lib o‘tadigan XXXIII yozgi Olimpiya va XVII Paralimpiya o‘yinlariga sportchilarimizni kompleks tayyorlash to‘g‘risida»gi PQ- 5281-son qarori.

5. Guba V.P. Teoriya i metodika sovremennix sportivnix issledo- vaniy: monografiya.-M.: Sport, 2016. – 232 s.

O‘QUVChILARDA EKOLOGIK MADANIYATNI TARBIYALAShDA JISMONIY TARBIYA VOSITALARIDAN FOYDALANISh

Ramazanov Medetbay Baxıtbaevich
b.f.b.f.d. (PhD), dotsent
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali
medetramazanov@inbox.ru

Annotatsiya: *Bugungi kunda ekologik ta’limga o‘quvchilarning tabiat va inson o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirning ilmiy asoslarini o‘zlashtirishga qaratilgan ta’lim elementlaridan biri sifatida qarash mumkin. Ekologik ta’lim va tarbiyaning maqsadi o‘quvchilarning atrof-muhitga bo‘lgan munosabatidan tortib, ularning barcha faoliyat turlarida shakllanishini ta’minlaydigan ilmiy bilimlar, qarashlar va e’tiqodlar tizimini shakllantirishdan iborat. Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ekologik ta’lim va tarbiya bosqichlari qayd etilgan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun ekologik ta’lim va tarbiya bo‘yicha ba’zi ish shakllari taklif etilgan.*

Kalit so‘zlar: *ta’lim, ekologiya, ekologik ta’lim, ekologik tarbiya, tabiatni muhofaza qilish e’tiqodi, ekologik faoliyat.*

Аннотация: *экологическое образование сегодня можно рассматривать как один из элементов образования, направленный на овладение школьниками научными основами взаимодействия природы и человека. Цель экологического образования и воспитания - формирование системы научных знаний, взглядов и убеждений, обеспечивающих становление ответственного отношения школьников к окружающей среде во всех видах их деятельности. В статье прописаны этапы экологического образования и воспитания младших*

школьников, предложены некоторые формы работы с младшими школьниками по экологическому образованию и воспитанию.

Ключевые слова: *образование, экология, экологическое образование, экологическое воспитание, охрана природы убеждения, деятельность экологического характера.*

Annotaition: *Today ecological education can be examined as one of elements of education, sent to the capture by schoolchildren by scientific bases of cooperation of nature and man. Aim of ecological education and educations - forming of the system of scientific knowledge, looks and persuasions, providing becoming of responsible relation of schoolchildren to the environment in all types of their activity. The stages of ecological education and education of junior schoolchildren register in the article, some forms of work are offered for junior schoolchildren on ecological education and education.*

Key words: *education, ecology, ecological education, ecological education, eguard o f natures persuasions, activity o f ecological character.*

Kirish. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi farmonda “Aholi salomatligi va genofondiga ziyon yetkazadigan mavjud ekologik muammolarni bartaraf etish, ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish, shahar va tumanlarda ekologik ahvolni yaxshilash, “Yashil makon” umummilliy loyihasini amalga oshirish” vazifalari belgilab berilgan [1]. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda atrof-muhitga ehtiyotkorona, e’tiborli munosabatda bo‘lishni tarbiyalash, uning uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni kengaytirish ularni muhofaza qilish va yaxshilash, ta’lim va kadrlar tayyorlash umumiy tizimining ajralmas qismiga aylanishi kerak. Bu tizimning muhim bo‘g‘ini o‘quvchilarning ekologik tarbiyasi hisoblanadi.

Bugungi kunda ekologik ta’limni o‘quvchilarning tabiat va inson o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirning ilmiy asoslarini egallashiga yo‘naltirilgan ta’lim elementlaridan biri sifatida qarash mumkin. Olimlar tomonidan ekologik ta’lim va tarbiyaning maqsadini “o‘quvchilarning o‘z faoliyatining barcha turlarida atrof-muhitga mas’uliyatli munosabatda bo‘lishini ta’minlaydigan ilmiy bilimlar, qarashlar va e’tiqodlar tizimini shakllantirish” deb belgilaydilar [3. 20-b.].

Metodlar. Maqolada hujjatlar bilan ishlash, ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili, pedagogik kuzatuv, suhbat kabi ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalanildi.

Natijalar va munozara. Ekologik ta’lim maqsadlari shaxsga xos kategoriyalar bilan tavsiflanadi: “xulq-atvor”, “munosabat”, “mas’uliyat”. Maktab o‘quvchilarini ekologik tarbiyalash va ularga ta’lim berish borasidagi ishlarning yakuni sifatida aksariyat pedagoglar tabiatda inson xulq-atvorining yuksak madaniyatini, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va tabiiy muhitni muhofaza qilish uchun fuqarolik mas’uliyatini shakllantirishni e’tirof etishlari bejiz emas. Aksariyat olimlarning fikricha, ekologik ta’lim va tarbiyaning natijasi tabiiy muhitning holati uchun

ma’lum darajadagi ma’naviy mas’uliyatni, ekologik e’tiqodni shakllantirish, shaxsning xatti-harakatlarida namoyon bo‘ladigan tabiatga to‘g‘ri munosabatda bo‘lishni ishlab chiqishdir. Ye.M.Kudryavseva ekologik e’tiqodlarning psixologik tabiatini ko‘rib chiqib, tizimli yondashuvni amalga oshirish zarurligini ta’kidlaydi. Tabiatni muhofaza qilish e’tiqodlari tarkibida u uchta asosiy komponentni ajratib ko‘rsatadi va ularning har birida bir qator elementlarni ajratib ko‘rsatadi:

1. Intellektual komponent: e’tiqodlar asosida yotuvchi ekologik bilimlar; intellektual ko‘nikmalarga egalik; sababiy tafakkur usullariga egalik.

2. Shaxsiy komponent: motivatsiya, munosabat va baholash, tabiatni muhofaza qilish faoliyatida maqsadlarni belgilash va ularni asoslash, axloqiylik, tabiatni muhofaza qilish zaruriyatiga ishonch va insoniyat bu zaruriyatni anglashiga ishonch.

3. Ichki tayyorlik: subyektning o‘zidagi mavjud bilimlarga muvofiq harakat qilish istagi, niyati, ehtiyoji, o‘z pozitsiyasini real ishlarda, real faoliyatda amalga oshirishga tayyorlik [5.59-61].

Pedagog ishida tizimli yondashuvni ta’kidlar ekan, Ye.N.Kudryavseva tayanadigan elementlarning aloqadorligini tartibli fikrlashdagi usullarning darajadagi ekologik topshiriqlar tizimi bilan aloqadorligi misolida kuzatish mumkin.

Tabiatni muhofaza qilish zarurligi haqidagi bilimlar bola tabiatdagi o‘zgarishlarning sababini aniqlay bilsagina va inson faoliyatining oqibatlarini (ham salbiy, ham ijobiy oqibatlarini) oldindan ko‘ra bilsagina ta’sirli bo‘ladi. Ekologik ongni shakllantirish jarayonida o‘quvchilarda nafaqat mavjud bilimlar, balki taassurotlar, hissiy kechinmalar, estetik baho va mulohazalar, ijodiy xarakterdagi harakatlarni ham faollashtirish lozim. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga alohida emotsionallik xos ekanligini hisobga olib, tabiat go‘zalligini idrok etishni bolaning axloqiy tarbiyasi bilan uzviy bog‘lash zarur. Agar bola go‘zallikni ko‘ra olsa, bu go‘zallikni saqlab qolish uchun o‘z qo‘llari bilan nimadir qila olsa va tayyor tursa, bundan keyin u tabiatda axloqsiz xatti-harakatlarga qodir bo‘lmaydi.

Avvalo, maktab o‘quvchisida tarbiyalanuvchiga pedagogik ta’sir ko‘rsatishning birinchi bosqichi sifatida tabiat go‘zalligiga nisbatan sezgirlikni rivojlantirish kerak. Tabiatni estetik idrok etish bu go‘zallikni asrab-avaylashning axloqiy, fuqoralik burchini anglab yetishni shakllantiradi. Pedagogning muhim vazifasi faqat estetik bilimlarni boyitish emas his-tuyg‘ular, shuningdek, insonning tabiatga bo‘lgan munosabatining axloqiy tomonini rivojlantirish, uning go‘zalligini oshirishga intilish. Ko‘pincha maktab o‘quvchisining tabiatga munosabati, uning tabiiy muhitdagi xatti-harakatlari nazorat qilinadimi yoki nazorat qilinmaydimi, ya’ni butunlay uning vijdoniga, ongiga bog‘liq bo‘ladi. Tabiatga munosabat mezonlarini belgilashda bolaning har bir alohida vaziyatda qanday motivlarga amal qilishini aniqlash juda muhimdir. Masalan, kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar uchun motivlar “salomatlik uchun foydali”, “chiroyli”, “achinarli”, “tabiatga yordam berish” va h.k. kabi tushunarli tezislar shaklida ifodalanishi mumkin. Shuning uchun dunyoni bilish, o‘qitish jarayonida tabiatga ehtiyotkorona

munosabatda bo‘lishni tarbiyalash muammosi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari va olimlarning e’tiborini tobora ko‘proq jalb etmoqda. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ekologik tarbiyalashning mohiyati nimada? Kichik yoshdagi o‘quvchi qanday ekologik tushunchalarni idrok etishi mumkin? Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ekologik faoliyatning qaysi turlariga jalb qilish mumkin? Bu faoliyat qanday darslarda va sinfdan tashqari ish shakllarida amalga oshirilishi mumkin? Qaysi metodlardan foydalanish eng katta pedagogik samara berishi mumkin? Bu va boshqa masalalar o‘qituvchilar oldida doimo turadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 27-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida Ekologik ta’limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”dagi 434-son qaroriga muvofiq, [2] ekologik ta’limni rivojlantirish kontsepsiyasi umumiy o‘qitish jarayonida o‘quvchilar sog‘liqni saqlash kasbiy faoliyati haqida ma’lumot va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari kerak.

Nazariya va fanlardan boy material maktab o‘quvchilarida tabiatga mas’uliyatli munosabatni, tabiatning o‘quvchi shaxsiga ta’sirini tarbiyalash amaliyoti pedagog olimlar tomonidan to‘plangan [5,6]

Xulosa va tavsiyalar. O‘quvchilarning ekologik tarbiyasi bir qator bosqichlardan o‘tadi va uning mazmuni bolaning ulg‘ayishi va rivojlanishi bilan murakkablashib boradi. Shu sababli, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ekologik tarbiyasida o‘qituvchilarning muvaffaqiyati, bu ishning maktabgacha yoshdagi bolalar bilan - oilada, bolalar bog‘chasida qay darajada samarali olib borilganiga, ularning qanday axloqiy, estetik va ekologik tajriba to‘plaganiga bog‘liq bo‘ladi.

Birinchi bosqich so‘z orqali tabiatning eng yorqin va g‘ayrioddiy hodisalariga (quyosh botishi, kuzgi manzaralar, kamalak kabi) nisbatan o‘z munosabatini ifodalash ko‘nikmalarini rivojlantirishni o‘z ichiga olishi mumkin. Bu jarayonda nafaqat o‘qituvchining bolalar bilan suhbati, balki xalq og‘zaki ijodi, adabiyot, musiqa va tasviriy san’at asarlari hamda jismoniy tarbiya va turizm muhim ro‘l o‘ynaydi. Agar ekskursiya paytida to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘rmonda, daryoda yoki o‘tloqda bolalarga jismoniy mashqlar va harakatli o‘yinlarni o‘ynash taklif etilsa, ona tabiat ularga yanada yaqinroq va qadrliroq bo‘lib qoladi. Jismoniy tarbiya va harakatli o‘yinlarga faqatgina tabiat manzaralari va “kayfiyati”ga illyustratsiya sifatida qarash noto‘g‘ri, chunki ular bolaning ekologik madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Bolaning ekologik tarbiyasining ikkinchi bosqichi tabiatda ko‘rgan va eshitgan narsalarni kuzatish, his qilish va tushunishni o‘z ichiga oladi. Tabiatga muhabbat faol tuyg‘u sifatida shakllanishi kerak. Ekskursiya davomida o‘qituvchi rahbarligida o‘quvchilar kelajakdagi albomlar va ko‘rgazmalar uchun materiallar (fotosuratlar, rasmlar, o‘simliklarning gerbariy namunalari, tabiat haqidagi chizmalar, o‘simlik urug‘lari) to‘plashlari mumkin.

Ekologik tarbiyaning uchinchi bosqichi tabiatshunoslik xarakteridagi ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilishi lozim: atrof-muhitga zarar yetkazmagan

holda xo‘jalik-iqtisodiy vazifalarni hal etish qobiliyati, tabiiy boyliklarni to‘g‘ri parvarish qilish mahorati, tabiat go‘zalligini asrash va tabiiy boyliklarni ko‘paytirish ko‘nikmalari.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ekologik tarbiyalashda insonning tabiat bilan o‘zaro ta’sirining konkret faktlarini ko‘rsatish katta ahamiyatga ega, avvalo, kattalarning tabiatdagi xilma-xil faoliyati, tabiatni muhofaza qilish bo‘yicha ko‘p qirrali amaliy ishlar (o‘rmonlar, ko‘llar, noyob o‘simlik va hayvonlar yashaydigan joylar va h.k.) bilan mahalliy materialda tanishish katta ahamiyatga ega. Shu bilan birga, insonning tabiatga salbiy ta’siri, ushbu mintaqadagi ekologik qiyinchiliklar (avtomobil transportidan havoning yuqori darajada ifloslanishi, suvning ifloslanganligi, tuproqning aholi bilan to‘lganligi).

Tabiatda unga zarar yetkazishni istisno etadigan to‘g‘ri xulq-atvor yosh avlodda uning tabiiy muhitni muhofaza qilishdagi bevosita ishtiroki, ona yerining go‘zalligini saqlash g‘amho‘rligi bilan shakllanadi.

Atrofdagi tabiiy obyektlarga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishning ko‘rsatkichi bolalarning ularni parvarish qilishda faol ishtirok etish istagidir. O‘simlik va hayvonlarni parvarish qilish jarayonida bolalar asta-sekin o‘simlik va hayvonot dunyosining hayoti va holati inson mehnatiga bog‘liqligini tushuna boshlaydilar. Atrof-muhitni yaxshilashga qaratilgan mehnat (ko‘kalamzorlashtirish, hududni tozalash va boshqalar) bolalarning mustaqilligi va faolligi sharoitida tabiatga ongli munosabatni tarbiyalashning muhim vositasiga aylanadi.

Ekologik madaniyatni tarbiyalashning muhim tarkibiy qismlaridan biri o‘yin hisoblanadi. O‘yin - faqat ko‘ngilxushlik va ermak emas, balki bolalarni ijodiy faoliyatga jalb etishning maxsus usuli, bolalarga pedagogik ta’sir ko‘rsatishning jiddiy vositalaridan biridir. Ammo o‘yin birdan bir maqsad emas, u tarbiya berishning yagona vositasi ham bo‘lmasligi kerak.

O‘yinlar, tanlovlar, musobaqalar, viktorinalar, turnirlar qiziqarli bo‘lib, ishtirokchilardan bilimdonlik, ijodkorlik, ixtirochilik, mahoratni talab qiladi. Ma’lum sharoitlarda mo‘ljal olmoq, sport musobaqalar va tanlovlar, ommaviy o‘yinlar bolalarni naturalistik faoliyatga jalb qilish vositalaridan biridir [3.4].

Pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq ishning turli shakllari va ekologik ta’lim vositalarining uyg‘unligi maktab o‘quvchilarida uning har bir obyekti va hodisasini saqlab qolish uchun mas’uliyat hissini o‘ziga xos qadriyat sifatida uyg‘otadi va shu bilan tabiiy muhitni saqlashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 27-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida Ekologik ta’limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”dagi 434-son qarori

3. Зверев И.Д. Экология в школьном обучении. Новый аспект образования.-М., 1980 г.С.20

4. Иванова, Т.С. Экологическое образование и воспитание в начальной школе .-М.: ЦГЛ, 2003 -56 с.

5. Кудрявцева Е.М. Психологический аспект экологического образования и воспитания. В кн. проблемы экологического образования и воспитания в средней школе.- Таллин, 1980ч.1 -С.59-61

6. Молодова Л.П. Игровые экологические занятия с детьми -М.ЦГЛ, 2003, -127 с.

7. Ramazanov M.B. Sportshi organizmine qorshaǵan ortaliq hám ekologiyaliq faktorlardiń tásiri. «Dene tárbiyasí hám sport XABARSHÍSÍ» 2023 (№2-3) 19-22

8. Ramazanov M.B. Dene tárbiyasí hám sport penen shuǵıllanıwda ekologiyalıq faktorlardıń tásiri. «Ilim hám jámiyet» 2024 (№1) 68-70

МЕДИЦИНАДА КЛИНИКАЛЫҚ ПӘНЛЕРДИ ОҚЫТЫЎДА ИНТЕРАКТИВ УСЫЛЛАРДЫҢ НӘТИЙЖЕЛИЛИГИ

Қурбаназаров Муратбай Қунназарович
м.и.б.ф.д. (PhD)
Қарақалпақтан медицина институты
Арзыбаев Шынғыс Дузелбаевич
ассистент-оқытыўшы
Қарақалпақтан медицина институты
Абдирахманова Саида Абдисаитовна
магистрант
Қарақалпақтан медицина институты
chingisarzibaev@gmail.com

Аннотация. *Мақалада жоқары маманлықтағы медициналық кадрларды таярлаўда заманагөй интерактив оқытыў усыллары, олардың студенттиң конкрет жағдайларда клиникалық пикирлеўди қәлиплестириўдеги әҳмийети, интерактив усылларды теманың мазмунына қарай таңлаў абзаллығы келтириледи.*

Тайыныш сөзлер: *интерактив усыллар, студент, диабетлик ретинопатия, синдикат усылы.*

Аннотация. *В статье приводится применения современных интерактивных методов обучения в подготовке высокообразованных медицинских кадров, их значения в формировании клинического мышления у студентов в конкретных ситуациях, также грамотный подбор и использование интерактивных методов по содержанию тем.*

Ключевые слова: *интерактивные методы, студент, диабетическая ретинопатия, метод синдиката.*

Annotation. *The article describes the application of modern interactive teaching methods in the training of highly educated medical personnel, their importance in the formation of clinical thinking among students in specific situations, as well as the competent selection and use of interactive methods according to the content of topics.*

Key words: *interactive methods, student, diabetic retinopathy, syndicate method.*

Актуаллығы. Халқымыздың ден-саўлығын сақлаў, кеселликлерди ерте анықлаў ҳәм асқыныўларының алдын алыў мәмлекетлик дәрежедеги әҳмийетли мәселе. Болажақ медициналық кадрларды таярлаў улкен жуўапкершиликти талап етеди. Себеби кеселлик бир қыйлы болғаны менен адам организминиң өзгешеликлерине, иммун системасы, қосымша кеселликлердиң биргеликте келиўине байланыслы наўқаста клиникалық кешиўи хәр қыйлы дәрежеде болыўы мумкин. Бул жағдай болажақ шыпакерлерден клиникалық пикирлеўди, көпшилик жағдайларда тез шешим қабыллаўды талап етеди. Кейинги жыллары халық арасында кең тарқалған ҳәм өсиў көрсеткишлери жоқары болған кеселликлер (атеросклероз, қантлы диабет, гипертония, буйрек кеселликлери х.т.б) диң дәслепки белгилерин, асқыныўлардың алдын алыў жолларын билиўи тийис.

Усы мақсетте клиникалық пәнлерди уйрениўде оқытыўдың заманагөй интерактив усыллардан пайдаланыў улкен әҳмийетке ийе.

Эрамыздан алдынғы 551-479-жылларда жасап өткен Қытай философы ҳәм мәмлекетлик искери Конфуций де «Мен еситемен ҳәм естен шығараман. Мен көремен ҳәм мен еслеп қаламан. Мен орынлайман ҳәм мен тусинемен!!!» дегенинде, орынлаў қәбилетин нәзерде тутқан еди.

Мақсети-клиникалық пәнлерди оқытыўда интерактив усылларды қолланыўдың нәтийжелилигин анализлеў.

Материал ҳәм изертлеў объекти. Медициналық институтының 4-курс студентлери, офтальмология пәниниң календарь-тематикалық режеси.

Изертлеў усыллары. Аналитикалық ҳәм статистикалық усыллар арқалы жуўмақ шығарыў.

Изертлеўдиң нәтийжелери. Оқыў режесиндеги офтальмология пәниндеги қантлы диабетте көриў органы тәрепинен көриўдиң пәсейиўин

уйрениў. Сабақ барысында дәстурий ҳәм интерактив усыллар пайдаланылды. Сабақтың методикалық тәмийнлениўинде сораўлар топламы, тарқатпа ҳәм презентация материаллары, ситуациялық мәселелер қолланылды. Сабақ басланыўында талабалардың берилген тема бойынша дәслепки минимал билимлери төмендеги саўаллар менен анықланды: қантлы диабет қандай кеселлик? Келип шығыўына қандай факторлар тәсир етеди? Кеселликтиң белгилери кандай? Диабетлик ретинопатияның клиникалық көриниси қандай? Шыпакер тактикасы неден ибарат ҳ.т.б.

Дастурий усылда оқытыўшы талабалардан дизим бойынша алдыннан таярланған сораў бойынша сабақ сорайды, тусинингин бахалайды. Көпшилик жағдайда студент өзи айтып берген пикирде қалады. Нәўбет пенен басқа студентлерден сабақ соралады ҳәм сабақ даўамында улыўма тусиник бериледи.

Интерактив окытыў усылларында дәслеп студентлерден тема бойынша тусинигин «ББББ» усылында анықлайды. Кесте дузип билетуғын, билип алғанлары ҳәм енди билиўди кәлейтуғын мағлыўматлар жазылады.

Билемен	**Билиўди қәлеймен**	**Билип алдым**
Қантлы диабет кеселлиги себеплери. Қантлы диабет классификациясы	Қантлы диабеттиң дәслепки белгилери. Қантлы диабетти ерте анықлаў усыллары. Қантлы диабетте көриў органындағы өзгерислер. Диабетлик ретинопатияны анықлаў усыллары. Қантлы диабет себепли көриў өткирлиги төменлеген жағдайда улыўма әмелият шыпакери тактикасы ҳ.т.б.	

Студентлер тәрепинен билиўди қәлейтығын сораўларға жуўап табыў ушын төмендеги усылды қолланыў теманы ҳәр тәреплеме уйрениўге имканият жаратады.

“Sindikat”(*грек тилинен - «бирге ислесиў»*) **методи.** Топар 3 киши топарға бөлинеди, усыныс етилип атырған тапсырмаларды 3 турли көз-қарастан шешиў зәрур. Солай етип, талқылаў ўақтында тәлим алыўшылар бир кеселликке турли шәраятларда аныклаў, ем ислеў вариантларын көрип шығады ҳәм диагностикаға, емлеўге байланыслы әдебиятларда берилген усынысларды диагностика, емлеў қандай болыўы кереклигин талқылайды. Жол қойылған қәтелерди көреди, өз билимлерин асырып, сын көз-қарастан пикирлеўди ўйренеди.

Қантлы диабет (лат. diabetes mellītus) – метаболизм (зат алмасыў)ге байланыслы кеселликлер топарына кирип, инсулин гормоны ислеп шығылыўы бузылыўы себепли созылмалы гипергликемия менен өтетуғын кеселлик. Бунда студент кеселликтиң кейинги жыллары кең тарқалғанлығы ҳәмде майыплықтың себеплери болыўы, тийкарынан қан тамырлар

өткизиўшеңлигиниң бузылыўы себепли көзде, буйректе, аяқ-қолларда аўыр асқыныўлар болыўын билиўи тийис.

Диабетик ретинопатия – бул офтальмологик кеселлик болған кантлы диабеттиң асқыныўының бир тури. Кеселлик қандағы глюкоза дәрежесиниң узликсиз көтерилиўи себепли пайда болады. Көриў органында бузылыў көриў өткирлигиниң әсте-ақырын төменлеўи менен бирге келеди. Әсиресе усы жағдай соқырлықты пайда етеди.

Кеселлик әсте-ақырын раўажланады. Патологиялық жағдайдың кери ақыбетлери ҳәм асқыныўларының алдын алыў ушын барлық имканиятлар бар. Емлеўдиң әҳмийетли тәрепи офтальмологиялық компонент фонында қанттың қандағы муғдарын бақлаў. Офтальмологлар ҳәм эндокринологлар диабетик ретинопатияны анықлаў, анализ қылыў ҳәм емлеўде қатнасады.

Диабетик ретинопатияның себеплери төмендегише тусиндириледи:

Диабетик ретинопатия қанда қанттың турақлы яки узликсиз артыўы фонында раўажланады. Бузылыў бир неше жыл даўамында диабеттиң турли формаларында раўажланады. Қантлы диабетте ретинаның зақымланыўы екинши дәрежели. Бул мультифакториал кеселлик деп есапланады.

Кеселликтиң патогенези.

Қантлы диабет фонында қан тамырларындағы өзгерислер бир топар факторлардың тәсири себепли раўажланады:

– Қанттың тиккелей токсик тәсири;

– Гормонал уйқаспаўшылық;

– Қан тамыр дийўалы өткериўшеңлигиниң артыўы.

Қантлы диабет инсулин төменлеўи яки оған тоқымалардың сезгирлиги төменлеўи менен бирге келеди. Әпиўайы углевод алмасыўының бузылыўы себепли қан тамырларының ишки қапламасының ҳәм эндотелийдиң токсик зақымланыўы барысы жуз береди. Нәтийжеде қан тамырлар дийуалының өткериўшеңлиги артады, қанның ағысы, турғынлығы ҳәм капиллярлардың жергиликли кеңейиўи бақланады. Нәтийжеде микроаневризмалар пайда болады.

Ретинаның (тор перде) азықланыўы жаманласады. Патологиялық жағдай нәтийжесинде дистрофия феномени кушейиўи бақланады. Тор перденің ишемиясына қосымша тәризде, тамырлардың пролиферация ҳәдийселери раўажланады. Яғный, тамырлардың жуқаласыўының кушейиўи менен ажралып туратуғын ушинши басқышта жаңа қан тамыр тармағының өсиўи бақланады. Ретина (тор перде) астында қан кетиўи ҳәм қан қуйылыўы мумкин.

Уйрениў натийжелери. Дәстурий усыл менен студентлердиң сабақты өзлестириўин анализлегенде 56% студентлер «қанаатландырарлы» баха алды. Бул көбинесе Блум таксономиясының 2 ҳәм 3 басқышларына (тусиниў ҳәм қоллаў дәрежесиндеги ойлаўда оқытыўшы алған билимлерден тек ғана дәстурий, дастурий емес жағдайларда да пайдалана алады. Оларды белгили

бир модел, формула, көрсетпе тийкарында туўры қоллайды) туўры келеди. Интерактив усыллардан пайдаланыў нәтийжесинде студентлердиң өзлестириўи 62% жағдайда «жаксы» өзлестириў көрсеткишине, яғный Блум таксономиясы бойынша аналитикалық пикирлеў (дәрежесиндеги ойлаўда оқытыўшы путинниң бөлеклерин ҳәм олар арасындағы өз-ара байланысты ажрата алады, логикалық пикирлеў тийкарында қәтелерди көреди, фактлер ҳәм ақыбетлер арасындағы парқларды ажратады, мағлыўматлардың әҳмийетлилигин бахалайды) ҳәм синтез (улыўмаластырыў дәрежесиндеги ойлаўда оқыўшы дөретиўшилик жумыс орынлайды, қандай да бир тәжирийбе өткериў дәрежесин дузеди, бир неше тараўлардағы билимлерден пайдаланады) баскышларына сәйкес келеди. Айрым материаллар тийкарында путинниң образын, көринисин жаратады. Бул басқыш тийисли нәтийжелерден жаңа таблица дузиўге туртки бериўши (дөритиўшилик харектердеги искерликти талап етеди) имканиятына ийе болды.

Жуўмақ. Студентлерде объектив жағдайларда логикалық пикирлеўди қәлиплестириўде сабақтың мазмунына қарай бир ямаса бир неше интерактив усыллардан пайдаланыў мақсетке муўапық.

Пайдаланылған әдебиятлар:

1. Өзбекстан Республикасы Президентиниң 2022 жыл 7 июльдеги 310-санлы қарары.

2. Сафонова Л.Ю. Методы интерактивного обучения. Великие Луки 2015. 86 с

3. Сериков В.В. Обучение как вид педагогической деятельности: учебное пособие для вузов / В. В. Сериков; под ред. В. А. Сластенина, И. А. Колесниковой. – М.: Академия, 2008.

4. Современные образовательные технологии: учебное пособие/под ред. Н.В.Бордовской. – М.: КНОРУС, 2010.

5. Рузиева Д.,Усманбаева М.,Холикова З. Интерфаол методлар: мохияти ва кулланилиши. Тошкент. 2013. 116 б

6. Ходжаев Б.Х. «Интерфаол таълим технологиялари ва стратегиялари» модули маъруза матнлари.Тошкент. 2015. 79 б

7.Интерактивные методы обучения в преподавании. //метод. рекомендации для преподавателей. Составители Курбаназаров М. соавт. Нукус 2006. 61 с.

Ózbekstan mámleketlik dene tárbiyası
hám sport universiteti
Nókis filialı
“Dene tárbiyası hám sport Xabarshısı”
ISSN 2181-2268

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya
va sport universiteti Nukus filiali
“Jismoniy tarbiya va sport
